


logann Wolfgang
GYOTE


YOSH
VERTE
IZTIROKLARI



Iogann Wolfgang Gyote

**YOSH VERTERNING
IZTIROBLARI**

Roman



**Yoshlar nashriyot uyi
Toshkent – 2018**

UO·K 821.112.2-31

KBK 84(4Ger)

G 44

Nemis tilidan
Yanglish Egamova
tarjimasi

Gyote, Iogann Wolfgang

Yosh Verterning iztiroblari: roman / Iogann Wolfgang Gyote. –
Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – 196 b.

Jahon adabiyoti tarixida muqim o‘ringa ega bo‘lgan
ulug‘ nemis shoiri Iogann Wolfgang Gyote umri so‘ngida
nasriy asar yozishgaga jazm etgan. Buning samarasi o‘laroq
«Yosh Verterning iztiroblari» romani dunyoga kelgan.

Roman yosh ko‘ngillarning zavq-shavqi, iztirobi, qay-
noq muhabbatи haqida.



UO·K 821.112.2-31
KBK 84(4Ger)

ISBN 978-9943-5219-8-8

**© Yoshlar nashriyot
uyi, 2018**

Sho'rlik Verterning kechinmalariga oid nima topishga erishgan bo'lsam, avaylab to'pladim va buni Sizga manzur eta olsam, mendan minnatdor bo'larsiz, deb ishonaman. Siz uning zukko qalbi oldida hurmat va ehtirom bilan bosh egarsiz hamda qismatiga achchiq ko'z yoshi to'karsiz.

Xuddi shunday ko'rgulikka duchor bo'lgan inson, uning izardoridan sen ham panoh top. Agarda o'z aybing yoki taqdir hukmi bilan o'zingga yaqinroq do'st topa olmasang, mayli, shu kitobcha senga hamroh bo'la qolsin.

1771-yil, 4-may

Ketganimdan biram xursandmanki! Qimmatli do'stim, inson qalbi nima degan narsa! Yuragimga g'oyat yaqin, senday sevikli do'stimni tashlab ketdimu, yana bundan mamnunman-a! Bilaman, buning uchun meni kechirasani. Axir ortiqcha sho'xliklarim o'z-o'zimni chaig'itish uchungina o'ylab chiqarilmaganmidi? Bechora Leonora! Baribir men bunda aybdor emasdim. Opasining o'ziga xos latofatiga mahliyo bo'lib vaqt o'tkazgan paytalarimda sho'rlik Leonora qalbida ehtiros uyg'ongan bo'lsa menda nima ayb? Lekin baribir... mening mutlaqo aybim yo'qmi? Axir men uning hislariga erk bermadimmi? Gar-

chi noo‘rin bo‘lsa-da, biz gohida kalaka qiladigan eng sof his-tuyg‘ulardan yupanmas edimmi? Axir men... oh, inson o‘z-o‘zidan gina ham qila oladi! Aziz do‘stim, senga va‘da beramanki, men o‘zimni tuzataman, endi avvalgi odatimi ni tashlayman, peshonaga yozilgan turli xil ko‘rguliklarni qayta eslab o‘zimni-o‘zim qiynamayman. Endi bugungi kundan lazzatlanaman, o‘tmish esa o‘tmish bo‘lib qolaveradi. Albatta, haqsan, azizim, odamlar, – kim biladi deysan, ular nima uchun bunday yaratilgan, – o‘tmishdagi qora kunlarni hadeb eslayvermay, bugungi kun halovati bilan yashasalar edi, kamroq qiyngan bo‘lur edilar.

Agar malol kelmasa, onamga aytib qo‘ysang, uning topshirig‘ini bajon-u dil ado etib, uni bundan tez orada voqif qilaman. Xolamnikida bo‘ldim, u ta’rif etganlaridek zahar xotin emas, aksincha, qat’iyatli, ko‘ngli ochiq ayol ekan. Men unga bizga tegadigan merosning kechiktirilganidan onamning ranjiganini aytdim. U xotirjamlik bilan, barcha shart-sharoitni tushuntirib, shular bajarilgan taqdirda, bizga o‘zimiz talab qilgan mol-mulkdan ham ziyyodrog‘ini berishga rozi ekanligini bildirdi... To‘g‘risi, hozir bu haqda yozishni mutlaqo istamayman, onamga aytib qo‘y: hammasi joyida bo‘ladi. Men esa, azizim, bu quruq safsatabozlikdan shu narsaga to‘la qanoat hosil qildimki, mubhamlik va kaltafahmlik dunyoga makr va adovatdan ko‘ra ko‘proq nizo urug‘ini sochadi, har holda keyingilari kamroq uchraydi.

Umuman, bu yerda kayfiyatim ko‘ngildagidek. Tanholik – bu jannatmisol o‘lkada yuragimga beba ho darmon, ko‘pincha ma‘yuslik chulg‘agan qalbimni fasllar kelin-chagi bo‘lgan bahor saxiylik bilan ilitadi. Har bir daraxt,

har bir butoq bamisoli guldastadek tuyuladi va xushbo‘y hidlar dengizida suzish hamda ulardan lazzatlanish uchun kapalak bo‘lib qolging keladi.

Shaharning o‘zi unchalik diqqatni tortmaydi, biroq uning go‘zal tabiatini tasvirlashga so‘z topilmaydi. Mana shu go‘zallik marhum graf M.ni bir-biriga g‘aroyib tarzda tutashib ketgan hamda xushmanzara vodiy kasb etgan tepaliklardan biri ustida bog‘ barpo etishga undagan. Bog‘ juda oddiy ko‘rinsa-da, unga kirishing hamono bu sohibkor mehnatining mahsuli emas, balki tuyg‘ularga boy, o‘ziga orom istagan bir inson orzusining ro‘yobi ekanligiga ishonch hosil qilasan. Uning men uchun qadrli bo‘lib qolgan ko‘hnagina shiyponchasida o‘tirib, marhum xotirasi uchun bir necha tomchi ko‘z yoshi to‘kib oldim. Bu ayvoncha uning ham sevimli joyi edi. Yaqinda men shu bog‘ning xo‘jayini bo‘laman. Bir necha kun ichidayoq bog‘bon menga iltifot bilan qaray boshladi va o‘ylaymanki, uning bu iltifoti javobsiz qolmaydi.

10-may

Dilni yayratuvchi mo‘jizakor bahor subhidami singari samoviy tetiklik butun borlig‘imni rom etgan. Men tamoman yolg‘izman va o‘zimga o‘xhash kishilar uchun bunyod etilgan bu o‘lkada kayf-safo qilyapman. Shunday baxtlimanki, do‘stim, orom og‘ushiga shu qadar singib ketganmanki, bundan san’atim zarar ko‘rmoqda. Biron chiziq ham chizolmayapman, biroq men san’atni hech qachon shu iahzalardagidek chuqur his etolmagan edim.

Ko‘rkam vodiyyidan hovur ko‘tarilib, tushki quyosh nimqorong‘i qalin o‘rmon ustida turgan va yakka-yarim

nurlari uning qadarn yetmas oralig‘iga yorib kirgan chog`-da, men jo‘shqin anhor bo‘yida, o‘sinq o‘tlar ustida yotgan nimcha yerdagi minglab ajoyibotlarga hayrat bilan boqaman; o‘t-o‘lanlar orasida g‘imirlashgan mitti mavjudotlarning, son-sanoqsiz qurt-qumursqalarning yuragimga yaqinligini his etaman; bizni shu yo‘sinda yaratganning qudratini, mutlaq huzur-halovat og‘ushiga yetaklovchi Tangri taolonning hozirligini sezaman. Ko‘z oldim qorong‘ulashib, tevarak-atrof va samo o‘z tasvirini sevgilim qiyofasi singari qalbimga jo etganida – o‘shanda, azizim, meni bir tuyg‘u qamrab oladi-da: «Eh, buni ifodalay olsam edim, yuragimda tug‘yon urgan narsani to‘laligicha qog‘ozga tushira olsam edim, qalbim mutlaq Tangri ning aksi bo‘lganidek, bu ham mening qalbimning aksi bo‘lardi!...» – degim keladi. Yo‘q, yo‘q, do‘stim... Bunda ojizman, bu voqealarning sehrli ulug‘vorligi meni mag‘lub qiladi.

12-may

Bu o‘lkada aldamchi ruhlar hukmronmi yoki butun borliqni ko‘zimga bamisoli Jannat qilib ko‘rsatayotgan havoyi hissiyotlar qalbimni egallab olganmi, bilmayman. Shundoqqina shahar chetida bir buloq bor, bu buloqqa men xuddi Meluzina va uning singillari singari bog‘lanib qolganman. Kichik tepalikdan quyiroqqa tushsang, yigirmatacha zinapoya seni chuqur g‘orga boshlab keladi, u yerdagi marmar qoyada zilol chashma qaynaydi. Bu joyni yuqorida o‘rab turgan pastakkina devor, кўкка bo‘y cho‘zgan ulkan daraxtlar, salqin havo – bularning barchasida allaqanday jozibador va sirli kuch bor! Har kuni

soatlab shu yerda o‘tiraman. Shahar qizlari bu yerga kelib, suv olib ketishadi, bunday oddiy va zaruriy yumushdan o‘tmishda hatto shoh qizlari ham tortinishmagan. U yerdan o‘tirganimda, patriarxal hayotga xos tasavvurlar: otabobolarimizning qayliqlari bilan qanday uchrashganlari va quduq yonida nikoh o‘qitganlari hamda quduqlar va buloqlar atrofida aylanishgan rahmdil ruhlar xuddi hozir sodir bo‘layotgandek ko‘z oldimda gavdalanadi. O, jazirama yoz kunitagi uzoq sayrdan so‘ng salqin buloq bo‘yida rohatlanish nimaligini o‘z boshidan kechirmagan kishi buni qayoqdan ham bilsin?

Mendan, kitoblarining yuboraymi, deb so‘rabsan. Azizim, xudo haqqi, sendan o‘tinaman, ulardan meni xalos et! Meni ruhlantirishlarini, dalda berishlarini istamayman; shusiz ham yuragim hayajondan xoli emas. Menga hazin qo‘sish kerak, bu jihatdan Homerimga qiyos topish mushkul. Ko‘pincha o‘zimdagи behad jo‘shqinlikni bosishga urinaman: mening qalbimdek har maqomga tushib turadigan qalbni ko‘rmagan bo‘lsang kerak. Aziz do‘stim! Senga buni aytib o‘tirishning hojati bormi, axir, kayfiyatimning ma'yuslikdan qiziqqonlikka, huzurbaxsh xayol-parastlikdan halokatli ehtirosga o‘tib turishiga ozmuncha toqat qilganmisan? Men o‘z qalbimni shuning uchun ham bemor boladek ardoqlayman; uning ra'yini so‘zsiz bajo keltiraman. Bu haqda gapirib yurma! Shu vajdan meni gap-so‘z qiladigan ham topiladi.

15-may

Bu yerlik oddiy kishilar, ayniqsa bolalar, meni alla-qachon tanib, sevib qolishgan. Oldiniga ular bilan yaqin-

lashishga urinib, do'stona so'z qotganimda, ko'plar bu bizni mazax qilyapti, degan fikrda mendan yuz o'girib ketishardi. Lekin bundan umidsizlanmadim, balki bir narsani yanada aniqroq his etdim, buni o'zim ko'p vaqtidan beri sezib yurgandim: jamiyatda ko'zga ko'ringan mavqeni egallagan kishilar go'yo obro'dan ayrilib qolishdan cho'-chigandek, oddiy fuqarodan o'zlarini chetga tortadilar; yana shunday beqarorlar va ichiqora nusxalar ham topiladi, ular o'zlarini go'yo oddiy xalqqa iltifot ko'rsatgandek tutadilar-u, bu bilan o'z kalondimog'liklarini yanada ko'proq namoyish qiladilar.

Bizlar o'zaro teng emasligimiz va teng bo'lolmasligimiz men uchun ravshan bo'lishiga qaramay, ta'kidlab aytamanki, fuqaro oldida obro'sizlanishdan qo'rqb, o'zini chetga tortishni ma'qul ko'rganlar raqibidan mag'lubiyatga uchrashdan xavfsirab, pusib yotgan qo'rkoqdan afzal emaslar.

Yaqinda buloq boshiga borganimda, suv to'la ko'zasini pastki zinaga qo'yib, chor atrofga qarayotgan yosh xizmatkor qizni ko'rib qoldim. Uning nigohi, birorta dugonam ko'rinib qolmasmikin, suvni boshimga olishimga ko'maklashib yuborardi, degan ma'noni anglatardi.

– Yordamlashib yuboraymi, yaxshi qiz? – so'radim yoniga tushib, u bo'lsa xijolatdan qip-qizarib:

– Yo'g'-e, janob, – deya rad etdi.

– Iymanmang!

U boshidagi chambarini to'g'riladi va men unga ko'maklashib yubordim. Qiz tashakkur bildirdi-da, zinapoyadan yuqoriga chiqib ketdi.

17-may

Har xil tanishlar orttirdim, ammo hali haqiqiy do'stlarimni topganimcha yo'q. Odamlar nega meni yaxshi ko'rishadi, hayronman. Ko'plariga ma'qul bo'laman, ko'plari menga mehr qo'yib qolishadi, biroq yo'limiz tezda boshqa-boshqa tomonga burilib ketishiga afsuslanaman. Mabodo «u yerning odamlari qanday?» deb so'ragudek bo'lsang, «hamma yerdagidek», deb javob qaytargan bo'lardim.

Odamzodning qismati hamma joyda bir xil: tirikchilik g'amida charchash nimaligini bilmay ishlagani ishlagan. Bordi-yu birozgina bo'sh vaqt topilib qolsa bormi, bekorchilikdan qutulish uchun o'zini qayerga qo'yishni bilmaydi. O, insonlik burchi!

Lekin bu yerning odamlari g'oyat dilkash. Ba'zan g'amlarimni unutib, mana shu odamlar bilan barcha shodliklardan bahramand bo'lsak, to'kin yasatilgan stol atrofida xushchaqchaq suhbat qursak, sayr yoki raqlar uyushtirib, ko'ngilxushlik qilsak, nihoyatda yengil tortib ketaman. Biroq bunday paytlarda behuda yo'q bo'lib ketayotgan boshqa juda ko'p kuchlar hali qalbimda mavjudligini, ularni avaylab saqlashim zarurligini eslamaslik lozim. Oh, bunga ko'nikish mushkul!.. Biroq iloj qancha! Til uchida turgan gaplarimizni o'zaro anglatolmaslik – bu bizning qismatimiz.

Afsus, yoshlikdagi do'stim o'lib ketdi! Nega endi o'sha qiz bilan tanishdim ekan-a! «Tentak! Sen aslida yer yuzidan topib bo'lmaydigan narsani qidiryapsan!» – degim keladi o'z-o'zimga. Ammo u bor edi-ku, men uning ulkan qalb egasi ekanligini sezgan edim-ku, u yonimda

bo‘lsa, o‘zimni yanada yetukroq his etardim, chunki nimaga qodir bo‘lsam, hammasini qilolardim. Marhamatli tangrim! Axir yuragimdagи bor hislar jo‘sh urmay qolmasdi-ku! Tabiat bilan hamohang bo‘lib ketadigan va qalbimdagi yoqimli tuyg‘ularning ilhomchisi o‘sha qiz emasmidi? Munosabatlarimizda eng nozik his-tuyg‘ular, o‘tkir fikrlar mushtarak bo‘lib, ularning hamma ko‘rinishlariga, hatto yengiltakliklarigacha aql-zakovat tamg‘asi bosilgan emasmidi? Endi-chi! Afsuski, u mendan bir necha yosh katta edi va ancha erta olamdan o‘tdi. Uning zukkoligini hamda farishtadek muloyimligini zinhor unutolmayman.

Yaqinda F... ismli istarasi issiqqina, ochiq ko‘ngil yigit bilan tanishdim. U endigina dorilfununni tamomlagan, o‘zini dono hisoblamasa-da, har holda boshqalaridan ko‘ra ko‘proq bilaman, deb o‘ylaydi. Aftidan, u xiyla tirishib o‘qigan, xullas, uning bilimdonligi shundoqqina sezilib turibdi. U mening rasm chiza olishimni va yunon tilini bilishimni (bu yerda odatdan tashqari bo‘lgan ikki hol) eshitgach, menga o‘zini tanitdi va Battedan tortib Vudgacha, Pilesdan tortib Vinkelmanngacha bilishi haqidada rosa maqtandi. Zulser «Nazariya»sining birinchi qismini o‘qib chiqqanini va o‘zida antik dunyoni o‘rganish bo‘yicha Haynening qo‘lyozmasi borligini aytib, meni ishontirdi. Bu gaplarni ma’qullab qo‘yaqoldim.

Bundan tashqari, g‘oyatda olijanob, oddiy va sofdil kishi bilan – knyazlikning amtmani bilan ham tanishdim. Aytishlaricha, uni to‘qqizta farzandi orasida ko‘rgan kishi dil-dildan yayrab ketarmish, ayniqsa, uning katta qizini juda maqtashadi. U meni uyiga taklif etdi, yaqin kunlarda o‘sha yoqqa boraman. U bizdan bir yarim soatlik masofa

narida knyazlikka qarashli ovchilar saroyida turadi. Xotinining vafotidan keyin o'sha joyga ko'chib borishga ijozat olgan, chunki, shaharda, davlatga qarashli uylarda qolish uning uchun og'ir bo'lgan.

Bundan tashqari, yana bir qancha uchiga chiqqan be-farosatlarga ham duch keldimki, soxta qiliqlarini, ayniqsa, o'zlarini do'stlarcha tutishlarini aslo hazm qilolmaysan, kishi.

Xayr! Xat muhimligi bilan senga yoqar deb o'layman.

22-may

Ba'zilar inson hayotini tushga qiyoslaydi, menda ham shu tuyg'u hukmron. Insondagи barcha qobiliyatlarining har tomondan cheklab qo'yilganini kuzatganimda, uning barcha intilishlari turmush ehtiyojlarini qondirishga qaratilganini, bu esa ayanchli hayotimizni tag'in ham uzaytirishdan o'zga narsa emasligini ko'rganimda va nihoyat, boshqa ilmiy masalalardagi xotirjamlik, o'zlar qamalib olgan uylarning devorlarini turli-tuman rasmlar hamda rang-barang shakllar bilan bezagan xayolparastlarning g'arib itoatgo'yligidan o'zga narsa emasligini sezganimda... bilasanmi, Vilhelm, bular meni tilsiz qilib qo'yayozadi. Shunda o'z xayollarimga g'arq bo'lib, o'zga bir dunyo kashf qilaman! Lekin baribir, bular ham hayotiy, to'laqonli tasavvurdan ko'ra ko'proq noaniq istaklar va mavhum xayollardir. Shunda hamma narsa ko'z oldimda jimirlab aylanishadi-da, hayotni go'yo tushdagidek jilmayib kuzataman.

Bolalarining hamisha nimanidir xohlab turishlari sababini ularning o'zlar ham bilmasliklari haqida barcha

bilimdon shaxsiy va maktab muallimlari bir xil fikrda, ammo kattalarning ham xuddi bolalardek yer yuzida sudralib yurishlariga, ular ham qayoqdan kelib, qayoqqa ketayotganlarini bilmasliklariga, aniq bir maqsadni ko‘zlamay harakat qilishlariga hamda ularni shirin kulchalar, piroqlar va xipchinlar bilan yo‘lga solish mumkinligiga hech kim ishonishni istamaydi, biroq mening nazarimda bu shubhasizdir.

Bu xususda sening fikringni bilaman va men ham shunga qo‘shilaman: bolalarga o‘xshab betashvish kun kechiradigan, qo‘g‘irchoqlarini kiyintirib-yechintirib, ularga g‘amxo‘rlik qiladigan, onasi shirinlik yashirib qo‘yan javon atrofida xushomadgo‘ylarcha aylanib yurib, kerakli narsani qo‘lga kiritgach, uni shosha-pisha yeb: «Yana!» deb talab qiladiganlar eng baxtli kishilardir. Mana shular baxtli mavjudotlardir. Yana o‘zlarining arzimas ishlariga va hatto intilishlariga dabdabali nom berib, buni inson zotining farovonligi va salomatligi yo‘lidagi ulkan ishlar, deb hisoblovchilarga ham yashash juda oson... Shunday bo‘la olishni bilganlarga tasanno. Ammo itoatgo‘yligi nimaga eltishini tushungan, har qanday badavlat meshchaning o‘z bog‘chasini chamanzorga aylantirishdan zavq olishini ko‘rgan va nihoyat, baxtsiz kishining turmush mashaqqatlaridan ezilib, chidam bilan yo‘lda davom etishini hamda quyosh nurini hech bo‘lmasa bir daqiqagini ko‘proq ko‘rishga hammaning birdek tashna ekanliklari ni anglab yetgan kishigina zorlanmaydi, o‘z hayatini o‘zi yaratadi va inson bo‘lganligidan o‘zini baxtiyor deb bili di. Hamda u qanchalik noiloj bo‘lmasin, ozodlik haqidagi

shirin tuyg‘ularini, istagan paytida bu zulmatdan qutulib ketish orzusini qalbida mudom ardoqlaydi.

26-may

Mening biror jimjitgina xilvat joyga o‘rnashib olib, o‘sha yerda ozgina narsaga ham qanoat qilib yashayverish odatim senga ilgaridan ma’lum. Bu yerda ham shunaqa didimga mos go‘shani topib oldim. Shahardan taxminan bir soatlik masofa narida Valhaym degan manzil bor. Bu ko‘rkam manzil tepalik yon bag‘rida yastangan, agar yolg‘izoyoq yo‘ldan qishloq tomonga yuqorilab borilsa, bundan vodiy kaftdagidek ko‘zga tashlanadi. Keksaligiga qaramay xiyla chaqqon, iltifotli oshxona bekasi vino, pivo, qahva quyib beradi. Eng yoqimlisi shuki, ikkita g‘oyat sershox arg‘uvon daraxti chor atrofini dehqon kulbalari, hovlilari va omborlari o‘rab turgan cherkov maydonchasiga soya solib turadi. Bunday ovloq joy kamdan-kam topiladi. Men o‘z stol-stulimni o‘sha daraxt ostiga chiqartiraman-da, shu yerda o‘tirib qahva ichaman hamda Homerni mutolaa qilaman. Bir kuni qoq tush paytida arg‘uvon daraxtlari ostiga kelganimda maydon ilk marta bo‘m-bo‘sh edi. Hamma dalaga ishga ketgan, fagatgina to‘rt yoshlar chamasidagi bolakay taxminan olti oylik go‘dakni tizzasiga olgancha ikki qo‘llab shunday bag‘riga bosib o‘tirardiki, go‘yo u go‘dak uchun o‘rindiq vazifasini o‘tardi. Go‘dakning qop-qora ko‘zlaridan tiyarakligi shundoqqina sezilib turar, biroq u qimir etmasdi. Bu ko‘rinish meni to‘lqinlantirib yubordi: ularning ro‘parasidagi omochga o‘tirib olib, jozibali manzarani berilib qog‘ozga ko‘chirdim. Bunga qo‘shilib yana yo-

nimizdag'i chetan devor, saroy darvozasi, bir necha siniq g'ildiraklar – hamma narsani aslida qanday bo'lsa, huddi o'shanday qilib chizdim, yana bir oz qayta ishlagach, qarasam, ancha kelishtirib, o'zimdan deyarli hech narsa qo'shmasdan alomat bir narsa chizibman. Bu kelgusida ham faqat tabiatdan ilhom olib ishlash niyatimni mustahkamladi. Faqat tabiatgina benihoya boy va faqat ugina buyuk san'atkor yarata oladi. Ijtimoiy tuzumni qancha maqtab gapirsalar, undagi qonun qoidalar borasida ham shu narsani aytish mumkin: jamiyat qonunlari asosida shakllangan odam qandaydir bema'nilik va buzuqlikka yo'l qo'ymaydi, huddi shuningdek, ma'lum qoidalar asosida to'qchilikda tarbiya topgan kishidan ham yaramas qo'shni yoki ashaddiy jinoyatchi chiqmaydi. Menga istagancha uqtiraversinlar-u, biroq qat'iy qonun-qoidalar tabiatni his etib, uni haqqoniy tasvirlash qobiliyatini so'ndiradi! «Yo'q, bunday emas! Qat'iy qonunlar faqat itoat ettiradi, haddidan oshganlarni yo'lga soldiradi va hokazo», – deb uqtirsang-uqtiraver. Aziz do'stim, mendan isbot talab qilasanmi? Bunda ham gap xuddi sevgi masalasidagidek. Tasavvur qil, yoshgina yigit bir qizga shunchalik bog'lanib qolganki, u uzzukun vaqtini shu yerdagi o'tkazadi va cheksiz sadoqatini har lahzada isbotlash uchun unga o'zining bor kuchini, qo'lidan kelgan barcha imkoniyatini ishga soladi.

Shunda allaqaysi yuqori lavozimdag'i bir korchalon kelib, oshiqqa deydi: «Yaxshi yigit! Sevish insonga xos xususiyat, insondek seva bilish kerak! Vaqtini shunday sarflangki, uning bir qismini ishga ajrating, bo'sh vaqtin-gizni sevgilingiz yonida o'tkazing. Agar o'z zarur ehti-

yojlariningizdan ortsa, baholi qudrat unga biror narsa tortiq qilishingiz ham mumkin. Hamisha emas, faqat uning tug‘ilgan kuni yoki boshqa ulug‘ ayyom kunlaridagina sovg‘a qiling». Agar yigit bunga amal qilsa, undan ancha bama’ni odam chiqadi va o‘zim birinchi bo‘lib har qanday boshliqqa o‘sha yigitni biror mahkamaga ishga joylab qo‘yishni maslahat beraman, unda uning sevgisi ham, agar rassom bo‘lsa, san’ati ham yelga uchadi. O, do‘stilarim! Buyuk zakovat chashmasi nega bunchalik kam toshadi, nega tortinchoq qalblaringiz o‘z to‘lqinlari bilan sizni larzaga soladi? Qimmatli do‘stilarim! Negaki, daryoning har ikki qirg‘og‘ida, xavfning oldini olib, shiyponlari, gulpushtalari, ekinzorlarini suv yuvib ketmasligi uchun avvaldan toshqinni qaytaruvchi kanal va to‘g‘onlar qurib qo‘yan mulohazali janoblar yashaydi.

27-may

Bunday qarasam, kishilarni taqqoslashga, jo‘shqin va’zxonlikka berilib ketib, keyin bolalarga nima bo‘lganini senga aytib berishni unutibman. Ijodiy kechinmalar girdobiga g‘arq bo‘lib, ikki soatlar chamasi omoch ustida o‘tirdim, kechagi xatimda bular palapartish bayon qilingga. Kechga yaqin qo‘lida savat tutgan yoshgina bir ayol haliyam qimir etmay o‘tirgan bolalarga yaqinlasharkan: «Barakalla, Filips!» – deya xitob qildi. U men bilan salomlashdi, men alik oldim-da, ular tomon yaqinlashib, bu bolalar siznikimi? – deya so‘radim. Ayol tasdiq ishorasini qildi va bolalarning kattasiga bir bo‘lak yog‘li non berdi, kichigini bo‘lsa qo‘liga olib, butun onalik mehri bilan yuzidan o‘pdi.

— Filipsga kenjatoymizga qarab o‘tirishini tayinlab, o‘zim shovla suziladigan sopol kosacha, qand va oq non keltirgani katta o‘g‘lim bilan shaharga ketgandim. — Bularning hammasi ochiq savatda ko‘rinib turardi. — Men Hansga (kenjatoyning ismi shunday edi) kechqurunga bir qoshiq sho‘rva pishirishim kerak, — so‘zida davom etdi ayol, — to‘polonchi katta o‘g‘lim kecha Filips bilan shovla qirmochini talashib, kosachani sindirib qo‘ygan edi.

— Katta o‘g‘lingiz qayerda? — so‘radim men.

— O‘tloqda g‘ozlarni quvlab yuripti, — deb ayol javob berib ulgurmagan ham ediki, u chopib-sakrab yetib keldida, ukasiga yong‘oq xivichini tutqazdi. Ayol bilan qilgan suhbatimdan ayon bo‘lishicha, u o‘qituvchining qizi ekan, eri esa, marhum amakisidan qolgan merosni undirish uchun Shvetsariyaga ketibdi.

— Ular erimni aldamoqchi bo‘lishdi, — izohlay boshladи ayol, — hatto uning xatiga ham javob qaytarishmadi, so‘ng o‘zi borishga majbur bo‘ldi. Biror kori hol yuz bermagan bo‘lsin-da, negadir undan xat-xabar yo‘q.

Ayolning yonidan ketgim kelmasdi, nihoyat, bolarining har qaysisiga bir kreyserdan pul ulashdim va «sho‘rva bilan yejish uchun shahardan kichkintoyga bulka keltirarsiz», deb ayolga yana bir kreyser tutqazdim, shu bilan biz xayrlashdik.

Agar his-tuyg‘ularim jo‘sh urgan bo‘lsa, buni o‘z turmushining tor doirasiga itoatkorona ko‘nikkan, topganini u kundan bu kunga zo‘rg‘a yetkazadigan, xazonrezgilik boshlanganini ko‘rsa, endi qish kelayapti, degan fikrdan boshqasini xayoliga keltirmaydigan inson namunasigina meni ovuta olishiga ishon, azizim!

O'shandan buyon maydonchaga tez-tez borib turaman. Bolalar menga tamoman o'rganib qolishgan; agar qahva ichsam, qandni ularga qoldiraman; kechqurun buterbrot va qatiqning yarmisi ularning nasibasi bo'ladi. Yakshanba kunlari bolalarga bir kreyserdan pul ulashaman; mabodo ibodatdan keyin o'zim kelmasam, ularga bu pulni berishni oshxona bekasi Ordrega tayinlab qo'yganman.

Bolalar menga har narsalarni ishonib aytishaveradi, ayniqsa, ularning zavq-shavq bilan o'ynashlari va qishloq-dagi boshqa bolalar ham to'planishgandagi o'yinlarini ko'rib terimga sig'may ketaman. «Bolalar meni hecham qiyashmaydi», – deb onasini ishontirguncha xunob bo'ldim.

30-may

Yaqinda senga rassomlik haqida aytgan gaplarim, shubhasiz, she'riyatga ham tegishlidir. Bunda eng muhimmi, kerakli narsani anglay bilish va oz so'zda ko'p narsani ifodalashga erishishdir. Bugun shunday bir manzarani tomosha qildimki, agar uni asli holicha tasvirlasa, dunyodagi eng go'zal idilliya yuzaga keladi. Ammo bu yerda poeziya, idilliya, manzaraning nima keragi bor? Tabiatning biror ko'rinishini tasvirlamoqchi bo'lsak, albatta unga biror narsani tirkash shartmi?

Agar bunday muqaddimadan keyin qandaydir ko'tarinki ruhdagi biror narsa kutayotgan bo'lsang, yana qattiq aldanasan; bunday to'lqinlanishimning sababchisi bir dehqon yigitcha, xolos. Men odatimdek yomon hikoya qilaman, sen esa har galgidek, meni mubolag'a qilayapti,

deb o‘ylaysan. Bu ajoyibotlarning makoni – Valhaym va yana o‘sha Valhaymdir.

Arg‘uvon daraxtlari ostiga bir to‘da odamlar qahva ichgani to‘planishgan. Ular didimga unchalik mos kelma-ganliklaridan u-bu vaj-karson ko‘rsatib ulardan o‘zimni chekkaga tortdim.

Bir dehqon yigit qo‘shni uydan chiqdi-da, men yaqin-dagina suratini chizgan omochning qayerinidir tuzatishga kirishdi. Yigitcha ko‘rinishidan menga yoqib qoldi, uni gapga sola boshladim, hol-ahvolini so‘radim; biz u bilan tezda tanishib oldik, hatto sirdosh ham bo‘lib qoldik, ha-misha shu taxlit kishilar menga juda tez yoqib qolishadi. U bir beva ayolnikida xizmat qilishini va u ayol bilan mu-nosabatlari yaxshi ekanligini aytib berdi. O‘sha ayol haqida shunchalik ko‘p narsa gapirdiki, uni shu qadar ta’rifladiki, yigitchaning ayolga butun borlig‘i-la sodiqligini angla-dim. Gaplariga qaraganda, ayol aytarli yosh emas, birinchi eridan og‘zi kuygan, natijada u ortiq turmushga chiqishni istamaydi, yigitchaning hikoyasidan shu narsa yaqqol se-zildiki, uning uchun go‘zallikda, yoqimlilikda bu ayoldan o‘tadigani olamda yo‘q. Juvonning roziligi bo‘lsa bas, ko‘z ochib ko‘rgan erining qilg‘iliklarini ayol xotirasidan o‘chirishga bu yigit qodir va jon deb ayolning jufti halo-li bo‘lishni istaydi, lekin undagi his-tuyg‘ular, muhabbat va sadoqatining naqadar samimiyligini senga isbotlab be-rish uchun dil rozlarini so‘zma-so‘z takrorlashim lozim bo‘ladi. Ha, uning jozibador chehrasi, musiqiy ovozi va ko‘zlaridagi ajib yolqinni aynan ifodalay bilish uchun buyuk shoir iste’dodi ham ojizlik qiladi. Yo‘q, uning butun vujudida aks etgan poklikni hech qanday so‘z bilan

izhor etib bo‘lmaydi; mening yozganlarim esa bir-biriga qovushmaydi. Ayolga bo‘lgan munosabatini noto‘g‘ri tushunishim va ayolning xatti-harakatidagi soflikka shubha bilan qarashim mumkin, degan fikrdan yigitchaning xavotirlanishi menga behad ta’sir etdi. Ayolning qiyofasi va yoshlik latofatidan mahrum bo‘lsa-da, yigit uchun baribir jozibali tuyuluvchi ko‘rinishi haqida to‘lib-toshib gapirishini faqat mengina yurakdan his eta olishim mumkin. Bunchalar qaynoq mehr-muhabbat va ehtirosli intilishni mana shunday sof holda sira-sira ko‘rmagan, ha, rost aytyapman, hatto tasavvur ham qilmagan edim. Undagi boodoblik va samimiyatni eslaganda ich-ichimdan haya-jonga kelishimga, mana shunday billurdek sevgi ramzi hamma joyda ortimdan ergashib yurishi, o‘zim esa, uning alangasida kuyib, kul bo‘lishimga oldingda iqror bo‘lsam, meni koyima.

O‘sha ayolni tezroq ko‘rishga harakat qilaman, yo‘q, bundoq o‘ylab qarasam, yaxshisi ko‘rmaganim ma’qulroq. Uni oshig‘ining ko‘zi bilan kuzatganim afzal, balki u mening ko‘zlarimga hozir tasavvur qilayotganimdek bo‘lib ko‘rinmas; ajoyib tasavvurni buzib nima qilaman?

16-iyun

Senga nima sababdan yozmayotganimni so‘rabsan. Shuni ham bilmaysanmi? Yana olim emish! Sog‘-salomat ekanligimni o‘zing fahmlashing kerak edi, ya’ni... qisqasi, birov bilan tanishganligim qalbimda tug‘yon ko‘tarmoqda... Bilmadim... nima bo‘lyapti o‘zi.

Dunyodagi eng zebo qizlardan biri bilan qay taxlit tanishganimni senga bat afsil hikoya qilib berish qo‘limdan

kelmasa kerak. Shunday mammun va baxtlimanki, buni ifodalashga qalamim ojiz.

Farishta!... Ha!... Ha. Darvoqe, o‘z sevgilisini har kim ham shunday deb ataydi, to‘g‘rimi? Undagi bekamu ko‘stlikni va uning nega shundayligini senga aytib berishdan ojizman, xullas, u butun o‘y- xayolimni rom etgan.

Samimiyatu zukkolik, sofdillik va qat’iyatlik, ruhiy sokinlik va epchillik shu qadar ham uyg‘unlashib keta-dimi?

Yozayotganlarimning hammasi, unga xos bo‘lgan bি-
rorta fazilatni ifodalab berolmaydigan behuda va mavhum
safsatalardir. Boshqa payt... yo‘q, boshqa payt emas, ho-
zirning o‘zidayoq hammasini senga aytib bermoqchiman.
Agar hozir aytmamasam, boshqa vaqt buning uddasidan
mutlaqo chiqolmasam kerak. O‘zingdan qolar gap yo‘q,
yoza boshlaganimdan buyon menga uch bor qo‘limdag
ruchkani qo‘yib, otni egarlatsam-da, o‘sha yoqqa yo‘rtib
ketsam, degan fikr tug‘ildi. Lekin bormayman, deb erta-
labdanoq ahd qilganimga qaramay, baribir, har daqiqada
deraza oldiga borib, quyosh botishini sabrsizlik bilan ku-
zata boshlayman.

Ammo toqatim toq bo‘lib ketdi-da, uning huzuriga ot-
landim. Vilhelm, yana kulbamdaman, endi buterbrot bilan
kechlik qilib, senga maktub bityapman. Uni yoqimtoy va
tetik bolakaylor – sakkizta uka-singillari davrasida ko‘rish
meni behad to‘lqinlantirib yuboradi...

Agar shu taxlit davom etaversam, oxirigacha ham bi-
ror narsani ilg‘ab olishing amri mahol. Quloq sol, voqeani
ipidan-ignasigacha bayon qilib berishga harakat qilaman.

Yaqinda senga amtman S... bilan tanishganimni va u meni manzilgohiga yoki, to‘g‘rirog‘i, kichik hokimligiga tashrif buyurishga taklif etganini yozgan edim. Men bu tashrifni keyinga surgandim, agar bir tasodif sabab bo‘lib, bu kimsasiz joyda yashiringan ohanraboden xabar topmaganimda, balki u yerga sira bormagan bo‘lardim.

Yoshlarimiz shahar tashqarisida bazm tashkil qilishi, men ham unda bajon-u dil ishtirok etdim. Shu yerlik yaxshigina, istorasi issiq, umuman olganda, uncha ko‘zga tashlanmaydigan bir qizni balga borishga taklif qildim. Kelishuvga ko‘ra, men shu qiz va uning jiyanini faytunda bazm bo‘layotgan joyga eltishim, yo‘l-yo‘lakay Sharlotta S.ni ham olib o‘tishim lozim edi. Biz haydalgan keng dala bo‘ylab ovchilar saroyiga yaqinlasharkanmiz:

- Hozir go‘zal bir qiz bilan tanishasiz, – dedi hamrohim.
- Ehtiyyot bo‘ling, tag‘in sevib qolmang! – qo‘sib qo‘ydi jiyani.
- Nega endi? – so‘radim men.
- U olajanob bir kishiga unashtirib qo‘yilgan, – dedi u, – hozir u kishi bu yerda emas, otasi vafot etgach, ishlarini tartibga keltirish va tuzukroq mansabga o‘rnashish uchun ketgan.

Bu gaplarga deyarli ahamiyat bermadim.

Biz darvoza oldida to‘xtaganimizda quyosh hali tog‘ ortiga yashirinib ulgurmagan edi. Havo ancha dim, ufqda och qo‘ng‘ir tusdagi yirik bulutlar to‘planayotganidan, momaqaldiroq bo‘lmasa edi, deb xonimlar tashvishlani-shhardi. O‘zim ham bazm buzilishidan xavotirlanayotgan

bo‘lsam-da, yolg‘ondakam ilmiy dalillar bilan ularning qo‘rquvini bosishga urinardim.

Men faytundan tushdim, darvozani ochgan xizmatkor qiz, mademuazel Lotxen tayyor bo‘lgunicha bir pasgina kutib turishimizni iltimos qildi. Hovlidan o‘tib, shinamgina uyga yaqinlashdim va zinapoyalardan ko‘tarilib eshik ostonasiga qadam qo‘yganimda, ko‘z o‘ngimda avval ham ko‘rishga tuyassar bo‘lganim g‘oyatda jozibador bir manzara namoyon bo‘ldi.

Dahlizda ikki yoshdan o‘n bir yoshgacha bo‘lgan olti bola sarvqomat, o‘rta bo‘yli, yengi va ko‘kragiga pushti rang bant qadalgan, odmigina oq ko‘ylak kiygan qiz atrofida girdikapalak bo‘lishardi: u qo‘lidagi qora nondan ukalarining har biriga yoshi va ishtahalariga qarab shunday mehribonlik bilan bo‘lib berardiki, opasi nonni kesib bo‘lguncha bolalar jajji qo‘lchalarini yuqoriga cho‘zib, unga minnatdorchilik bildirishar, o‘z ulushini olganidan quvonib, sakrab-sakrab, ba’zi yuvoshroqlari esa astasekin yurib, notanish odamlarni va o‘zlarining Lottalari minib ketadigan faytunni tomosha qilish uchun darvoza tomon ketishardi.

– Uzr, Sizni ovora qilib, xonimlarni kuttirib qo‘ydim,
– dedi u, – o‘zim yo‘qligimda bajariladigan ayrim topshiriqlar berish, kiyinish bilan bo‘lib, bolalarni ovqatlantirishni unutibman, ular mendan boshqa kishi qo‘lidan non olishni istamaydilar.

Men unga bir nima deb mulozamat qildim, o‘zim esa uning qomati, tovushi, o‘zini tutishidan lol edim, u qo‘lqopi va yelpig‘ichini olib chiqqani qo‘shni xonaga yugurib kirib ketganida, nogahoniy hodisadan o‘zimga

kelishga arang ulgurdim. Bolalar bir chetda meni zimdan kuzatib turishardi, ularning eng kichigi – yoqimtoygina bolaga yaqinlashdim. U endi chetlanmoqchi bo‘lgan ham ediki, ichkaridan Lotta chiqib keldi va:

– Lui, amakingga qo‘lingni ber! – dedi.

Bola shu zahoti uning aytganini qildi, men o‘zimni tutolmadim va burni oqib turganiga qaramasdan uning yuzidan o‘pib oldim.

– «Amakingga» deysizmi? – so‘radim qizga qo‘limni uzatarkanman. – Meni o‘zingizga qarindosh bo‘lishga loyiq, deb hisoblaysizmi?

– Eh-he, bizning qarindoshlarimiz juda ko‘p, – dedi u sho‘x tabassum bilan. – Sizni ulardan kam deb o‘ylamayman.

U ketayotib o‘n bir yoshlardagi eng katta singlisi Sofiga bolalarga, albatta, ehtiyot bo‘lishni va sayrdan qaytganida, otasiga salom aytishni tayinladi. Kichkintoylarga esa, xuddi o‘zi bo‘lgan paytlardagidek, Sofining so‘zidan chiqmaslikni buyurdi, hammalari unga astoydil va’da berishdi. Faqatgina sarg‘ish sochli, olti yoshlardagi mahmadora qizcha e’tiroz bildirdi:

– Yo‘q, Lotxen, baribir emas, biz seni ko‘proq yaxshi ko‘ramiz.

Bolalarning ikkita kattarog‘i faytunning orqasiga chiqib olishdi va mening iltimosim bilan Lotta ularga, agar o‘zaro urushmaslikka hamda mahkam ushlab o‘tirishga so‘z berishsa, o‘rmongacha minib borishga ijozat berdi.

Biz hali joylashib, xonimlar salomlashib, bir-birlarining kiyimlarini, shlyapalarini, ayniqsa, bazmga keladiganlarni bat afsil muhokama qilib ham ulgurmagan edi-

larki, xiyla joyga borib qolibmiz, shunda Lotta kucherni to‘xtatib, ukalarini faytundan tushirdi, xayrlashish oldidan ikkalasi ham opasinipng qo‘lini o‘pishdi – kattasi o‘n besh yoshli bolalarga xos nazokat bilan, kichigi esa ancha shoshqaloqlik bilan o‘pdi. Lotta ukalariga yana bir marta salom aytib qo‘yishni tayinladi va biz jo‘nab ketdik.

Hamrohimning jiyani Lottadan yaqinda o‘zi yuborgan kitobni o‘qigan-o‘qimaganini so‘radi.

– Yo‘q, – javob berdi Lotta, – u menga yoqmadi, qaytib ola qoling. Avvalgisi ham shunaqa edi. Bularning qanaqa kitob ekanligini so‘rab, uning javobidan hayratda qoldim...

Uning mulohazalarida o‘ziga xos mustaqillik, har bir so‘zida joziba, latofatli chehrasida ruhiy ko‘tarinkilik ravshan sezilib turardi, chunki men uni tushunayotganligim unga ayon edi.

– Yoshligimda, ayniqsa, roman o‘qishni yaxshi ko‘rardim, – dedi u, – yakshanba kunlari bir burchakka o‘tirib olib, qandaydir miss Jenni quvonchi va iztirobleriga sherik bo‘lish menga nechog‘lik huzur baxsh etganligiga birgina xudoning o‘zi shohid. Ochig‘ini aystsam, shu odad meni hanuz tark etmagan. Biroq kamdan-kam hollarda, shunda ham didimga juda mos kelsagina biror kitobni qo‘lga olaman. Meni shunday yozuvchi maftun qiladiki, toki uning asarlarida o‘z dunyomni va atrofimda kechayotganga o‘xhash voqealarni ko‘ra olay, hikoyalari meni o‘z uyimdagи hayotimdek to‘lqinlantirsin va haya-jonga solsin, bu hayot jannatmisol bo‘lmasa-da, har qalay men uchun benihoya huzur-halovat manbaidir.

Bu so‘zlardan keyin o‘z qalb tug‘yonimni yashirishga intilardim. Bu hol u qadar uzoq cho‘zilmadi, chunki Lotta gap orasida «Vekfild ruhoniysi», ... haqida ochiqdan-ochiq gapirganida chidab turolmadim va ko‘nglimdan nima kechgan bo‘lsa, hammasini to‘kib soldim. Lotta boshqalarga so‘z qotgandan keyingina, ularning hammasi go‘yo bizning so‘zlarimizni eshitmagandek parvoysi falak o‘tirganlarini sezdim. Hamrohimning jiyani menga bir necha marta masxaraomuz burnini jiyirib qaradi, bu men uchun ahamiyatsiz edi.

Suhbatning davomi raqs tushishning gashti haqida bordi.

– Bunday ehtirosni qoralasalar ham mayli, – dedi Lotta,
 – lekin raqs tushishni hamma narsadan ustun qo‘yishimni yashirmayman. Agar biror narsadan kayfiyatim buzilsa, sozi buzuq royalimda kontrdansni dang‘illatsam bas, hammasi bir zumda o‘tadi-ketadi.

Suhbat davomida uning tim qora ko‘zlariga shu qadar havas bilan tikildimki! Uning rohatbaxsh lablari va tiniq, xushro‘y chehrasi butun borlig‘imni shu qadar o‘ziga rom etgan ediki! Gaplarining chuqur mazmuniga mahliyo bo‘lib, goho uning so‘zlarini aynan eshitmasdim!... Bu holatimni aniq tasavvur qila olarsan, negaki, sen meni yaxshi bilasan. Xullas, bazm bo‘ladigan uy oldida to‘xtaganimizda, faytundan xuddi tush ko‘rayotgan odamdek tushdim va kechki qorong‘ilik cho‘kayotgan dalalarga tikilgancha shu qadar xayol daryosiga botibmanki, hatto yop-yorug‘ zaldan eshitilayotgan kuy ham qulog‘imga kirmasdi.

Lottaning va hamrohim jiyanining raqsdagi juftlari Audran va qandaydir N.N. (ismlarning barchasi yodda qolarmidi!) ismli ikki janob bizni faytun yonida kutib olib, o‘z xonimlarini qo‘ltiqlab olishdi, men ham o‘zimnikini yuqoriga boshladim.

Biz minuetga tushib, chir aylanishardik, bir xonimni qo‘yib, ikkinchisini taklif qilardim, aksiga olgandek eng uquvsizlari o‘yinni bas qilishga va minnatdorchilik bildirishga shoshilishmasdi. Lotta o‘z hamrohi bilan inglizcha raqsga tusha boshladi. Uning biz bilan bir davrada aylanishi men uchun qanchalik gashtli bo‘lganini tasavvur qila olarsan! Uni raqs tushayotganda tomosha qilsang! Butun fikri-zikri bilan o‘yinga berilib ketadi, barcha harakatlari shu qadar erkin, bejirim, shu qadar tabiiyki, go‘yo raqs uchun u butun olamdan voz kechgan, shundan boshqa narsani his etmayotgandek tuyulardi.

Men uni ikkinchi kontrdansga taklif qildim; u uchinchisiga tushishga va’da berdi va nemischa valsni juda-juda yaxshi ko‘rishini nihoyatda ochiq ko‘ngillik bilan izhor qildi.

— Bizda shu narsa odat bo‘lganki, — davom etdi u, — har bir juft nemischa valsga birga tushishi kerak. Lekin mening hamrohim valsga juda yomon tushadi, agar men uni bu azobdan qutqazsam, u mendan minnatdor bo‘ladi. Sizning xonimingiz ham usta emas, buning ustiga valsga tushishni yoqtirmaydi. Siz valsga yaxshi tusharkansiz, men buni inglizcha raqs payti sezdim. Agar nemischa valsga men bilan tushishni istasangiz, mening hamrohim-dan borib ruxsat so‘rang, men esa, sizning xonimingizdan

ruxsat olay.

Men rozi bo'ldim, shu orada uning hamrohi mening hamrohimni zeriktirmay turadi, degan qarorga keldik.

O'yin boshlandi va biz bir zum turli xilda bir-biriga chirmashgan qo'llarga zavq bilan tikilib qoldik. U shu qadar jozibali, yengil aylanardiki! Hamma juftlar valsga aylana boshlaganda davra alg'ov-dalg'ov bo'lib ketdi, chunki hamma ham yaxshi aylana olmaydi-da. Boshqa larning rosa xumordan chiqishlarini sabr qilib kutdik, ni-hoyat, eng uquvsizlari davrani bo'shatgach, yana boshqa bir juft – Audran va uning hamrohi bilan birgalikda tushib ko'ngildagidek o'ynadik. Men hech qachon bunchalik yengil aylanmagan edim. O'zligimni his etmasdim. O'z qo'lingda eng dilbar vujudni tutib, borliqni unutgancha, u bilan parvonadek aylanish va ... iqror bo'layki, Vilhelm, men sevgan yoki menga unashtirilgan qizning birorta boshqa kishi bilan birga valsga tushishiga zinhor yo'l qo'ymayman, deya xayolan qasamyod qildim. Albatta, sen meni tushunasan!

Biroz nafasni rostlab olish uchun zal bo'ylab u yoq-bu yoqqa yurdik. Keyin u o'tirdi, men zo'r-bazo'r topib kelgan apelsinlarni yeb, ancha dadillashdik. Lottaning hurmat yuzasidan andishasiz qo'shniisiga apelsindan ketma-kech bo'lib berishidan yuragimga pichoq sanchilgandek bo'lardi.

Inglizcha raqsga uchinchi marta tushganimizda, biz qatorda ikkinchi o'rinda edik. Uning qo'llarini tasvirlab bo'lmas rohat bilan tutib, eng samimiyl va beg'ubor his-tuyg'ular yog'ilib turgan ko'zlariga tikilganim holda raqsda qator bo'ylab aylanarkanmiz, bundan oldinroq

ham chehrasidan keksalarga xos yoqimli bir ifoda bilan diqqatimni o‘ziga tortgan ayolga yondoshdik. U Lottaga kulimsirab qaradi-da, barmog‘i bilan po‘pisa qilgan bo‘ldi va yonimizdan o‘tayotib ikki marta ma’nodor qilib Albert ismini takrorladi.

– Agar malol kelmasa, Albertning kimligini aytolmay-sizmi? – so‘radim men Lottadan.

U endi javob berishga shaylangan ham edi, sakkiz kishilik qator yasash uchun ajralishimizga to‘g‘ri kelib qoldi, biz o‘yinda qayta duch kelganimizda uning chehrasi o‘ychan tus olganini sezdim.

– Sizdan yashirib ham nima qildim? – dedi u promenada uchun menga qo‘lini uzatarkan, – Albert olijanob bir odam, men unga unashtirib qo‘yilganman.

Bu yangilik emasdi (xonimlar yo‘lda bu haqda menga gapirishgan edi), biroq hozir yangilikdek tuyuldi, chun-ki bu gap menga birpasda yaqin bo‘lib qolgan Lottaga tegishli, degan fikrga ko‘nikolmasdim. Xullas, o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim, juftlarni aralashtirib yubordim, natijada o‘yindagi tartib mutlaqo buzilib ketdi. Lottaning hushyorligi va chaqqonligi tufayligina o‘yinda qaytadan tartib o‘rnatildi.

Anchadan buyon ufqda yaraqlayotgan chaqmoq o‘yin tamom bo‘lmasdanoq, yanada kuchaya boshladi, men uni shu’la deb boshqalarni ishontirmoqchi bo‘lardim. Momaqaldiroq musiqa ovozini bosib ketdi. Uchta xonim qatordan chiqib ketdi, hamrohlari ularga ergashishdi; hamma aralash-quralash bo‘lib ketdi, musiqa ham tindi. Agar baxtsizlik yoki biror ko‘ngilsiz voqeа xursandchilik paytida yuz bersa, u yanada kuchliroq ta’sir etishi tabi-

iy, chunki birinchidan, bunday paytlarda qarama-qarshilikni ayniqsa ko‘proq his etamiz, ikkinchidan, hislarimiz yanada o‘tkirlashgan bo‘ladi va darhol tuyg‘ularga berilib ketamiz. Ba’zi ayollarning bema’ni qiliqlariga sabab qilib shularni ko‘rsatishimiz mumkin. Eng aqllisi deraza-ga orqasini o‘girgan holda burchakka o‘tirib, qulqlarini mahkam berkitib oldi. Boshqasi uning oldida cho‘kka tushib, boshini birinchisining ko‘ylagiga yashirdi. Uchin-chisi orqasiga suqilib, singlisini bag‘riga bosganicha, ko‘z yoshi to‘kardi. Bir nechasi uyga jo‘nab qoldi; boshqalari o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishgandi, xudo sha’niga ma’sum alamdiydalarning lablaridan otilib chiqayotgan ayanchli yolborishlarni go‘yoki tutib qolishga uringan yosh, sho‘x yigitlarimizning qo‘polliklarini tiyib qo‘yishga ularda da-dillik yetishmasdi.

Erkaklarning ba’zilari tinchgina chekib olish uchun pastga tushib ketishdi; boshqa mehmonlar esa, darchali derazasiga parda tutilgan xonaga o‘tishga undagan hovli bekasining iltifotini jon deb qabul qilishdi. U yerga to‘planib ulgurmasimizdanoq, Lotta stullarni doira shakkida terib chiqa boshladi va hamma o‘tirgach, biror o‘yin boshlashni taklif qildi.

Ba’zilarning yaxshiroq fant umidida tamshanib bo‘yinlarini cho‘zishayotganini ko‘rdim.

– Sanash o‘ynaymiz, – dedi u, – diqqat! Men davra bo‘ylab o‘ngdan chapga qarab aylanaman, sizlar esa, nav-

batil bilan ketma-ket sanaysizlar; juda tez sanash kerak, bordi-yu biror kishi tutilib qolsa yoki adashsa, bir shapaloq yeysi, shu tarzda minggacha sanaymiz.

O‘yin ancha qiziq ko‘rinardi. U qo‘lini yuqori ko‘tarib

davra bo‘ylab aylana boshladi. Birinchi kishi «bir» dedi, uning qo‘shnisi «ikki», uchinchisi «uch» dedi va hokazo. U borgan sari jadalroq yura boshladi; bittasi adashib qoldi – shap! – bir shapaloq! – kulgidan ikkinchisi adashdi – shap! – ikkinchi shapaloq. Lotta bo‘lsa, yana ham tez aylanardi. Men ikki shapaloq yedim va u meni boshqalarga nisbatan qattiqroq urganini ichki bir quvonch bilan his qildim. Sanash minggacha yetmasdan o‘yin umumiy kulgi va qiy-chuv bilan tugadi. Har kim o‘z tanishi bilan to‘da-to‘da bo‘lib ajralib ketdi, momaqaldiroq bosildi. Lotta ortidan zalga kirdim.

– Shapaloq yeish bilan ovora bo‘lib dunyodagi hamma narsani, yomg‘irni ham unutishdi, – dedi u yo‘lyo‘lakay.

Bunga javoban hech narsa deyolmadim.

– Hammadan ko‘proq o‘zim qo‘rquvdim, – davom etdi u, – boshqalarni ruhlantirish uchun o‘zimni dadil tutdim, qarasam, o‘zim ham ruhlanib ketibman.

Deraza oldiga bordik. Qayerdadir momaqaldiroq guldiradi, huzurbaxsh yomg‘ir tomchilar, ruhni jonlantiruvchi bo‘yga to‘la iliq havo ufurardi. Lotta deraza tokchasinga tirsagi bilan suyangancha atrofni kuzatardi, u avval osmonga, so‘ngra menga qaradi, ko‘zlarji qipqa yosh edi; qo‘lini mening qo‘lim ustiga qo‘ydi-da: «Klopshtok!» – dedi. Shu zahoti Lottaning xayoliga kelgan mashhur qasidani esladim va shu so‘z bilan uyg‘otgan histuyg‘ular dengiziga g‘arq bo‘ldim. O‘zimni tutolmadim, ko‘zlarimda quvonch yoshlari bilan engashdim-da, qo‘lini o‘pdim. Yana ko‘zlariga tikildim... Olijanob inson! Senga

bu ko'zlardagi ilohiy yolqinni ko'rishni, menga esa kishini tahqirlovchi og'izlardan umrbod sening nomingni eshitmaslikni nasib etsin.

19-iyun

O'tgan daf'a hikoyamning qayerida to'xtab qolganimni eslayolmayman; Uyquga cho'zilganimda tun soat ikki edi. Faqat shu narsa yodimda, xolos. Agar o'shanda yozish o'rniga gap sotganimda edi, balki seni tong otguncha ushlab o'tirgan bo'larmidim.

Baldan qaytishda nimalar bo'lganini hali senga aytib bergenim yo'q, mana bugun ham bunga qo'l tegmaydi.

Quyosh ufqdan bosh ko'tarayotgan payt edi. Yomg'irda cho'milgan o'rmon va yashnagan dala atrofimizni qurshagan. Hamrohlarimiz mudrashardi.

– Siz ham shulardan o'rnak olmaysizmi? – so'radi umandan, – tortinmang, – qo'shib qo'ydi yana.

– Bu ko'zlar charaqlab turar ekan, meni uyqu elitolmaydi, – dedim ko'zlariga qattiq tikilarkanman.

Biz ularning darvozalariga yetguncha sergak keldik, xizmatkor qiz darvozani sekin ochdi va Lottaning savollariga javoban otasi hamda ukalarining salomatliklari ni, hozir hammalarining uyquda ekanliklarini ma'lum qildi. Xayrlasharkanmiz, undan o'sha kuniyoq tag'in ko'rishishga ijozat so'radim, u rozilik bildirdi va men ketdim. Quyosh, oy va yulduzlar avvalgidek o'z yo'llarida aylanayotgan bo'lishlari mumkin, biroq men, shundan buyon qachon tun, qachon kunduz ekanligini – umuman atrofimdag'i hech narsani payqamayman...

21- iyun

Men, xudo sevgan bandalarigagina ravo ko‘radigan baxtli kunlarni kechirayapman; nima bo‘lganda ham dunyo quvonchlarini, shunda ham asl ma’nodagi quvonchlarni totmadim, deb aytishga haqqim yo‘q... Sen Valhaymni ko‘z oldingga keltirarsan; deyarli butun kunim shu yerda o‘tadi, bu yerdan Lotta yonigacha yarim soatlik yo‘l. Uning huzurida men o‘zligimni va inson uchun ato etilgan butun baxtni his etaman.

Men Valhaymni saylgohlikka tanlaganimda, uni samo bag‘riga shunchalik yaqin deb o‘ylamagandim! Uzoq sayr qilgan paytlarimda, hamma orzularim makoni bo‘lgan ovchilar saroyini goh cho‘qqidan, goh daryo bo‘yidagi tekislikdan turib yuz martalab kuzatgandirman!

Qimmatli Vilhelm! Insonda dunyoni kezish, yangi kashfiyotlar qilish va keng bo‘shliqlar og‘ushiga intilish istagi naqadar kuchli-ya! Shu haqda ko‘p o‘yga tolaman. Ammo shu bilan birga, bizda o‘zimizni ixtiyoriy chegaralashga tomon ichki bir intilish hissi yashaydiki, atrofimizdagи narsalarning hech biriga parvo qilmay bir maramda kun kechiraverishni afzal ko‘ramiz.

Naqadar ajoyib: bu yerga kelib tepalikdan ko‘rkam vodiyni kuzata boshlaganim hamono, butun borliq meni o‘ziga tortadi... Huv ana kichkina o‘rmon!... Qani endi uning orasiga sho‘ng‘ib ketsang!... Ana u yerda esa tog‘ cho‘qqisi! Qani o‘sha cho‘qqidan turib poyonsiz o‘lkani tomosha qilsang!... Bir-biriga ularning ichida yo‘qolib ket-sang!... Men o‘sha yoqqa qarab shoshilaman va izlaganimni topolmay ortga qaytaman. O, bu cheksizliklar ham

xuddi kelajakdek yiroqdir!... Ko‘z oldimizni intihosiz tumanli bo‘shliqlar qoplagan, bizning tuyg‘ularimiz ham shu bo‘shliqda xuddi nazarimizdek yo‘qolib ketadi. Biz unga tomon intilamiz. Oh! Yuragimizni eng buyuk, eng totli hislar lazzatiga qondirishga qanchalik tashnamiz-a! Istiqbolga intilib, ko‘zlangan maqsadga yetganimizda-chi, hayhot! Hammasi tag‘in o‘sha eski holiga qaytaveradi, biz bo‘lsak, yana o‘sha ojizligimiz, chegaralanganligimizcha qolaveramiz, qalblarimiz esa, ko‘z ilg‘amas bir rohatni qo‘msaydi.

Shunga o‘xhash, tolmas darbadar ham oxir-oqibat o‘z vatanini qo‘msaydi va o‘z kulbasida, umr yo‘ldoshi ko‘ksiga bosh qo‘yib, farzandlari davrasida, ularni boqish tashvishida, butun yer yuzidan izlab topolmagan rohat-farog‘atni topadi.

Erta tongdan quyosh bilan birga turib Valhaymaga jo‘nayman. Oshxona bog‘idan o‘zim uchun shakarli no‘xatlar teraman-da, o‘tirib olib ularni tozalayman va shu orada Homerni ham o‘qiymen. O‘z kulbamga kelib qozonda yog‘ dog‘lab, no‘xatlarni suvgaga solib, olovga qo‘ygan paytlarimda Penelopa ning dovyurak xushtorlari ho‘kiz va cho‘chqalarni qay tarzda so‘yganlari, ichlarini tozalab qovurganlarini aynan ko‘z oldimga keltiraman. Patriarxal turmushga xos belgilarni kundalik shaxsiy hayotimga osongina singdirish mumkinligidan o‘zga hech narsa menga bunchalik tinchlik va osudalik baxsh etolmaydi.

O‘z mehnati bilan o‘stirgan bir bosh karamni stol ustiga keltirib qo‘ygan odamning beg‘ubor quvonchini qalban his etish menga naqadar huzur bag‘ishlaydi. Bunda

nafaqat karamning o‘zini, balki u ekilgan beg‘ubor tong va serquyosh kunni, u sug‘orilgan fayzli oqshomlarni hamda ekinining barq urib o‘sayotganini ko‘rib sevinchga to‘lgan kunlarini – hamma-hammasini bir zum eslab zavqlanadi.

29-iyun

O‘tgan kuni shahardan amtmamnikiga tabib keldi, shu paytda men o‘sha yerda – Lottaning ukalari orasida o‘tirardim: biri menga osilib olar, ikkinchisi tortqilar, men esa ularni qitiqlardim va hammamiz ovozimizning boricha xoxolab kulishardik. Suhbat davomida yenglaridagi burmalarini tinimsiz tortqilab o‘tiruvchi aqidaparast vaysaqi hisoblangan tabib, nazarimda, mening qiliqlarimni madaniyatli odamga xos emas, deb hisobladi, buni ochiq aytmasa-da, yuzidan yaqqol bilinib turardi. Ammo men buni parvoyimga ham keltirmadim, rosa oqilona safsata sotishga qo‘yib berib, bolalarning buzib tashlagan qog‘oz uychalarini qaytadan qurib o‘tiraverdim. Shundan keyin u shahar aylanishga ketdi: amtmanning bolalari yomon tarbiyalangan, Verter ularni yana ham taltaytirib yuborgan, deb gap tarqatibdi.

Ha, do‘stim Vilhelm, dunyoda qalbimga eng yaqini bolalardir. Ularni kuzatar ekanman, kichki vujudda vaqt bilan unga zarur bo‘ladigan butun kuch va fazilat-larning kurtak yozayotganini sezaman; o‘jarligida kelgu-sidagi qat’iylik va sabotilik, sho‘xligida esa, keljakdagagi xushfe’llik, turmushdagi xavf-xatarlarni yengib o‘tish qobiliyati va boshqa xususiyatlar shu qadar yaxlit va shu qadar beg‘araz holda ko‘zga tashlanadiki! Shunda insoniyat

Murabbiysining oltinga teng so‘zlarini qayta-qayta takrorlayman: «Agar o‘zingiz bolaga aylanmasangiz, uning qalbiga yo‘l topolmaysiz!».

Ayni o‘zimizga o‘xshagan, o‘rnak olishimiz lozim bo‘lganlari bilan-chi, qadrli do‘stim, xuddi bizga qaram kishilardek muomala qilamiz. Go‘yo ular o‘z erkiga ega bo‘lmasliklari lozim!... Axir bizning ham o‘z erkimiz bor-ku! Bunaqa ustunlikni kim o‘ylab topdi?... Biz kattaroq va mulohazaliroq bo‘lganligimiz tufayli shundaymi? Marhamatli Tangrim, sen ko‘kdan turib faqat kattakichik bolalarnigina ko‘rasan, xolos; shularning qay biri senga ko‘proq quvonchli bo‘lsa, buni o‘g‘ling allaqachon ma’lum qilgan. Odamlar unga ishonadilar, ammo amal qilmaydilar (bu ham eski gap!) va bolalariga o‘z bilganlaricha tarbiya beradilar... Xayr, Vilhelm! Shuncha safsata sotganim ham yetar.

1 iyul

Lottaning biror bemorga qanchalik ruh bag‘ishlay olishini o‘z sho‘rlik qalbim misolida his qilaman. O‘lim to‘shagida ado bo‘layotgan har qanday xasta kishidan ko‘ra, mening qalbim ko‘proq azob chekadi. U bir necha kun shaharda, bir muhtaram ayol yonida bo‘ladi. Shifokorlarning fikricha, bu ayolning o‘nglanishi dargumon va umrining oxirgi lahzalarida Lottani o‘z yonida bo‘lishini xohlaganmish. O‘tgan hafta Lotta bilan Sh... qishlog‘ining ruhoniysi ko‘rgani bordik: qishloq tog‘ yonbag‘riga joylashgan, u yergacha bir soatlik yo‘l. Biz soat to‘rlarda yetib bordik. Lotta katta singlisini birga olib kelgan edi. Ikkita ulkan yong‘oq daraxti soya tashlab turgan ruhoniy

hovlisiga kirganimizda istarasi issiqliqina chol eshik oldida o'tirardi,

Lottani ko'rgach, go'yoki jon kirgandek, hatto has-sasini ham unutib, unga peshvoz chiqmoqchi bo'ldi. Lotta yugurib borib uni joyiga o'tqizgach, o'zi ham yoniga o'tirdi, otasidan iliq salom topshirdi, cholning keksaligidiagi ovunchog'i bo'lgan isqirtgina kenjasini erkalatdi. U cholni qanday yupatganini, qulog'i og 'ir bo'lgani tufayli chol eshitsin uchun ovozini ko'taribroq gapirishini, yosh va sog'lom bo'lishlariga qaramay to'satdan qazo qilgan kishilar, Karlsbad ning foydasi haqida jon kuydirib hikoya qilishini, kelgusi yil yozda cholning o'sha yoqqa borishga ahd qilganini ma'qullashini, Lotta uni oxirgi marta ko'rganidagiga nisbatan hozir ancha tetik ko'rinishini aytilib, cholga dalda bergenini o'z ko'zing bilan ko'rsang edi!

Bu orada men ruhoniyning xotiniga o'z ehtiromimni izhor qildim. Cholning ruhi ancha tetiklashdi va men, bizga binoyigina soya tashlab turgan yong'oq daraxtlarini maqtashga ulgurmasimdanoq, ancha qiynalib bo'lsa ham, ularning tarixini so'zlab bera boshladi:

– Kattasini kim ekkanini bilmaymiz, – dedi u, – birov u, birov bu ruhoniy ekkan, deydi. Huv anavi kichkinasi xotinim bilan teng, oktabrda ellik yoshga to'ladi. Otasi daraxtni ertalab o'tqazgan, o'sha kuni kechqurun esa u tug'ilgan. Mansab jihatdan u mening ustozim edi. U kishi bu daraxtga qanchalik mehr qo'yganligini so'z bilan ifodalab bo'lmaydi; men ham bunga undan kam ixlosmand emasman. Bundan yigirma yetti yil oldin yupun bir talaba sifatida shu hovliga ilk bor qadam qo'yganimda bo'lajak qaylig'im mana shu daraxt ostida nimadir to'qib o'tirardi.

Lotta uning qizi qayerdaligini so‘radi. Aytishlaricha, u janob Shmidt bilan yaylovga, batraklar huzuriga ketibdi, chol esa hikoyasida davom etdi:

– Keksa ruhoniy meni ham, qizini ham juda yaxshi ko‘rardi. Men avval uning yordamchisi, keyin esa o‘ribbosari bo‘ldim.

Hikoya tugay deb qolganda bog‘dan janob Shmidt bilan ruhoniyning qizi chiqib kelishdi. U Lotta bilan issiq ko‘rishdi, bu qiz menga xiyla yoqqanini yashirmayman. Shunday sho‘x va xushbichim qoramag‘iz qiz bilan qishloqda vaqt o‘tkazish ancha gashtli bo‘lardi. Uning jazmani (janob Shmidt qizning jazmani ekanligini payqash qiyin emasdi) kamgap odam bo‘lib, Lotta uni suhbatga tortishga qanchalik urinmasin, baribir, u gapimizga aralasholmadi. Ko‘nglimni xira qilgan narsa, ayniqsa, shu bo‘ldiki, undagi bu xususiyat fikr doirasining torligidan ham ko‘ra, ko‘proq o‘jarlik va badfe’llik edi. Baxtga qarshi bu xususiyat keyinroq takror ko‘zga tashlandi. Sayr paytida Frederika Lotta bilan, gohida men bilan yonma-yon yurganida uning shusiz ham qorachadan kelgan yuzi yanada xiralashib ketdi. Shunda Lotta yengimdan tortib, Frederikaga haddan tashqari iltifot qilmang, deya ogohlantirib qo‘ydi. Agar odamlarning bir-birlarini ruhan ezishlarini, ayniqsa, yoshlar hayotlarining gullagan davrida har qanday xursandchiliklardan bahramand bo‘lish o‘rniga, arzimas gaplar uchun qisqagina quvonchli damlarini yo‘qqa chiqarishlarini va o‘tgan ishni qaytarib bo‘lmasligini ancha kech tushunib qolishlarini ko‘rsam, behad ezilib ketaman.

Bu voqea meni tinch qo‘ymadi. Kechqurun ruhoniy hovlisiga qaytgach, sut ichib o‘tirarkanmiz, suhbat mavzui hayotdagi shodlik va g‘am-g‘ussaga ko‘chdi. Men ham paytdan foydalanib kishilardagi yaramas xususiyatlar haqida yonib so‘zladim.

– Yaxshi kunlar oz, yomon kunlar ko‘p, deya ko‘pincha zorlanamiz, – so‘z boshladim men, – nazarimda bu noto‘g‘ri. Agar bizga har kuni Alloh ato etgan yaxshilik istiqboliga samimiyl qalb bilan chiqsak edik, yomonlikka to‘qnash kelganimizda uni yengish osonroq bo‘lur edi.

– Biroq qalbimizga buyruq berolmaymiz-da, – e’tiroz bildirdi ruhoniyning xotini, – vujudimizning ham o‘zgacha ra’yi bor! Agar kishining kayfiyati yomon bo‘lsa, u hech qayerdan o‘ziga joy topolmaydi.

Men uning fikriga qo‘shildim.

– Demak, unda bu holni kasallik deb hisoblab, kerakli dori-darmoanni topishimiz lozim, – dedi.

– Mana bu ma’qul gap, – gapga aralashdi Lotta, – men masalan, ko‘p narsa odamning o‘ziga bog‘liq, deb o‘ylayman. O‘zimdan qiyos: agar biror narsadan ta’bim xira bo‘lsa yoki zeriksam, o‘rnimdan irg‘ib turaman-da, biror kuyni xirgoyi qilib, bog‘da u yoqdan-bu yoqqa yuraman. Qarabsizki, birpasda binoyidekman.

– Men ham xuddi shuni aytmoqchi edim, – Lotta ni quvvatladim men, – yomon kayfiyat ham erinchoqlikka o‘xshaydi, xususan, uning bir ko‘rinishi. Tabiatan biz hammamiz erinchoqmiz, ammo buni yengishda o‘zimizda kuch topsak, ishimiz yurishib ketadi; o‘zimiz ham bundan rohatlanamiz. – Frederika gapga diqqat bilan qulq solardi. Yigitcha esa, biz o‘z-o‘zimizga, ayniqsa,

his-tuyg‘ularimizga hukmronlik qilolmaymiz, deb e’tiroz bildirdi.

– Hozir gap yaramas his-tuyg‘ular haqida boryapti, bundan qutulishni har kim ham jon-jon deb istaydi, – javob berdim men, – kishi o‘z kuchining nimalarga qodirligini uni sinab ko‘rganidagina biladi. Bordi-yu, kishi bemor bo‘lsa, barcha do‘xtirlarga uchraydi, o‘zining ilgarigi salomatligini qayta tiklash uchun har qanday azobga, har qanday achchiq dorini ham ichishga rozi bo‘ladi, albatta.

Ruhoniylar chol bizning munozaraga qo‘shilish uchun quloglarini ding qilib turganini sezib, ovozimni balandladim va unga qarab gapira boshladim:

– Cherkov har qanday illatga qarshi targ‘ibot yurgizadi-yu, – dedim men, – ammo hali cherkov minbaridan turib yomon odatlarni tanqid qilishganini eshitganim yo‘q.

– Bu ish bilan shahar ruhoniylari shug‘ullansin, – fikrimni rad etdi chol, – dehqonlarda yomon odat bo‘lmaydi; har holda ba’zan bunday targ‘ibot hech bo‘lmasa mening xotinim va janob amtman uchun ortiqchalik qilmagan bo‘lardi.

Hammamiz kulib yubordik, o‘zi ham yo‘tala-yo‘tala samimiylardan kaldi. Shu orada munozaramiz biroz uzildi, keyin yana yigitcha so‘z boshladi:

– Siz badfe’llikni illat dedingiz, menimcha, bu mubolag‘a.

– Zinhor, – dedim unga javoban, – kishidagi o‘zining ham, o‘zgalarning ham ta’bini xira qiluvchi xulq shu nomga loyiqdir. Bir-birimizni baxtli qilolmaganimiz ustiga yana kamdan-kam muyassar bo‘ladigan ozgina quvonchni ham bir-birimizdan tortib olaylikmi? Kayfiyati yomon

bo'lsa-da, bundan faqat yakka o'zi qiynaladigan, boshqa-larning tinchligini buzmaslik uchun bu holatni yashirishga o'zida yetarli kuch topoladigan odam bormikan hech? Ko'pincha, badfe'llik o'z yaramasligi uchun ichdan alam chekishdan, o'z-o'zidan norozilikdan kelib chiqadi, bu norozilik esa o'ta bema'nilikka olib keladigan hasadgo'ylik bilan bog'liqdir. Baxtli kishilarni ko'rganimizda bu baxtni ularga o'zimiz baxsh etmaganligimizni his etish chidab bo'lmas holdir.

Mening hayajon bilan so'zlayotganimni ko'rib, Lotta kulimsiradi, Frederikaning ko'zlarida yaltiragan yosh meni yanada jo'shtirib yubordi, gapimda davom etdim:

— Birovning qalbiga hukmronlikdan foydalanib, shu qalbda tug'iladigan ozgina quvonchdan ham uni mahrum qiluvchi kishiga la'nat deging keladi. Dunyodagi hech qanday tortiq, hech qanday yupatishlar o'sha zolimning yaramas qiliqlari bilan zaharlangan ko'ngilni ko'tarolmaydi.

Shu lahzada yuragim to'lib ketdi; o'tmishdagi shunga o'xshash ba'zi voqealar xotiramda jonlandi-da, yuragimni ezib yubordi, ko'zlarimga yosh qalqdi.

— Do'stlaring uchun faqat birgina yaxshilik qil, u ham bo'lsa: ularni shodlikdan mahrum qilma, ularning baxtini oshir, bundan o'zing ham rohatlan – mana, har kuni o'zingdan talab qilishing kerak bo'lган narsa. Kishi qalbdan o'rtangan, g'am-alamdan qaqshagan paytlarida zar-racha bo'lsa-da, uning dardini yengillatishga qodirmisan? Eng quvonchli kunlarini sen oyoqosti qilgan qizni, nihoyat, dahshatli dard yengib, butunlay madorsiz holda, so'nik ko'zlarini osmonga tikib, manglayini sovuq ter tomchilari qoplab yotganida, muzlab borayotgan yurakka

qittakkina darmon va kuch bag‘ishlash uchun borlig‘ingni sarf etganiningda ham uni hayotga qaytarolmasligingni ichdan his etib, xuddi jinoyatchidek uning to‘shagi yonida tik qotasan va yuragingni alam kemira boshlaydi.

Bu so‘zlarni aytarkanman, o‘zim guvoh bo‘lgan ayni shunday voqeani xotirlash meni ado qilayozdi. Ro‘molchamni ko‘zimga bosgancha davradan chiqib ketdim. Faqat Lottaning «Ketadigan vaqt bo‘ldi», deb ortidan chaqirgan ovozигina meni hushimga keltirdi. U yo‘lda, har narsani yurakka yaqin olavermaslik kerak, bu narsa odamni yeb tashlaydi! Kishi o‘z-o‘zini ayashi kerak, deb meni koyidi. O, malagim! Sen uchunoq yashashim lozim!

6-iyul

U haliyam o‘sha o‘lim to‘shagida yotgan ayol bilan ovora. Lotta shunchalik g‘amxo‘rki, birgina nazariyoq kishiga baxt ato qiladi, dardiga malham bo‘ladi.

Kecha kechqurun uning Marianna va kichik Malxen bilan sayrga chiqishidan xabar topgach, u bilan uchrashdim, sayrga birga ketdik. Bir yarim soatlar chamasi aylanganimizdan so‘ng shahar chetidagi buloq oldida to‘xtadik, bu joy men uchun nihoyatda aziz edi, endi esa yanayam tabarrukroq bo‘lib qoladi. Lotta tosh devor ustiga o‘tirdi, biz uning ro‘parasida tikka turdik. Atrofni ko‘zdan kechirdim. Oh! Og‘ir tanholikni kechirgan mash’um onlar tag‘in xotiramda qayta jonlandi!

– Qadrdon chashma, – ko‘nglimdan kechirdim men,
– o‘shandan buyon biror marta ham sening orombaxshligingdan bahramand bo‘Imagan, hatto yo‘l-yo‘lakay ham

senga biror nazar tashlamagan edim.

Pastga qarab, Malxenning bir stakan suvni avaylab olib chiqayotganini ko‘rdim, Lottaga boqib uning men uchun naqadar azizligini his etdim. Bu orada qo‘lida stakan bilan Malxen yetib keldi. Marianna undan stakanni olmoqchi bo‘ldi.

– Yo‘q, yo‘q! – qichqirdi qizcha muloyimgina tovush bilan, – Lotxen, oldin sen ich!

Uning so‘zlaridagi samimiylari mehribonchilikdan shu darajada mehrim jo‘shib ketdiki, uni dast ko‘tarib qattiq o‘pib olishdan o‘zimni tiyolmadim, qizcha esa chinqirib yig‘lay boshladи.

– Yaxshi qilmadingiz, – dedi Lotta. Men uyalib qoldim. U qizchaning qo‘lidan tutib, zinapoya bo‘ylab pastga boshladи.

– Yur, Malxen, – dedi u, – tez-tez bo‘laqol, yuzingni buloq suviga yuvgin, o‘shanda hech narsa qilmaydi.

Turgan joyimda qizchani kuzatardim: sehrli buloq suvi butun ifloslikni yuvib tashlaydi va yuzni soqol bosib ketish xavfidan qutqazadi, degan ishonchda yuzini ho‘l qo‘lchalari bilan shunchalik berilib ishqalardiki! «Bo‘ldi», – dedi Lotta, shunda ham qizcha, qancha ko‘p yuvsam shuncha yaxshi, degan fikrda yuzini ishqalardi.

Ishon, Vilhelm, men haligacha ibodat manzarasini hech qachon bunchalik ehtiros bilan kuzatmagandim. Lotta yuqoriga chiqqanida, butun bir xalqning gunohini yuvgan payg‘ambarlarga topingandek, o‘zimni uning poyiga tashlashni istardim.

Yuragim to‘lqinlanib turganidan bo‘lgan voqeani

ichimda saqlayolmadim, kechqurun bir odamga aytib berdim. U meni tushunadi, deb o‘ylagandim, negaki, u ancha bama’ni odam-da. Lekin rosa odamini topib gapi-ribman. Uning fikricha, Lotta noto‘g‘ri qilgan, bolalar ning miyasiga har narsani singdirish mumkin emas, bunday muomala xato fikr va ishonchsizlik tug‘ilishiga sabab bo‘ladi, bundan bolalarni o‘z vaqtida asray bilish lozim.

Uning uyida bundan bir hafta burun cho‘qintirish mafrosimi bo‘lganini eslab e’tiroz bildirmadim, biroq o‘zim bir haqiqatga sodiqman: shirin xayollar qanotida parvoz qildirib, oliy baxt ato etuvchi Tangri biz bilan qanday muomalada bo‘lsa, biz ham bolalar bilan shunday muomalada bo‘lishimiz lozim.

8-iyul

Go‘dakmiz-a! Birgina nigoh bizni nimalarga eltmaydi! Hali ham go‘dakmiz! Biz Valhaymga borgan edik. Xonimlar karetada ketishdi. Sayr paytida, nazarimda, Lottaning tim qora ko‘zlarida... tentakman, meni kechir! Ammo bu ko‘zlarni bir ko‘rsang edi!.. Gapni qisqa qila-qolay, chunki uyqum kelib ko‘zlarim yumilib ketyapti. Xullas, xonimlar karetaga joylashishdi. Biz esa, – yoshgina V... Zelshtadt, Audran va men – kareta oldida turardik. O‘ta sho‘x va hazilkash yigitlar xonimlar bilan mu-loqotda edilar. Men Lottaning nigohiga intiq edim. U goh unga, goh bunga qarardi! Butun borlig‘im bilan yolg‘iz unga bo‘ysunib tursam-da, menga, mengagina, uning nazari tushmadi! Mening qalbim undan ming marotaba afv so‘radi! Lotta bo‘lsa, menga nazar tashlamadi! Kareta qo‘zg‘aldi! Ko‘zlarimga yosh qalqdi. Men uning ortidan

qarab qoldim va kareta derazasidan Lottaning shlyapasi ko‘rindi. U burilib qaradi! Oh! Menga qaradimikan?

Do‘stim! Ana shunday noaniqlikdan boshim qotgan. Meni birgina narsa ovutadi! Ehtimol, u menga qaragan-dir? Ehtimol! Xayrli kech! Borib turgan go‘dakman-a!...

10-iyul

Biror joyda u haqda og‘iz ochgudek bo‘lishsa, qanchalik o‘ng‘aysizlanishimni ko‘rsang edi! U senga yoqadimi, deb so‘rashganda-chi? Yoqadi! Shu so‘zni o‘lguday yomon ko‘raman. Lotta kishidagi butun xayol va tuyg‘ularni qamrab olmasdan, shunchaki yoqishi uchun odam qanday bo‘lmog‘i kerak! Yoqadi! Yaqinda mendan birov: «Ossian senga yoqadimi?» – deb so‘radi.

11-iyul

Frau M...ning ahvoli og‘ir; uning umrini uzaytir, deb xudoga yolvoraman, chunki unga Lotta ikkalamiz birga qayg‘uramiz. Men Lottani dugonalarinikida kamdan-kam ko‘raman, bugun esa u g‘alati bir voqeani so‘zlab berdi.

Chol M... bachkana, injiq, qurumsoq odam bo‘lib, xotinini mudom xarajatdan qisib kelgan. Lekin xotin hamisha qiyin ahvoldan qutulish yo‘lini topardi. Bundan bir necha kun oldin do‘xtir uni tuzalishi gumon deb hisoblagach, erini yoniga chaqiribdi va yuragini ochibdi (Lotta ham xonada ekan):

– Senga bir narsani ma‘lum qilishim kerak, bo‘lmasa bu o‘limimdan keyin ko‘ngilsizlik va tushunmovchilik tug‘dirishi mumkin. Men shu paytgacha iloji boricha tejab-tergab xo‘jalik yurgizib keldim. Ammo shu o‘ttiz yil

davomida seni aldab kelganimni birgina sen kechirasan. Turmush qurganimizning dastlabki paytlarida yeishga va boshqa uy xarajatlari uchun arzimagan mablag‘ ajratarding. Xo‘jaligimiz ancha kengayib, daromadimiz oshganda ham shunga qarab haftalik xarajatni ko‘paytirish xayolingga kelmadi; qisqasi, qanchalik ko‘p talab qilinmasin, sen baribir bir haftaga bir necha guldenni yetkazishimni talab qilganingni o‘zing ham bilarsan. Men bo‘lsam miq etib og‘iz ochmasdim, yetishmovchilik o‘rnini haftasiga kelgan foydadan to‘ldirardim: uy bekasi pul o‘g‘irlaydi, deb hech kim o‘ylamaydi-ku, axir. Men pulni havoga sovurganim yo‘q va bu haqda og‘iz ham ochmasdan, sof vijdon bilan abadiy ko‘z yumib ketsam bo‘lardi, lekin, mendan keyin xo‘jalikni qo‘lga oladigan ayol shu zahotiyoq boshi berk ko‘chaga kirib qolishi, sen esa, mening birinchi xotinin tejab-tergashni bilardi, deya o‘z gapingni o‘tkazishing mumkin edi.

Inson ko‘zining aqlga sig‘mas darajada parda bosib qolishi xususida Lotta ikkovimiz gaplashib o‘tirdik. Axir, nahotki odam, yetti gulden o‘rniga ikki baravar ko‘proq xarajat qilinayotganda, bunda biror gap bor, deb gumon qilmasa! Ammo payg‘ambarning qaynar xumchasi uyida paydo bo‘lib qolganda ham bunga hayron bo‘lmaydigan odamlarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman.

13-iyul

Yo‘q, men adashayotganim yo‘q! Uning timqora ko‘zlarida menga va mening taqdirimga nisbatan haqiqiy hamdardlik balqib turibdi! Ha, sezyapman, bunga yurakdan aminman... Oh, u... u meni sevadi! O, bu so‘zlardagi

sehrni ifodalab bera olarmikanman?..

U meni sevadi!.. Bu meni o‘z nazarimda qanchalik yuksaklikka ko‘taradi! Axir men... Bu haqda senga ochiq aytaverishim mumkin, u meni sevishini bilganimdan buyon o‘z-o‘zimga topinishimni yaxshi tushunasan...

Bu fikrim surbetlikmi yoki haqiqiy tuyg‘umi, bilmayman. Har holda Lottaning qalbini raqibim band etgan, deb o‘ylamayman. Shunday bo‘lsa-da, baribir, agar Lotta kuyovi haqida gapirsa, beqiyos hurmat va mehr bilan gapirsa, o‘zimni xuddi shamshiri tortib olingan, har qanday obro‘ va mansabdan mahrum etilgan kishidek his etaman.

16-iyul

Qo‘llarimiz to‘satdan bir-biriga tegib ketsa yoki stol ostida oyoqlarimiz uchrashsa, butun borlig‘im qanchalik larzaga kelishini bilsang edi! Olovdan qo‘rqqandek o‘zimni tortaman, lekin yashirin bir kuch meni yana oldinga undaydi! Boshim chir aylanadi!... Lotta-chi... o‘zining soddadilligi va sofligi tufayli bu mayda-chuyda yaqinliklar meni qay darajada azoblashini bilmaydi. Suhbatlashib o‘tirganimizda u qo‘lini mening qo‘llarim ustiga qo‘ysa yoki gapga qiziqib ketgan damlarda menga yaqin kelib, sehrli nafasi lablarimga urilsa – o‘zimni to‘lqinda g‘arq bo‘layotgandek his qilaman... Quloq sol, Vilhelm! Men biror kun mana shu samimiy ishonchdan yomon maqsadda foydalanishga jur’at etsam-chi?.. Sen meni tushunasan, do‘stim!.. Yo‘q, mening qalbim bu darajada yaramas emas. Ammo u kuchsiz!... Shuning o‘ziyoq illat emasmi, axir?..

Lotta men uchun muqaddasdir. Uning qarshisida har

qanday istak ham yuzaga chiqolmaydi. Uning huzurida o‘zimni yo‘qotib qo‘yaman. Vujudimdagи har bir tomir larzaga kelgandek tuyuladi... u bir sehrli kuyni fortepi-noda shunday sodda va jozibali qilib zavq-shavq bilan chaladiki! Bu uning eng sevgan kuyi! Bu kuyning ilk sadolarini tinglaganimdanoq go‘yo butun g‘am-g‘ussa va tashvishlardan qutulgandek bo‘laman. Musiqaning sehrli kuchi haqidagi eskidan qolgan gaplarga so‘zsiz ishonaman. Oddiygina bir ohang meni qanchalik hayajonga soladi! O‘z-o‘zimni otib tashlashni istab turgan paytimda u yana shu kuyni chaladi! Qalbimdagi iztirob va tumanlik yozilib ketadi-da, qaytadan erkin nafas ola boshlayman.

18-iyul

Vilhelm! Bizga muhabbatsiz hayotning nima keragi bor? Nursiz sehrli chiroq nima-yu bu nima! Sen uni yoq-qaniningdayoq turli-tuman ranglar oppoq devorda tovlana boshlaydi! Bu o‘tkinchi sarobdan bo‘lak narsa bo‘lmasa-da, biz uni ko‘rgach, bolalarcha sevinamiz va g‘aroyib hodisaga mahliyo bo‘lib turamiz. Bugun Lotta bilan ko‘risholmadim: bir necha ezma kishilar yonida tutilib qoldim. Endi nima qilish kerak? Hech bo‘lmasa uning xuzurida bo‘lgan odamni ko‘rish maqsadida u yoqqa xizmatkorimni yubordim. Uni sabrsizlik bilan kutdim va shunchalar quvonch bilan qarshi oldimki! Agar jur’at et-ganimda edi, uning boshini ko‘ksimga bosib, o‘pib olgan bo‘lardim.

Aytishlaricha, bonon toshini oftobga qo‘ysa, u quyosh nurlarini o‘ziga yutarmish, keyin ancha vaqtgacha qorong‘ulikni yoritib turarmish. Xizmatkorim ham, naza-

rimda, shunday edi. Lottaning nazari uning yuz-ko‘zlariga, livreyasining tugmalariga, plashining yoqasiga tushgan, degan tuyg‘u men uchun shunday muqaddas va qimmatli ediki! Shu daqiqada xizmatkorimni ming talerga ham al-mashtirmagan bo‘lardim. Uning huzurida o‘ltirish ulkan baxt edi. Xudoyo, sen bundan kulma! Vilhelm, Bizga se-vinch baxsh etuvchi narsalar sarobmi?

19-iyul

– Men uni ko‘raman! – deya hayqiraman o‘zimcha tongda uyg‘onganim zahotiyoq zarrin quyoshga quvonch bilan boqarkanman, – «men uni ko‘raman!» Butun kun bo‘yi bundan o‘zga istagim yo‘q. Hamma, hammasi shu umidga singib ketadi.

20-iyul

Sizlarning maslahatlaringga kirib, hech ham elchi bilan ...ga bormoqchi emasman. Birovga qaram bo‘lishni yoqtirmayman, elchining bema’ni odam ekanligini esa hammamiz yaxshi bilamiz. Onam mening biror ish bilan shug‘ullanishimni istaganini yozibsang. Bu gaping kulgimni qistatadi. Niima, hozir bekorchimanmi? Men no‘xat saralaymanmi yoki tariqmi, aslida baribir emasmi? Bu dunyoda hamma narsa behuda natijaga olib keladi. Kimki vijdanan va o‘z istagi bilan emas, balki boshqalarga yoqish maqsadidagini pul, obro‘ yoki yana boshqa biror narsa uchun mehnat qilsa, u – tentakdir.

24-iyun

Rasm solishni tashlab yubormasligim uchun qayg‘ura-yotganing tufayli, oxirgi paytda juda oz ish qilganligimi-ni senga ma’lum qilishdan ko‘ra, yaxshisi, bu haqda to‘xtalmay qo‘ya qolay.

Men hech qachon bunchalik baxtga musharraf bo‘lgan-gandim, eng mayda tosh va giyohdan tortib, butun tabiat-ga bo‘lgan muhabbatim hech qachon bu qadar ulkan va chuqur bo‘lmagan edi, ammo buni qanday ifodalashni ham bilmayman... Menda tasvirlash qobiliyati shunchalik sustki, hamma narsa ko‘z oldimda sirli tumandek aylani-shadi-da, birorta ham manzarani ilg‘ab ololmayman. Nazarimda, agar sariq loy yoki mum bo‘lsa, shundan biror narsa yasayolsam kerak. Agar shu holat davom etaversa, loy olaman-da, yasab ko‘raman, birorta shakl hosil bo‘lar-ku, axir!

Lottaning portretini ishlashga uch marta kirishdim va har safar ham buning uddasidan chiqolmadim. Ko‘proq alam qilgani shuki, ilgarigidek biror ko‘rinishni darhol ilib ololmayman. Bir paytlar uning siluetini chizgandim, endi shu bilangina cheklanishga majburman.

25-yul

Ha, azizim, Lotta, barcha aytganlaringizni bajo aylay-man, menga iloji boricha ko‘proq va tez-tez yumushlar buyuring. Sizdan faqat bir narsani o‘tinaman: yozgan nomalariningiza qum sepmang. Bugun xatni lablarimga tekkizganim zahotiyoq tishlarim orasida qum g‘ijirlay boshladi.

26-iyul

U bilan kamroq uchrashay deb bir necha marotaba o‘zimga so‘z berdim. Ammo so‘zda turib bo‘larmidi! Har kuni o‘z-o‘zimni aldayman va ertaga uchrashmaslikka chin va’da beraman, tong otgach, arzimagan bir vaj topaman-u, ko‘z ochib-yumguncha uning huzurida paydo bo‘laman. Yoki u kechqurun: «Ertaga albatta kelarsiz?» – deb aytib qo‘yadi. Bu gapdan keyin kim ham bormay turolardi! Yo bo‘lmasa, u menga biror topshiriq beradi, javobini esa o‘zim yetkazishni ma’qul ko‘raman. Yoki havo g‘oyat yaxshi bo‘ladi-da, men Valhaymga jo‘nayman, bu yerdan uning yonigacha yarim soatlik yo‘l, xolos! – Bunchalik yaqin masofada intilish yanada kuchayadi. Hash-pash deguncha ko‘rabsanki, o‘sha yerdaman. Buvim magnit tog‘i haqida ertak aytardilar: kemalar o‘sha toqqa ya-qin suzib kelishganda, ular hamma temir qismlaridan ajralishgan, mixlarni tog‘ tortib ketgan va bechora dengizchilar vayron bo‘lgan yog‘ ochlar orasida halok bo‘lishgan.

30 -yul

Albert keldi, endi ko‘rinmasligim lozim. U odamlarning eng yaxshisi, eng olivjanobi bo‘lganida ham va men o‘zimni har jihatdan undan past hisoblaganimda ham, baribir, uni shunchalik kamolot egasi sifatida ko‘rish – chidab bo‘lmas holdir. Ha, ha, kamolot egasi! – Qisqasi, Vilhelm, kuyov keldi! U yaxshi, yoqimtoy odam, u bilan ahil bo‘lmoq kerak. Yaxshiyamki, uchrashganlarida yo‘q edim! Bo‘lmasa, o‘rtanib ado bo‘lardim. Buning ustiga, shunchalik sipoki, hali biror marta ham mening huzurimda Lottani o‘pgani yo‘q. Buning uchun uni Tangri yar-

laqasin! Shunday qizni ardoqlay bilganligi uchun ham uni qadrlasa bo‘ladi. Menga ham munosabati yaxshi, bu uning o‘z idrokidan ko‘ra, ko‘proq Lottaning ta’siri bo‘lsa kerak, deb gumon qilaman. Bunga ayollar usta bo‘lishadi va to‘g‘ri qilishadi ham. Chunki ikki oshiq yigit bir-biri bilan ahil bo‘lsa, ularning foydasi-da, ammo bunday hol-lar kamdan-kam uchraydi.

Biroq Albert hurmat qilishga arzigulik odam. U bosiq, men esa aksincha, qiziqqonligimni ko‘pincha yashirolmay qolaman. Uning muhabbatи yuksak va u Lottaning qadriga yeta biladi. Aftidan, u g‘amgin kayfiyatda bo‘lishni uncha yoqtirmaydi va sen bilasanki, kishilardagi illatlardan eng yomon ko‘radiganim – mana shu.

Albert meni aqli odam deb hisoblaydi, Lottaga bo‘lgan mehribonligim va har bir harakatidan quvonishim, Albertning shodligini oshiradi va Lottani yanada ko‘proq sevadi. U zarracha bo‘lsa-da, Lottani rashk qilmaydi, deb ay-tolmayman, har holda o‘zim uning o‘rnida bo‘lganimda, bu nusxaga xayrixoh bo‘lishimni xudo bilardi.

Albert nima bo‘lsa bo‘lavserin-u, ammo Lotta yonida bo‘lishdek quvonchdan endi benasibman. Bu nima, tentaklikmi yoki xayolparastlikmi? Biror narsa deb atashning hojati bormi?! Ahvol o‘z-o‘zidan ayon-ku!.. Hozir nima bilsam, bularni Albert kelguniga qadar ham bilardim. Lot-taga biror narsa deb da’vo qilishga haqqim yo‘qligini ham bilardim va hech narsa da’vo ham qilmadim. Har holda bu darajada iltifotli bo‘lishga hojat yo‘q edi, endi esa, raqibi kelib, sevimli qizini tortib olsa, bu landovur tag‘in hayron ham bo‘ladi.

Tishimni tishimga bosib, o‘z baxtsizligimdan kula-

man, lekin men taqdirga tan berishga undovchi kishilar ustidan o'n barobar ortiqcha kulgan bo'lardim. Demak, ahvol o'zgarmas ekan... Meni bunday befahmlardan xalos etinglar!.. O'rmonda u yoqdan-bu yoqqa yuguraman, Lotta oldiga kelganimda, u Albert bilan bog'dagi ayvonchada o'tirgan bo'lsa va o'zimning bu yerda ortiqchалигими sezsam, jinnilik qilib turli-tuman bema'ni qiliqlar boshlayman.

– Xudo haqqi, o'tinaman sizdan, kechagidek o'yin ko'rsatmang! – dedi Lotta, – Sizning quvnoqligингиз g'oyat qo'rinchli.

Gap oramizda qolsin-u, Albert band bo'lgan paytni poylab bir zumda o'sha yerga boraman. Agar Lotta yolg'iz bo'lsa, haddan ortiq sevinib ketaman.

8-avgust

Azizim Vilhelm! Ishon, bizni azaliy taqdirga bo'ysunishga undovchi kishilarni behad qoralaganimda, mutlaqo seni ko'zda tutmagan edim. Sen ham shunday fikrga kela olishing mumkinligini hatto o'ylab ham ko'rganim yo'q. Aslini olganda, sen haqsan, Aziz do'stim, hayotda faqat bir narsa, ya'ni yo unisi, yo bunisi, degan masala juda kam hollarda hal qilingan. His-tuyg'ular va qiliqlar xuddi qirg'iyburun va puchuqburunlar o'rtasidagi farqqa o'xshab turli-tumandir. Sening hamma isbotlaringni tan olsam-da, shu bilan birga ana shu yo unisi, yo bunisi masalasini hal qilishga urinib ko'rsam, albatta, mendan ranjimassan.

Aytasanki, yo Lottaga yetishishdan umiding bor, yoki

butunlay umidsizsan. Birinchi holda, o‘z istagingni amalga oshirishga urin, aks holda, o‘zingni qo‘lga ol va oxiri seni xarob qiladigan ayanchli tuyg‘udan qutulishga urin...

Azizim! Bu aytishgagina oson, xolos, ha...

Mabodo, darmonni qurituvchi kasallik sekin-asta o‘limga eltayotgan biror baxtsizni ko‘rsang, undan: «O‘zingga bitta xanjar urda, barcha azoblardan xalos bo‘l», – deb talab qila olarmiding? Axir, kishining darmonini quritayotgan mana shu xastalik, undan qutulishga bo‘lgan jur’atni ham yemirmaydimi? Albatta sen: kim ham bo‘sanglik va ikkilanish tufayli o‘z hayotini xavf ostida qoldirishdan ko‘ra, qo‘lini qirqtirishni afzal ko‘rmaydi?.. Yoki shunga o‘xhash boshqa biror misol bilan javob berishing mumkin. Ehtimol, shundaydir! Kel, misollar keltiraverib bir-birimizni bezor qilmaylik!.. Yetar!... Ha, Vilhelm, men o‘zimda ba’zan shunday jur’at sezamanki, go‘yo otolib turib, hamma narsani o‘zimdan irg‘itib tashlab, yugurgim keladi, biroq qayoqqaligini o‘zim ham bilmayman.

Kechqurun

Ko‘pdan buyon tashlab qo‘ygan kundalik daftaram bugun yana qo‘limga tushib qoldi va voqe-a-hodisalarni shunchalik bat afsil qayd etganligimga hayron qoldim! O‘z ahvolimni ochiq-oydin ko‘rib tursam-da, baribir, xudi boladek qiliqlar qilganman, hozir o‘shandagi ahvolimni yanada aniqroq tasavvur qilyapman, biroq es-hushimni yig‘ishga urinayotganim ham yo‘q.

10-avgust

Men bunaqa tentak bo‘lmaganimda, eng shirin, eng baxtli hayot egasi bo‘lishim mumkin edi. Hozir men boshdan kechirayotgan qalbga rohat bag‘ishlovchi mumentoz lahzalar kamdan-kam bo‘ladi. Kishi o‘z baxtini o‘zi yaratadi, degan gap naqadar to‘g‘ri-ya!

Eng ajoyib oilaning a’zosi hisoblanaman, mo‘ysafid meni o‘z o‘g‘lidek, bolalar o‘z otasidek sevishadi. Lotta esa!.. Undan keyin, sofdil Albert ham turli yaramas qiliqlar bilan baxtimga xalaqit bermaydi, meni dunyoda Lottadan keyin eng qimmatli kishisi hisoblaydi! Bilasan-mi Vilhelm, sayr qilib yurarkanmiz, u bilan Lotta haqidagi birga suhbatlashish biz uchun tunganmas quvonchdir. Dunyoda bunday ahvoldan ham kulgilirog‘i bo‘lmasa kerak. Ko‘pincha bundan yig‘lagim keladi.

U menga, Lottaning validai muhtaramasi o‘limi oldidan xo‘jalikni va bolalarni Lottaga, Lottani bo‘lsa, unga vasiyat qilib qoldirganini aytib berdi. Shundan buyon Lotta go‘yo qayta tug‘ilgan: xo‘jalik tashvishlari bilan u xuddi onadek bo‘lib qolgan. Hayotining har bir daqiqasi jo‘shqin muhabbatsiz va mehnatsiz o‘tmaydi. Lekin shu bilan birga, quvnoqlik va xushchaqchaqlik hech qachon uni tark etmagan! U shularni hikoya qilarkan, men uning yonida yurib, yo‘l chetidagi gullarni terib, ularni tartib bilan dastalayman va... yonimizda oqayotgan anhorga irg‘itaman-da, ularning oqim bo‘ylab suzishini kuzataman... Senga bu haqda yozganmanmi, yo‘qmi, bilmayman: Albert shu yerda qoladi va ancha serdaromad mansabga o‘tiradi, bu idorada uni behad hurmat qilishadi. Ish

yuzasidan epchillik, tirishqoqlikda unga teng keladigan kishini hali uchratganim yo‘q.

12-avgust

Albert dunyodagi eng yaxshi kishilardan, albatta. Kecha o‘rtamizda qiziq bir tortishuv bo‘lib o‘tdi. Men uning oldiga xayrlashgani kelgandim. Chunki menda toqqa otda sayohat qilish fikri tug‘ilib qoldi, hozir shu yer dan senga yozyapman. Xonada u yoqdan-bu yoqqa yurakanman, uning to‘pponchalariga ko‘zim tushib qoldi.

- Sayohatga chiqishimda to‘pponchalaringni berib tur,
- deya iltimos qildim.
- Agar o‘zing o‘qlayolsang olaqol, – dedi u, – ularni bezak uchungina bu yerga osib qo‘yanmiz, xolos.

Ulardan birini mixdan oldim, u so‘zida davom etdi:

- O‘z ehtiyotkorligim ko‘ngilsiz bir hodisaga sababchi bo‘lganidan buyon ularni qo‘limga ham olmayman.

O‘sha voqeani bilishga qiziqib qoldim.

- Uch oycha qishloqda, bir oshnamnikida yashadim, ikkita o‘qlanmagan to‘pponcham bor edi, chunki hech qanaqa xavf ham yo‘q edi. Yomg‘irli kunlardan birida zerikib o‘tirib, turli bo‘lmaq‘ur fikrlar xayolimga kela verdi: bizga kimdir hujum qilib qolsa-ya, to‘pponchalar zarur bo‘lib qolsa-ya, unda... qisqasi, bunaqa vasvasalarni o‘zing tushunasan... To‘pponchalarimni xizmatkorimga berib, ularni tozalashni va o‘qlashni buyurdim, u bo‘lsa, hazillashib, qizlarni qo‘rkitmoqchi bo‘ldi, shompol hali chiqarilmay turib, qo‘qqisdan to‘pponchadan o‘q chiqib ketdi, shompol bir qizning o‘ng qo‘liga tegib ketib, bosh barmog‘ini parchalab yubordi. Buning uchun menga an-

cha ta'na eshitishga va qizni davolash uchun xarajatni ko'tarishga to'g'ri keldi, shundan buyon qurolni hamisha o'qlamasdan qo'yaman, mana ehtiyyotkorlikning oqibati, aziz do'stim! Xavfni oldindan sezmaysan-da kishi!.. Ammo...

Bilasanki, agar shu «ammo»sini ishlatmasa, Albertni juda yaxshi ko'raman. Har bir qoidaning ham istisno tomoni borligi o'z-o'zidan tushunarli emasmi? Lekin, u shu qadar adolatliki, bordi-yu nazarida fikri umumiyoq, yaxshi o'ylanmagan, shoshqaloqlik bilan aytilgan bo'lsa, shu narsaning tub mohiyatiga yetmaguncha qo'ymaydi, seni izohlar, gumonlar va e'tirozlarga ko'mib tashlaydi. Bu safar esa, uning ham fikrlari chalkashib ketdi, nihoyat men ham unga butunlay qulq solmay qo'ydim, hazil tariqasida keskin bir harakat bilan to'pponcha og'zini peshonamga tiradim.

– Qo'ysang-chi! Bu nima qiliq? – dedi Albert mendan to'pponchani tortib olarkan.

– U o'qlanmagan-ku, axir, – e'tiroz bildirdim men.

– Baribir, bunday qilishning keragi yo'q, – dedi u achiqlanib, – ko'z oldimga keltirolmayman, odamning shu qadar telbalikka – o'zini-o'zi otib tashlashga qanday qo'li borarkan? Shu bo'limg'ur fikrning o'ziyoq ko'nglimni aynitadi.

– Juda g'alati-da, bu odamlar, – deb yubordim men, – har bir narsa uchun darhol izoh topasizlar; u tentaklik, bu aqllilik, u yaxshi, bu yomon! Axir, shu ham gap bo'ldimi endi? Buning uchun har bir ishning ichki sababini tekshirib ko'rasiylarmi? Sodir bo'lgan va sodir bo'ladigan voqealarni aniq ko'rsata olasizlarmi? Agar shunday qilga-

ningizda edi, bunchalik shoshilib xulosa chiqarmagan bo‘lardingiz.

— Axir qulq solsang-chi, — dedi Albert, — ba’zi qiliqlar qanday tuyg‘ular tufayli kelib chiqishidan qat’iy nazar, aqlga sig‘maydi.

Yelkamni qisdim-da, uning fikrini ma’qullab qo‘ya qoldim.

— Biroq, do‘stim, — gap boshladim yana, — bunda ham ba’zi istisno tomonlar bor. O‘g‘irlik, albatta, illat hisoblanadi: o‘zini va oilasini ochlikdan qirilish xavfidan qutqazish maqsadida o‘g‘irlik qilishga majbur bo‘lgan odam achinishga loyiqlimi yoki jazogami? Haqqoniy qahri kelib, o‘z bevafo xotinini va uning yaramas xushtorini qurbon qilgan erkakka, yoki bo‘lmasa, ehtirosli lahzalarda muhabbatning bir soniyalik lazzatiga g‘arq bo‘lib, o‘zini yo‘qotgan qizga kim ham tosh otadi? Hatto bizdagি huquqshunoslar, sovuqqon rasmiyatchilar ham bunday holлarda biroz bo‘shashadilar, jazolashga shoshilmaydilar.

— Bu boshqa gap, — javob berdi Albert, — chunki odam his-tuyg‘ularga berilib ketib, fikrlash qobiliyatini yo‘qotadi va kishilar unga mastga yoki jinniga qaragan-dek qaraydilar.

— Eh, siz hushyorlar! — dedim kulimsirab, — Jo‘shqinlik! Mastlik! Jinnilik! Siz, aqli kishilar esa, vazmin va betaraf bo‘lib, bir chekkada turasizlar-da, mastlarni qoralaysizlar, ularni chetlab o‘tasizlar, ruhoniy hamda fariseylarga o‘xshab, sizlarni ham shulardek qilib yaratmagani uchun xudoga shukur qilasizlar. O‘zim ham bir necha marta mast bo‘lganman, mendagi qiziqqonlik hatto jinnilikkacha borib yetgan, biroq men birortasi uchun ham o‘kinmayman,

negaki, hamma buyuk kishilar birorta ulkan, xayolga kel-magan ishni amalga oshirishsa, hamisha ularni mast yoki jinniga chiqarishlariga allaqachon imonim komil bo‘lgan. Mana shu kundalik hayotda ham birorta kutilmagan ish-ga endigina dadil, vijdonan kirishgan odam ketidan: «Bu odam mast! U jinni bo‘lgan!» – deb g‘iybat qilganlarini eshitsang, toqating toq bo‘ladi, kishining. Uyat emasmi, axir, hushyorlar! Uyat emasmi, donolar!

– Bu sening navbatdagi xom xayoling, – dedi Albert, – hamisha bir gapni ko‘pirtirib yurasan, hozir esa, mutlaqo nohaqsan. Hozir o‘z-o‘zini o‘ldirish haqida gap boryapti-yu, sen buni buyuk ishlar bilan taqqoslab o‘tiribsan. O‘z-o‘ziga qasd qilish rostdan ham kuchsizlik-ku, turmush azoblarini yengishdan ko‘ra, tinchgina o‘lib qo‘yaqolish oson-da, axir!

Gapni bo‘lishga tayyor edim, chunki chin qalbimdan so‘zlagan paytimda agar birortasi, hammaga ma’lum ar-zimas haqiqatlarni menga pesh qilsa, toqat qilolmayman. Biroq bunday gaplarni eshitaverib va achchiqlanaverib o‘rganib qolganligim tufayli o‘zimni tutdim va xiyla jo‘shib gapira boshladim:

– Seningcha, bu kuchsizlikmi? O‘tinaman, gapning mohiyatiga yetmay turib hukm chiqarma. Mustabid hokimning benihoya zulmidan ezilgan xalq nihoyat qo‘zg‘alsa va zulm zanjirini uzib tashlasa, sen buni ham kuchsizlik deysanmi? Agar biror odamning uyiga o‘t tushsa-yu, u qo‘rquvdan kuchga to‘lib, odatda joyidan qo‘zg‘ata olmagan yukni osongina ko‘tarib chiqsa, yoki bo‘lmasa, biror kishi alamdan qahri kelib, olti kishi bilan olishib, barchasini yengsa, seningcha, bu ham kuchsizlik

hisoblanadimi? Demak, azizim, tirishish – kuchlilik ekan, nega endi, haddan ortiq shiddat uning aksi bo‘lsin?

Albert menga tikildi-da, dedi:

– Achchig‘ing kelmasin-u, lekin sen keltirgan misol-larning bu masalaga mutlaqo aloqasi yo‘q..

– Ehtimol, shundaydir, – dedim men, – mening fikrlarim ko‘pincha maqtanchoqlikka borib yetishini ko‘p marta lab yuzimga aytishgan. Qani, bundoq o‘ylab ko‘raylik-chi, avvallari ko‘ngilli tuyulgan hayot yukini o‘z yelkasidan irg‘itib tashlashga qaror qilgan odamning kayfiyati qanaqa bo‘lishi mumkinligini tasavvur qila olarmikan-miz? O‘zimiz biroz his eta oladigan narsa haqidagina fikr yuritishga haqqimiz bor, xolos.

– Odamdagি toqatning ham chegarasi bor, – so‘zimda davom etdim men, – inson quvonchni ham, dard-u al-amni ham ma’lum bir chegaragacha ko‘tara oladi, o‘sha chegaradan o‘tdimi, bas, u so‘zsiz halok bo‘ladi. Demak, bu yerda gap uning kuchli yoki kuchsizligi haqida emas, balki odam o‘z azoblari me’yoriga – u ma’naviyimi yoki jismoniyimi, baribir, – bardosh bera olishi haqida bo‘ryapti. Menimcha, qattiq bezgakdan halok bo‘lgan kishi ni qo‘rroq deyish, qanchalik aqlga sig‘masa, o‘z-o‘zini o‘ldirgan odamni ham qo‘rroqqa chiqarish, noma’quldir.

– Paradoks! Butunlay paradoksal xulosa! – xitob qildi Albert.

– Sen o‘ylaganchalik emas, – e’tiroz bildirdim men, – odam goho shunday kasallikka yo‘liqadiki, natijada u tamoman holdan toyib yoki faoliyatsiz bo‘lib qoladi, buni qayta tiklash, har qanday najotbaxsh urinish bilan ham hayotni ko‘ngildagi izga tushirish imkonи bo‘lmaydi, bu

fikrimga qo'shilarsan, endi esa, do'stim, buni ruhiy so-haga tatbiq etamiz. O'z ichki xayollari girdobida qolgan kishiga bir nazar tashla: tashqi ta'sirlar uni qanchalik ezib, xira fikrlar unda mustahkam ildiz ota boradi, nihoyat kun sayin o'sib boruvchi g'ayritabiiy bir kuch uni o'z-o'zini idora qilish qobiliyatidan mahrum qiladi va halokatga el-tadi.

Xotirjam, mulohazali do'sting baxtsiz kishi ahvolini muhokama qilishi ham, unga pand-nasihat qilishi ham befoyda. Bu xuddi o'z kuchidan bemorga zarracha ham baxsh etolmasdan, uning to'shagi yonida turgan sog'lom kishi holatiga o'xshaydi.

Albert uchun bularning barchasi umumiyl gaplar hisoblanardi. Shunda men unga, yaqindagina suvdan o'lik holda topilgan qizni eslatdim va bu qiz fojiasini qayta hikoya qildim:

– Bir xildagi kundalik ishlar, uy yumushlarining tor doirasida o'sgan, faqatgina oz-ozdan pul to'plab sotib ol-gan kiyimlarini yakshanba kunlari kiyib, dugonalari bilan shaharda sayr qilishga, katta bazmda bir ozgina raqs tu-shishga borishdan, ayniqsa, bir soat-yarim soat qo'shnisi bilan birovlarining g'iybatimi yoki oldi-qochdi gaplar haqidami berilib gap sotishdan boshqa ko'ngil ochishni bilmaydigan yoshgina qizning jo'shchin qalbida nihoyat yashirin istaklar paydo bo'la boshlaydi, erkaklarning xu-shomadlari buni yanada kuchaytiradi, ilgarigi quvonchlar endi uni qoniqtirmaydi va nihoyat, u shunday kishini uchratadiki, allaqanday ko'zga ko'rinnmas bir tuyg'u uni o'shangang tomon torta boshlaydi, uning barcha umidlari fa-qat o'shangang qaratiladi, u butun borliqni unutadi, hech nar-

sani eshitmaydi, ko‘rmaydi, sezmaydi, faqat o‘shanigina qo‘msaydi. Betayin tuyg‘uning puch lazzatidan saboq olmagan qiz, maqsadga intiladi: o‘shaniki bo‘lishni, o‘zi istagan baxtga birga yetishishni, o‘sha intilgan barcha quvonchlardan rohatlanishni istaydi. Tinimsiz va’dalar umidlariga madad beradi, behad erkalashlar undagi histuyg‘uni yanada oshiradi, butun qalbini rom etadi; u barcha shodliklardan oldindan lazzatlanib, telbarardek tentiraydi; nihoyat u bag‘rini ochib, o‘z orzulariga peshvoz chiqadi va... sevgilisi uni tashlab ketadi. Esankiragan, aqlini yo‘qotgan holda u chuqur jar yoqasida turibdi, hammayoq zulmat qo‘ynida: na biror tasalli, na biror umid nishonasi bor! Axir uni sevgilisi tashlab ketgan, uning butun hayoti o‘shanga bog‘liq edi-da! U atrofidagi dunyoni ham, yo‘qotganining o‘rnini bosishi mumkin bo‘lgan kishilarni ham ko‘rmaydi, o‘zini yakka-yolg‘iz, butunlay tashlandiq his etadi... va dahshatli ma’naviy qashshoqlikdan siqilganicha, butun iztiroblarini har tomondan bostirib kelayotgan o‘limga g‘arq qilish uchun ko‘zini chirt yumadi-da, o‘zini pastga otadi. Ko‘rdingmi, Albert, bu ko‘plarning qismati! Ayt-chi, shu ham kasallik alomati emasmi? Kishi bir-biriga qarama-qarshi kuchlar to‘sig‘idan qutulishga yo‘l topolmaydi va halokatga uchraydi. Bu voqealarni kuzatarkan: «Tentak! Sabr qilsang bo‘lardi-ku, payti keilib, ikkilanishlar yo‘qolardi, tasalli bera oladigan birorta kishi topilib qolardi, axir!»-deydigan kishini men qoralayman. Bu ham xuddi: «Tentak! Qiziqqonlik tufayli o‘lib ketdi. O‘zini qo‘lga olsa, yuragidagi tug‘yon, jo‘shqinlik bosilguncha chidasa bo‘lardi-ku: unda hamma narsa o‘z

iziga tushgan, mana hozir yashayotgan bo‘lardi!»-degan gapning o‘zginasi.

• Albertni bu misol ham unchalik qoniqtirmadi va menga aqldan ozgan bir qizni misol qilib ko‘rsatding, deb fikrimni rad etdi. Dunyoqarashi keng, ko‘pni ko‘rgan aqlli bir odam shuni ham anglab yetolmasa, bunday kishini oqlab bo‘larmishmi?

— Do‘stim! — murojaat qildim unga, — inson hamisha insondir. Odamdagи qiziqqonlik shiddatli tus olgan paytda undagi zarracha aqlning deyarli ahamiyati qolmaydi va u insonlikka xos chegaradan chiqib ketadi. Ayniqsa... bu haqda boshqa payt gaplasharmiz, — dedim-da, shlyapamni qo‘lga oldim. Oh, shu paytda yuragim to‘lib turardi!.. Bir-birimizni tushunmasdan xayrleshdik. Bu dunyoda kamdan-kam kishilar bir-birlarini tushunadilar.

5-avgust

Shu narsa aniqki, dunyoda muhabbatgina kishini aziz qiladi. Men buni Lotta misolida sezaman; meni yo‘qotish unga og‘ir bo‘lgan bo‘lardi, bolalar esa, mening har kuni kelishimgagina ko‘z tikadilar. Bugun Lottaning forte-pianosini tuzatish uchun ularnikiga bordim, lekin darhol ishga kirisholmadim, chunki bolalar ertak aytib berasiz, deb turib olishdi. Lotta ham ularning iltimoslarini bajarishimni istardi. Ularga kechki ovqatga non ulashdim. Ular nonni mendan ham xuddi Lottadan olgandek, bajon-u dil oladilar. Shundan so‘ng ularga bandi qilingan malika haqidagi sevimli ertaklarini aytib berdim. Ularning bundan olgan taassurotlaridan hayratda qolaman, ishonasanmi, o‘zim bolalardan ko‘p narsa o‘rganayapman. Ba’zan bi-

rorta voqeani o‘zimdan to‘qib aytishga to‘g‘ri keladi, agar yanagi safar buning biror joyi xayolimdan ko‘tarilib qolsa, ular darhol, avval boshqacha edi, deb qolishadi, shuning uchun endi hech bir o‘zgartirish kiritmasdan, hammasini **bir** boshdan xuddi ipga tizilgandek aytib berishga harakat qilyapman. Bundan shunday xulosaga keldimki, agar yozuvchi o‘z asarining ikkinchi nashriga badiiy jihatdan mukammal tuzatishlar kirtsada, baribir, bu, kitobga ziyon keltiradi. Kishilar ilk taassurotga ko‘proq beriladilar va har qanday haqiqatdan uzoq narsalarga ham ishona-veradilar, u miyaga chuqur o‘rnashadi; bu bilan hisoblashmaydigan odam xato qiladi.

18-avgust

Nega shunaqaykin-a, kishiga baxt keltiruvchi narsa, uning azoblariga ham yo‘l ochib beradi?

Menga shu qadar rohat bag‘ishlagan, ko‘zimga yorug‘ dunyoni bamisol jannat ko‘rsatgan tabiatga bo‘lgan ulkan va ehtirosli muhabbatim endi benihoya azobga aylangan, u xuddi berahm sharpadek, hamma joyda menga ergashib yuradi. Avvallari cho‘qqiga chiqib, daryodan tortib uzoq tepaliklargacha, butun gullayotgan vodiyni kuzatardim va tevarak-atrofdagi hamma narsa o‘sayotganini hamda hayot qaynayotganini ko‘rardim, etagidan tortib cho‘qqisigacha serviqor, qalin daraxtlar bilan qoplangan tog‘larga, ajoyib o‘rmonlar soya tashlab turgan, egri-bugri bo‘lib ketgan vodiylarga tikilardim, tinch daryo shivirlab turgan qamishlar oralab oqardi, kechki yengil shabadada ko‘kda suzayotgan oppoq bulutlar suvda aks etardi; o‘rmonni jonlantirgan qushlarning g‘ala-g‘ovuriga qulq solardim,

millionlab pashsha to‘dalari botib borayotgan quyoshning qizil shu’lasida g‘ujg‘on o‘ynashardi va oxirgi yorug‘ shu’la g‘uvillayotgan qo‘ng‘izni maysa orasidan tortib chiqarardi, atrofimdag‘i harakat va qiy-chuvlar nazarimni yerga tortardi, men turgan yalang‘och cho‘qqidan oziq oluvchi yo‘sini hamda yaydoq qumtepalikda o‘sgan butoq -bularning hammasi menga tabiatning qaynoq, muqaddas ichki dunyosini ko‘z-ko‘z qilardi; o‘shanda hamma narsa to‘lqinli qalbimdan joy olardi. Tabiatning bu to‘kin-so-chinligi ichida o‘zimni go‘yo ko‘kda his etardim, bepo-yon olamning jozibali manzaralari borlig‘imni tug‘yonga solardi. Ulkan tog‘lar meni qurshab turar, jarliklar oldimda yastanib yotar, shiddatli oqim pastga yugurar, daryolar oyog‘im ostidan oqib o‘tardi, o‘rmon va tog‘larning to-vushi eshitilib turardi; mana shu aqlga sig‘mas kuchlar ning mutanosibligi yerda yaratuvchilik rolini o‘ynardi; yer ustida va osmon ostida esa, behisob turli-tuman mavjudotlar g‘imirlashardi, hamma-hammasi xilma-xil shaklga ega. Odamlar bo‘lsa, bir joyga to‘planishib, uylariga bekinishib oladilar-da, biz butun dunyoga hukmronlik qilamiz, deb kekkayadilar! Bedavo sho‘rlik! Fikr doirang shu qadar tor bo‘lgani uchun ham hamma narsaga shunday tor nazarda qaraysan! Osmono‘par cho‘qqidan, inson oyog‘i yetmagan sahrodan tortib, noma'lum ummon qirg‘oqlarigacha Olloh taoloning ruhi kezib yuradi va yashayotgan hamda uni anglaydigan har bir zarrachadan shodlanadi... Oh, o‘sha paytlarda men boshim uzra uchib o‘tayotgan turnaning qanotlariga o‘tirib ko‘z ilg‘amas dengiz qirg‘oqlariga ketishni, abadiy barhayotlikning limmo-lim kosasidan hayot lazzatini simirishni, o‘zida va

o'zi orqali hamma narsani yaratayotgan kuchning rohatini zarracha bo'lsa-da his etishni chunonam istardimki!

Bilasanmi, qadrdonim, o'sha lahzalarni xotirlashning o'ziyoq menga huzur bag'ishlaydi. O'sha ta'rifga sig'maydigan tuyg'ularni xotirada qayta tiklash, ularni ifodalashga urinishning o'ziyoq qalbimni to'lqinlantiradi va hozirgi holatimning dahshatini yanada ko'proq sezishga undaydi.

Go'yo ko'z oldimdagi sirli parda ko'tarilgan-u keng, yorug' dunyo men uchun mutlaq ochiq lahadning tubsiz qa'ridek tuyuladi. «Bu o'sha! O'tkinchi dunyo! Hammasi yashin tezligida o'tadi, o'z hayotidagi imkoniyatlarni ishga solib ulgurmasdan to'lqinga g'arq bo'ladi. Oh! Tosh-larga urilib, halokatga uchraydi», – deb ayta olarmiding? Biror daqiqa yo'qli, seni va yaqinlaringni yemirmasin, biror daqiqa yo'qli, o'z ixtiyoriningdan tashqari bo'lsa-da, buzg'unchi bo'lmasang; kichik bir sayr ham minglab qumursqalarning hayotini quritadi, birgina qadam tashlapping sho'rlik chumolilarning mashaqqat bilan qurgan uyalarini vayronaga aylantirib, butun bir kichkina dunyoni yer bilan yakson qiladi. O, yo'q, menga ta'sir qilgan narsa favqulodda ocharchiliklar, qishloqlaringizni yuvib ketuvchi sellar, shaharlaringizni yutib yuboruvchi zilzillar emas; qalbimni o'rtagan narsa: barcha mavjud narsalarni yemirishdan o'zgaga yaramaydigan, tabiat qo'ynida yashirinib yotgan holdan toydiruvchi kuchdir. Men shu alfovza qo'rquvda tentirayman. Atrofimda yer, osmon va uning hayotbaxsh kuchi hukmron, men esa, hamma narsani yamlab o'z qa'riga tortuvchi tubsiz jarlikdan boshqa hech narsani ko'rmayman.

21-avgust

Ertalab og‘ir uyqudan ko‘z ochib, unga behudaga qo‘llarimni cho‘zaman; kechasi shirin tush ko‘rib, u bilan go‘yo chamanzorda yonma-yon o‘tirgan va qo‘llarini minglab bo‘salarga ko‘mib tashlaganimda, bekorga uni to‘shagimdan izlayman. O’sha shirin tush kayfida unga intilaman va birdaniga uyg‘onib ketaman, oh! Ezilgan yuragim ko‘z yoshlari seliga bardosh berolmay, zulmatga eltuvchi istiqbolim uchun o‘ksib-o‘ksib yig‘layman.

22-avgust

Vilhelm! Bu chinakam baxtsizlik! Mendagi jo‘shqinlik o‘mini qandaydir beqaror loqaydlik egallagan, bekor ham o‘tirolmayman, biror ish ham qilolmayman. Menda tas-virlash qobiliyati ham qolmagan, tabiatni ham his etmayman, kitoblar ko‘nglimni aynitadi. O‘z-o‘zimizdan judo bo‘ldikmi, demak, biz uchun hamma narsa yo‘qqa chiqadi. Ishonasanmi, ertangi kunimda biror maqsad, intilish va umid bilan uyqudan uyg‘onish niyatida ba’zan hatto mardikor bo‘lishni ham istab qolaman. Quloqlarigacha qog‘ozga ko‘milib ishlab o‘tirgan Albertga ko‘pincha havasim keladi. Agar uning o‘rnida bo‘lsam, ajoyib bo‘lardi, deya faraz ham qilib qo‘yaman. Uqtirganingdek, elchixonada menga rad qilmasliklari mumkin bo‘lg‘ vazifani egallah maqsadida senga va vazirga yozishga bir necha marta harakat qildim. O‘zim ham rad qilmasliklariga ishonaman: vazir anch‘ dan buyon menga nisbatan iltifotli, bir necha marta, biror ishga joylash, deb maslahat ham berdi. Bir qancha vaqt xayolim shu bilan band bo‘ladi, keyin esa, yaxshilab o‘ylayman-da, ozodlikning qadriga yetmay, o‘z

ixtiyori bilan o‘zini egarlashga hamda ezib minishlariga yo‘l qo‘yib bergen ot haqidagi masal yodimga tushadi... Nima qilishim kerakligini o‘zim ham bilmayman... Qimmatli do‘stim! Ahvolimni o‘zgartirishga bo‘lgan intilishim hamisha menga ergashib yuradigan og‘ir bir ichki notinchlikdir, balki?

28-avgust

Mening dardimga shifo topib bo‘lganida edi, shubhasiz, bu mana shu odamlarning qo‘lidan kelardi. Bugun tug‘ilgan kunim, azonlab Albertdan bitta tuguncha oldim. Uni ochdim-u dastavval, biz ilk marta tanishganimizda Lottaning ko‘ylagida ko‘rganim va undan bir necha marta iltimos qilganim pushtirang bantlardan biriga ko‘zim tushdi. Buning yonida yana mittigina ikkita kitobcha bor edi, bulardan biri Homerning kichkina Vetshtayn nashri bo‘lib, sayr paytida haddan ziyod katta Ernesti nashrini ko‘tarib yurmaslik uchun uni anchadan buyon qidirib yurgan edim. Ko‘ryapsanmi, ular mening istaklarimni sezadilar va kichkina bo‘lsa-da, do‘stona iltifot ko‘rsatishga intiladilar. Bular, dabdabali sovg‘alari bilan kekkayib, bizni yerga uradigan kishilarning tortiqlaridan ming marta afzalroqdir. Men bu bantni tinimsiz o‘paman va o‘sha qaytib kelmas, qisqa, baxtli kunlar baxsh etgan rohatni xotirlab, shundan ruhlanaman. Shunaqa gaplar, Vilhelm, men nolimayman; hayot gullari faqat xayoldangina iborat! Ularning qanchasi iz qoldirmasdan yo‘qolib ketadi! Faqat ozgina qismi hosil beradi va bu hosilning ham juda ozi yetiladi! Shuning o‘zi ham yetarli bo‘ladi, ammo... do‘stim! Nahotki biz bu mevalarni nazardan qochiramiz,

pisand qilmaymiz, ularni tatib ko‘rmasdan, chirib ketishi-ga yo‘l qo‘yamiz!

Xayr! Hozir go‘zal yoz. Ko‘pincha Lottaning bog‘iga chiqaman-da, uzun yog‘och bilan tepadagi pishgan nok-larni qoqaman. Lotta bo‘lsa, pastda turib ularni ilib oladi.

30-avgust

Telba emasmanmi men sho‘rpeshona? O‘z-o‘zimni aldamayapmanmi? Bunchalik jilovlab bo‘lmas hadsiz intizorlikning nima hojati bor? Men faqat ungagina to-pinaman; xayolimda faqat o‘shaning qiyofasi kezadi, olamdagи hamma narsani faqat o‘sha bilan munsabatda ko‘raman. U bilan qanchalab baxtli onlarni kechiryap-man, lekin baribir, undan ajralishim kerak!.. Oh, Vilhelm! Qalbim meni gohida qayoqlarga eltmaydi!

Undagi chiroy, latofatdan, serma’no so‘zlaridan ro-hatlanib, yonida ikki-uch soatlab o‘tirsam, his-tuyg‘ularim borgan sari kuchayib, ko‘z oldim qorong‘ilashadi, bir narsa xuddi yashirin qotildek tomog‘imdan bo‘g‘adi, yu-ragim dukullab, tuyg‘ularga yo‘l ochishga urinadi va iz-tirobimni battar oshiradi... Vilhelm, ko‘pincha dunyoda bor-yo‘qligimni ham unutib qo‘yaman... ba’zan yurak si-qilishi kuchayib ketsa va Lotta birozgina bo‘lsa-da, uning qo‘llari ustiga egilib, g‘am-hasratlarimni ko‘z yoshim bi-lan yuvishimni istamasa, unda bosh olib chiqib ketaman! Dalalarda tentirayman; tik tog‘ning tepasiga tirmashib chiqish, butoqlarga urilib, tikonlarga shilinib, chakalak-zorlar oralab kezish unda eng oliy shodligim bo‘ladi. Shundan so‘nggina biroz orom topaman. Birozgina! Gohida esa, toliqish va tashnalikdan yo‘lda yiqilib qolaman, goho yarim tunda to‘lin oy nurida qalin o‘rmondagi qiy-

shiq butoqda o‘tirib shilingan oyoqlarimning hordig‘ini yozaman va tong otarda holdan toyib mudrab ketaman! Oh, Vilhelm! Yakka-yu yolg‘iz hujra, qildan to‘qilgan janda va kishannigina qo‘msaydi qalbim. Xayr! Bu iztiroblarning intihosi o‘limdan boshqa narsaga eltadi, deb o‘ylamayman.

3-sentyabr

Men ketishim kerak! Qarorimni quvvatlaganining uchun rahmat senga, Vilhelm! Ikki haftadan buyon, huzuridan yiroqlashishim kerak, degan fikr bilan tentirab yuribman. Ketishim kerak. U yana shaharlik bir dugonasinikida mehmondorchilikda. Albert esa... qisqasi... men ketishim kerak!

10-sentyabr

Bu shunday kecha bo‘ldiki, Vilhelm! Endi men hammasiga chidayolaman. Uni ortiq hech qachon ko‘rmayman! Oh do‘stim, sening ko‘ksingga o‘zimni otib, yuragimni o‘rtayotgan hislarni alam va marjon-marjon ko‘z yoshlarim bilan ifodalab berolsam edi! Hozir bu yerda bo‘g‘ilib, qalb tug‘yonimni bosishga urinib o‘tiribman va tong otishini kutyapman, otlarni erta tongda keltirishadi.

Oh, u bo‘lsa, men bilan boshqa ko‘risholmasligini xayoliga ham keltirmay, tinchgina uxlayapti. Ikki soatlik suhbatda o‘z niyatimni sezdirmasdan undan ajralishga o‘zimda kuch topdim. Yo Tangrim, yana qanday suhbat degin!

Albert menga, kechki ovqatdan so‘ng Lotta bilan bog‘ga sayrga chiqishini aytdi. Men esa, ulkan kashtan

daraxtlari ostidagi ayvonda turib, oxirgi marta sevimli vodiy, tinch daryo ustida botayotgan quyoshni kuzatardim. Ana shu go'zal manzarani tomosha qilib, necha martalab men u bilan turganman, endi esa... o'zim uchun aziz bo'lib qolgan bu xiyobon bo'ylab u yoqdan-bu yoqqa yuraboshladim. Lotta bilan tanishmasimdan oldin ham qandaydir sirli bir kuch meni shu go'shaga yetaklardi, uchrashuvimizning dastlabki kunlaridan oq bu joyga har ikkimizda ham ixlos zo'rлигini sezganimizda qanchalik sevingan edik, bu chindan ham san'atkor qo'li bilan yaratilgan samoviy go'shalardan biri edi.

Oldin kashtan daraxtlari orasida keng maydon ko'z oldingda namoyon bo'ladi. Aytgancha, bu haqda senga necha martalab yozgandim shekilli: baland eman daraxtlari bir-biriga chirmashib ketgan, yondosh chakalakzor ta'sirida xiyobon hamisha qop-qorong'i bo'ladi va u har tomondan o'ralgan burchakka borib taqaladi, bu burchakda mudom dahshatli tanholik hukm suradi. Bir kuni yozda bu yerga ilk marta kelganimizda, meni qanday hayajon qamrab olgani hozir ham yodimda: bu go'sha qanchalab rohat va iztiroblar makoni bo'lishini o'shanda o'zimcha yaqqol tasavvur qilgandim.

Yarim soatlar chamasi visol-u hijronning azobli va shirin xayollariga berilib turganimda, ularning ayvonga ko'tarilayotganlarini eshitdim. Men ularning istiqboliqa yugurdim, titragancha Lottaning qo'lidan tutdimda, uni lablarimga tegizdim. Butazor tepalik ortidan oy ko'tarilganda biz endigina yuqoriga chiqq'un edik; u yoq-bu yoqdan gaplashib qorong'i ayvonga yetganimizni sezmay qoldik. Lotta ichkariga kirib o'rindiqqa o'tirdi.

Albert uning yonidan joy oldi, men ham; lekin ichki hajajon ta'sirida o'tira olmadim, turib ketdim, ularning oldida tik turdim, u yoq-bu yoqqa yurdim, qayta o'tirdim: bu dahshatli bir holat edi. Lotta qora qayinzor oxiridagi fusunkor oy nuriga cho'mgan ayvonga diqqatimizni jalg etdi. G'oyat latif manzara! Biz bu yerda tim qorong'ilikda turganimiz uchun u joy yanada jozibaliroq ko'rinaldi. Biz jim o'tirardik, birozdan keyin Lotta gap boshladi:

— Agar oydinda sayr qilsam hamisha marhumlar xotirasi ko'z oldimda gavdalanadi-da, kelajak va o'lim haqidagi hislar meni qamrab oladi. Biz yo'q bo'lib ketmaymiz, — davom etdi u yoqimli ovoz bilan, — Verter, biz yana qayta uchrashamizmikan? Bir-birimizni taniyolamizmi? Siz qanday o'ylaysiz? Nima deysiz shunga?

— Lotta, — dedim unga qo'llarimni uzatib, ko'zlarim jiqla yoshga to'ldi, — biz, albatta, uchrashamiz! Bu yerda ham, u yoqda ham ko'rishamiz. Vilhelm! Men ortiq gapirolmadim, qalbimni ayriliq xayoli o'rtayotganda, uning shu haqda so'rashi shartmidi?

— Mehribon marhumlar bilarmikanlar, — yana gap boshladi u, — xushvaqt paytlarimizda ularni ehtirom bilan xotirlashimizni sezarmikanlar. O! Sokin kechalarda uning bolalari, o'zimning bolalarim o'rtasida o'tirganimda va ular xuddi uni o'rab olgandek atrofimga to'planishganda, onamning siymosi ko'z oldimga kelardi. Sog'inch yoshlar bilan osmonga ko'z tikib, uning bir zumgina bu yoqqa nazar tashlashini va o'limi oldidan, bolalariga ona bo'lish uchun bergen so'zim ustidan chiqayotganimni birgina marta ko'rishini istardim. Unga qanchalik iltijo qilaman: «Mehribonim, agar sening o'rningni to'liq bosolmayotgan

bo‘lsam, kechir! Oh! Axir men qo‘limdan kelgan hamma narsani qilyapman-ku! Ularni kiyintiryapman, yedirib-ichiryapman, eng muhimi, sevib erkalayapman! Bizdagi totuvlikni ko‘rsang eding, munis onaginam! Unda sen, o‘liming oldidan bolalaring baxti uchun ko‘z yoshi to‘kib topinganing o‘sha yakka-yu yagona Allohga ming qatla shukur qilgan bo‘larding!».

U ana shularni aytdi! Oh, Vilhelm, kim ham uning gaplarini takrorlay olardi! Sovuq, o‘lik harflar bu ruhning ilohiy qudratini qanday ifodalab bera olsin!

Albert mehribonlik bilan uning gapini bo‘ldi:

– Bunday qilib o‘zingizni qiynamang, azizim Lotta, bilaman, siz bunaqa tuyg‘ularga tez berilasiz, lekin iltimos, keragi yo‘q...

– Oh, Albert, – dedi u, – otam safarda bo‘lgan paytlarda bolalarni uxlatib, uchalamiz yumaloq stol atrofida birga o‘tkazgan kechalarni, bilaman, unutmaysan. Sen ko‘pincha birorta qiziq kitob keltirarding, biroq kamdan-kam uni o‘qirding, chunki o‘shanday go‘zal, muloym, quvnoq, ishlab tolmas, sofdil ayol bilan suhbatlashish dunyoda hamma narsadan ortiq edi-da! Kechalari tiz cho‘kib, meni ham unga o‘xshatgin, deb iltijo bilan to‘kkan ko‘z yoshlarimni Xudo inobatga oldi.

– Lotta! – deya qichqirdim va uning oldida tiz cho‘kib, qo‘llarini behisob ko‘z yoshlarimla yuvdim. – Lotta! Xudo marhamati va validangiz ruhi hamisha sizning tepochizda hozir!

– Siz uni bilsangiz edi! – dedi Lotta mening qo‘llarimni qisar ekan, – u siz bilan tanishishga loyiq inson edi!

Hayajondan nafasim qisilayozdi. Hali hozirgacha o‘zim haqimda bunchalik yuksak, behad manzur maqtov eshitmagandim. U so‘zida davom etdi: – Mana shunday ayol, hayotining gullagan davrida olamni tark etdi, kenjatoyi hali olti oylik ham bo‘lgani yo‘q edi. Kasali uzoq cho‘zilmadi, u tinch va xotirjam edi. Faqat bolalari, ayniqsa, kenjasি uchun kuyinardi. Ahvoli og‘irlashgach, menga: «Bolalarni yonimga keltir!» – dedi. Bolalarni olib kirganimda, ular onam to‘sagini o‘rab olishdi, kattalarri g‘amdan o‘zini yo‘qotib qo‘ygan, maydalari esa, hech narsani tushunishmasdi. Onam qo‘llarini yuqori ko‘tarib, o‘shalar haqqi Xudoga yolbordi va har birini o‘pgach, ularni chiqarib yubordi-da, menga vasiyat qildi:

– Ularga ona bo‘l! – Men unga qo‘limni uzatdim, – Qizim! – dedi u, - sen ularga onalik vujuding va onalik e’tiboringni baxshida qil. Buning nima ekanini his etis hingni, sening qaynoq ko‘z yoshlaringdanoq bir necha marta sezgandim. Ukalaring uchun ona, otang uchun esa, sadoqatli va mehribon ayol o‘rnini bos! Unga tasalli ber!

Keyin otamni so‘radi. Otam esa cheksiz alamini bizdan yashirish maqsadida uydan chiqib ketgandi, batamom o‘zini yo‘qotib qo‘ygan edi. Albert, sen o‘shanda xonada eding. Onajonim kimningdir yurganini sezdi-da, bu sen ekanligingni bilgach, yoniga chaqirdi. Keyin ikkimizga tinch, xotirjam, ochiq chehra bilan, sizlar birgalikda baxtli bo‘lasizlar, degandek nazar tashladi.

Albert uni bag‘riga bosib o‘parkan, xitob qildi:

– Biz baxtlimiz! Baxtli bo‘lamiz!

Hatto hamisha xotirjam Albert ham o‘zini tutolmay qoldi. Men bo‘lsam, o‘zimni tamoman yo‘qotgan edim.

— Verter! — murojaat qildi u menga, — qarang, shunday ayol dunyodan ko‘z yumsa-ya! E, xudoyim! Hech aqlim yetmaydi, qanday qilib odam hayotdagi eng sevimli kishisini olib ketishlariga chidab tura oladi-ya. Hech kim buni bolalarchalik chuqur his eta olmaydi. Ular, onamizni yovuz odamlar olib ketishdi, deb ancha vaqtgacha bekorga zorlanib yurishmadi, axir!

U o‘rnidan turdi. Men bo‘lsam, hayajon va iztirobda joyimdan jilmasdan, uning qo‘lini tutib turardim.

— Ketaylik, — dedi u, — allamahal bo‘ldi. — Qo‘lini tortib olmoqchi edi, men uni qattiqroq qisdim.

— Biz qayta ko‘rishamiz, — dedim men, — biz topishamiz. Har qanday qiyofada ham bir-birimizni taniymiz. Men o‘z ixtiyorim bilan ketyapman, — davom etdim, — har holda «umrbod ketyapman» deydigan bo‘lsam, bunga kuchim yetmasdi, deb o‘ylayman.

Xayr, Lotta! Xayr, Albert! Biz yana ko‘rishamiz.

— Balki ertaga ko‘risharmiz, — dedi Lotta hazillashib.

— Bu «ertaga»ning nima ekanligini men bilaman! Oh! — U qo‘lini tortib olayotib sezsa edi... Ular oy nuri-ga cho‘mgan xiyobon bo‘ylab ketishdi. Ularning ketidan kuzatib turdim-da, keyin o‘zimni maysalar ustiga tashlab yum-yum yig‘ladim. O‘rnimdan otilib turdim-da, ayvon chetiga bordim, pastda, baland qayin daraxtlari soyasidagi bog‘ eshigi oldida oq harir ko‘ylagining hilpiraganiga ko‘zim tushdi; o‘sha yoqqqa qo‘llarimni cho‘zdim, ug‘oyib bo‘ldi.

IKKINCHI KITOB

20-oktabr, 1771-yil

Bu yerga kecha yetib keldik. Elchining tobi yo‘qroq, bir necha kun ishga chiqmasa kerak. U bunchalik ichiqora bo‘lma ganda edi, ish joyida bo‘lardi. Qismatim menga og‘ir sinovlar hozirlayotganini sezyapman, sezib turibman. Ammo, dadil bo‘lish kerak! Beparvoroq bo‘lsang, hamma narsa yengil ko‘chadi! Beparvo bo‘lish! Mening qalamim shunaqa so‘zлarni yozayotganiga kulgim qistaydi. Oh, birozgina beparvo bo‘la olsaydim, odamlarning eng baxtlisi hisoblanardim. Nima? Boshqalar o‘zlarining arzimas kuchlari va qobiliyatlarini namoyish qilib oldimda vazminlik bilan kekkayishib yurishsa-yu, men o‘z kuchim va iste’dodimdan ikkilanib o‘tiraymi? Qudratli Tangrim! Menga nisbatan shu qadar saxiylik qilganingda, nega shuning yarmi o‘rniga befarqlik va o‘z-o‘zimga ishonch ato etmading?

Sabr qilish kerak, sabr! Hammasi o‘z iziga tushadi. Bu xususda sen tamoman haqsan, azizim. Butun kunlarimni odamlar orasida o‘tkazib, ularning qay tarzda hayot kechirayotganlariga razm sola boshlaganimdan buyon o‘z ahvolimga ancha ko‘nikib qoldim. O‘zimizni boshqa narsalarga, boshqa hamma narsalarni o‘zimizga qiyoslaymiz, chunki biz shunday yaratilganmiz. G‘am-u shodlik ham

biz munosabatda bo‘ladigan narsalarga bog‘liq, bunda eng xavfisi yolg‘izlikdir. Poeziyaning xayoliy obrazlariidan oziq olgan, tabiatan yuksaklikka intiluvchi tasavvurimizda shunday kishilar qiyofasi yaratilganki, ular bizdan go‘yo yuqori turadi, o‘zimizdan boshqa hamma narsa bizga jozibaliroq tuyuladi va har qanday boshqa odamni o‘zimizdan ko‘ra yetukroq deb o‘ylaymiz. Bu mutlaqo tabiiydir. O‘zimizda ko‘p xislatlar yetishmayotganini har qadamda his etamiz, ularni o‘zga kishilarda ko‘ramiz, o‘zimizda mavjud fazilatlarni ham unga yopishtirib, yana buning ustiga uni ruhan tinch, beg‘am, deb o‘ylaymiz. Shunday qilib, biz xayolan yaratgan baxtli inson tayyor. Aksincha, gohida ikkilanib, qudratimizga ishonib-ishonmay zo‘rg‘a oldinga siljisak ham, bor kuchini ishga solib, jadal harakat qilganlardan ko‘ra, yiqilib-chalishib bo‘lsada, ilgariroq ketganimizni sezamiz, shunda boshqalarga yetib, hatto o‘zib ketib, o‘zingga bo‘lgan haqiqiy ishonchni his etasan kishi.

26-noyabr

Har qalay bu yerga ko‘nika boshladim. Eng muhimi, ish ko‘p. Bundan tashqari, turli xulq-atvorli, har xil toifa-dagi kishilar bilan aralashib, shular bilan ovunib yurib-man. Men graf K... bilan tanishdim, borgan sari unga bo‘lgan hurmatim oshyapti. U ulkan va teran aql egasi, lekin bu bilan kekkaymaydigan, fikri keng kishi. Uning munosabatlarida odamoxunlik va oljanoblik hissi biram balqib turadiki! Xizmat yuzasidan berilgan topshiriqni bajarishda undan yordam so‘raganimda, u mendan maslahatini ayamadi. Biz bir-birimizni tushunishimizni va

menden o'zga biror kishi bilan bunday muomala qilib bo'lmaslikni ilk so'zlaridayoq uqtirdi. O'z navbatida, men ham uning menga nisbatan ochiqko'ngilligini tasvirlash-dan ojizman. Rost gap, senga o'z bag'rini ochgan buyuk qalbning issiq mehrini tuyishdan ham ortiqroq shodlik dunyoda bo'lmasa kerak.

24-dekabr

Elchi jonimdan to'yg'azib yubordi, shunday bo'lishini avvaldan bilgandim. U uchchiga chiqqan ahmoq, buna-qasi hali dunyoga kelmagan. U xuddi ezma xotinlardek qildan qiyiq axtaradi. Hamisha o'z-o'zidan norozi, buning ustiga biror marta ham uning ko'nglini topolmaysan. Menga oson bo'lyapti: yozuvlar qanday turgan bo'lsa, shundoqligicha ko'chiryapman. Ba'zan u qog'ozni qaytarib: «Har holda durust-u shunday bo'lsayam yana bir ko'rib chiqing, yanayam mosroq so'z yoki to'g'riroq iboralar topish mumkin bo'lar», deyishdan ham toymaydi. Shunda qonim qaynab ketadi. Hatto birorta bog'lovchi ham tushib qolmasligi kerak. Gohida bilmasdan biror so'zning o'rnini almashtirib qo'ysam, jon-poni chiqib ketadi. Jumlalar hamma vaqt aniq bir taxlitda tuzilishi lozim, aks holda u hech narsa tushunmaydi. Bunday odam bilan ishlashning turgan-bitgani azob.

Mening birdan-bir yupanchim – graf K... bilan do'stligimdir. Yaqinda u elchining injiqligi va lanjligidan norozi ekanini ochiq-oydin aytdi.

– Bundaylar o'zlarini ham, o'zgalarni ham qiynashadi, lekin dovondan oshib o'tishga majbur sayyoohdek, sharoitga ko'nikishga majbursan, kishi, – dedi u, – ana shu

dovon bo‘lmasa, yo‘l qulayroq va qisqaroq bo‘lardi-yu, lekin o‘sha dovon bor, demak, undan oshib o‘tish shart.

Grafning menga iltifot ko‘rsatishini chol sezadi, bu uning g‘ashini keltiradi. U mening huzurimda grafni g‘iybat qilish uchun har qanday qulay imkoniyatdan foy-dalanadi. Tabiiyki, men bo‘sh kelmayman, bundan ahvol tobora og‘irlashadi. Ayniqsa, kecha g‘azabim qaynadi, chunki u menga ham til tegizib o‘tdi: dunyoviy taomil-larga graf juda usta, ishda qo‘li ancha epchil, qadami ham xiyla dadil emishu, lekin boshqa barcha adabiyotchilar singari chuqur bilimdonlikda ajralib turmasmish. Buning ustiga, yuz ifodasi go‘yo: «Qalay, bopladimmi?», deb turardi. Baribir, bu menga zarracha ham ta’sir qilmadi. Men shunday o‘ylaydigan va o‘zlarini shu taxlit tutadigan odamlardan nafratlanaman. Graf, o‘z xislatlari bilan ham, bilimi bilan ham har qanday hurmatga loyiq kishidir, dedim.

— O‘z bilimini kengaytirib, uni umum manfaatiga bag‘ishlashga va kundalik hayotda shu darajada faol ishtirok etish baxtiga muyassar bo‘lgan kishilarni kamdan-kam uchratganman, — dedim men. Achigan kalla uchun bu gaplar xitoy devori edi; yana qandaydir ortiqcha safsata tufayli butunlay xunobim oshmasin deb, tezroq chiqib ketishga shoshildim.

Ishla, ishla, deb boshimni aylantiraverib, meni shu kishanga bog‘lagan sizlar aybdorsizlar. Ish emish! Kartosha ekib, hosilini shaharga eltib sotadigan odam mendan ko‘ra ko‘proq foyda topadi. Agar gapim yolg‘on bo‘lsa, o‘zim mixlanib qolgan mana shu do‘zaxda yana o‘n yil ishlashga tayyorman. Atrofimda g‘imirlashib yotgan jo-

hil odamlar ichida zerikishni, g‘aroyib qashshoqlikni aytmaysanmi?! Ulardagi shaxsiyatparastlik, bir-biridan ozgina bo‘lsa-da, oldinga ketish uchun hushyor turishlar, kuzatishlar – bu ochiq holdagi o‘ta pastkash, o‘ta rasvo intilish. Masalan, bir ayol, duch kelgan odamga o‘zining mulki va shuhrati haqida maqtanadi, har qanday odam ham: «Voy tentak! O‘zining arzimas shuhrati va mulki haqida og‘iz ko‘pirtirib yuripti!» deb o‘ylashi mumkin. Hammadan ayanchlisi shuki, bu ayol – mahalliy boshqarma mirzasining qizi. Xudo haqqi, tuban bir holda o‘zini sharmanda qilishdan tortinmaydigan kishilarga hech tu-shuna olmayman.

Rostini aytsam, azizim, boshqalarni ham o‘z tarozi-sida o‘lhash nodonlik ekanligiga kundan-kun ishonchim komil bo‘lyapti, o‘z tashvishlarim boshimdan oshib, qal-bim chunonam qaynab toshyaptiki, agar boshqalar meni tinch qo‘yishsa, ularga til ham tegizmasdim.

Yaramas ijtimoiy munosabatlar, ayniqsa, jig‘imga tegyapti. Tabaqalarni farqlash qanchalik muhimligini, o‘zimga ham bu qanchalik foydali ekanligini boshqalar-dan kam bilmayman. Lekin birozgina quvonch, dunyoda zarracha baxtdan bahramand bo‘lganimda, bu tafovut yo‘limga g‘ov bo‘lmasa bo‘lgani. Yaqinda sayr pa-ytida, shunday alg‘ov-dalg‘ov hayotda ko‘p fazilatlarni o‘zida mujassamlashtira olgan qiz – froylayn fon B... bilan tanishdim. Suhbat davomida bir-birimizga ma’qul bo‘lib qoldik, xayrlasharkanmiz, unikiga borishga ijozat so‘radim. U shunchalik ochiq ko‘ngillik bilan marhamat bildirdiki, boradigan vaqt bo‘lguncha toqatim toq bo‘ldi. U bu yerlik emas, xolasinikiga mehmondorchi-

likka kelgan. Kampir ko'rinishdan menga yoqmadi. Men qo'limdan kelgancha unga hurmat-e'tibor ko'rsatdim. Suhbat davomida iloji boricha o'shangang murojaat qildim. Birozdan keyin shu narsa ayon bo'ldiki (bunga keyinroq qiz ham iqror bo'ldi): keksaligida bir necha aslzoda avlodlaridan o'zga na bir tayanchga, na fahm-u farosatga va na ko'zga ko'rinarli mulkka ega bo'lgan, o'z ijtimoiy mavqeい pardasiga o'ralib qolgan sevimli xolasi, aslzodalar tabaqasiga mansubligini pesh qilib kekkayishdan boshqa huzurni bilmaydigan banda ekan.

Aytishlaricha, u yoshligida juda go'zal bo'lgan va dunyoni kuydirgan, o'z mag'rurligi bilan qanchalab sho'rlik yigitlarga azob bergen, hayotining gullagan davrida esa, arzimas daromadga qanoat qilib, u bilan umr kechirgan va dunyodan o'tgan keksa ofitserga butunlay sodiq bo'lib qolgan. Endi bo'lsa, beva qolgan chog'ida, bordi-yu, suyukli jiyani bo'limganida, uning yolg'izligiga hech bir kishi qayg'urmagan bo'lardi.

8-yanvar, 1772-yil

Rasmiyatichilikka mukkasidan ketgan, yillar davomida boshqalardan bir pog'ona yuqori ko'tarilishdan o'zga o'yfikrlari va intilishlari bo'limgan odamlarni kim deb hisob-lasa bo'ladi-a? Ularning bundan boshqa ishlari yo'q, deb o'ylash mumkin: aksincha, ishlari qalashib yotibdi, xuddi mana shunday tuban, yaramas odatlar muhim ishlarni bajarish istagiga xalaqit beradi. O'tgan hafta chang'i sayrida janjal chiqib, butun xursandchilik yelga uchdi.

Mavqening mutlaqo ahamiyati yo'qligini, yuqori

maqveni egallagan kishi kamdan-kam asosiy rolni o‘ynay olishini bu ahmoqlar nega tushunmaydilar-a? Vazirning yo‘l ko‘rsatishi bilan ish yuritadigan qিollar, kotibaning izmidan chiqmaydigan vazirlar ozmi?! Unda kimni birinchi deb hisoblash kerak? Menimcha, boshqalarni pisand qilmaydigan, butun kuch va qobiliyatlarini o‘z rejalarini amalga oshirishga sarflash uchun yetarli qudrat hamda ayyorlikka ega bo‘lgan kishinigina birinchi deb hisoblasa bo‘ladi.

20-yanvar

Azizim Lotta, men Sizga qattiq yomg‘irdan yashirinib turgan mana shu joyim, ya’ni dehqonlarning karvonsa-royidan yozishga majburman. G‘amgin shaharcha D... da yot, qalbimga tamoman yot, begona odamlar orasida tentiray boshlaganimdan buyon, biror marta, biror daqiqa ham Sizga xat yozishga hafsalan qilganim yo‘q, ammo derazachasiga qor va do‘l tinimsiz urilayotgan mana shu tanho go‘sada, odamlardan yiroqda dastlabki xayolim Siz bo‘ldingiz. Bu yerga kirganimdan oq Sizning qiyofangiz ko‘z o‘ngimda gavdalandi. Oh, Lotta! Bu shunday muqaddas, shunday issiq tuyg‘uki! Marhamatli Tangrim! Shuncha muddat davomida ilk baxtli dam shu bo‘lsa kerak!

Malagim, bu parishonxotirlik girdobida meni bir ko‘rsangiz edi! Qalbim go‘yo muzga aylangan! Yurakni hayajonga soluvchi na biror lahza, na biror lazzatli on bor! Hech narsa! Hech narsa yo‘q! Go‘yoki qo‘g‘irchoq teatrida o‘tirgandekman-u ko‘z oldimda odamchalar va otchallarning qay taxlit harakat qilishlarini kuzataman, bular

ko‘zimga ko‘rinmayaptimi, deb ko‘pincha o‘z-o‘zimdan so‘rab qo‘yaman. Men ham go‘yo shu teatrda o‘ynayman, to‘g‘rirog‘i, meni qo‘g‘irchoqdek o‘ynatadilar, ba’zan qo‘shnimning yog‘och qo‘lidan tutaman va dahshat ichida ortga chekinaman.

Quyosh chiqishini kuzatishni kechqurunoq mo‘ljallab qo‘yaman, biroq tongda to‘sakdan qo‘zg‘ala olmayman. Kunduzi esa, oydinda sayr qilib rohatlanishni ko‘nglimga tugib qo‘yaman, qani endi xonamdan chiqolsam. Nega uqlashga yotaman, nega o‘rnimdan turaman – buni o‘zim ham bilmayman. Menga hayotiy quvvat bag‘ishlaydigan manba endi yo‘q. Tunlari ko‘zimdan uyquni olib qocharidan, subhidamda uyg‘otadigan nur endi g‘oyib bo‘lgan.

Bu yerda ayollarga xos xislatlarni o‘zida saqlab qolgan birdan-bir kimsa froylyn fon B...dir. Uni biroz Sizga taqqoslash mumkin, suyukligim Lotta, lekin Sizga teng keladigan zot bormikan! «Oh-ho, maqtashga ham usta bo‘lib qolibsiz!» deyarsiz balki. Bunga qisman haqlisiz ham. Anchadan beri juda sermulozamat bo‘lib qolganman. Chunki boshqacha bo‘lолmayman, ko‘p hazillashaman, xonimlarning fikricha, hech kim menchalik qoyil latib maqtayolmasmish. («Aldayolmasmish ham», deya qo‘shimcha qilarsiz, ehtimol, busiz ish yurishadimi, tus hunyapsizmi?) Men B... ismli qiz haqida gapirmoqchi edim. Uning moviy ko‘zlarida qalb tuyg‘ulari jilolanib turadi. Yuqori tabaqaga mansubligidan zarracha ham quvonmaydi – bu uni qiynaydi, xolos. U ana shu tor qafas dan qutulishni istaydi va biz soatlab osoyishta qishloq hayoti haqida xayol qilamiz, oh! Siz haqingizda ham! U Sizni qanchalar ko‘klarga ko‘tarishga majbur, yo‘q, yo‘q,

majbur emas, u o‘z xohishi bilan shunday qiladi! Siz ha-qingizda so‘zlasam-chi, jon qulog‘i bilan tinglaydi. Sizni yaxshi ko‘radi...

Oh, saranjom-sarishta xonada Sizning qarshingizda o‘tirishni, sevimli do‘mboqchalarimizning atrofimizda qiy-chuv ko‘tarib o‘ynashlarini, Sizningcha, agar ular to‘polonni haddan oshirib yuborishsa, vahimali ertaklar aytib, tinchlantirib qo‘yishni biram istardimki!

Kumush qor qoplab yotgan vodiy ustida quyosh jimir-lab botib boryapti, bo‘ron o‘tib ketdi, men esa... yana o‘z qafasimga qaytishim kerak...

Xayr! Albert yoningizdam? Xo‘s, qanday? Bu savolim uchun Xudoning o‘zi kechirsin!

8-fevral

Bir haftadan buyon havo aynigan, men bo‘lsam bun-dan shodman. Negaki, shu yerga kelganimdan beri biror marta ham kayfim chog‘ bo‘lmadi, kimdir rasvo qilmagan, zaharlamagan biror kun yo‘q. Mana endi yomg‘ir shar-ros quyib, goh bo‘ron quturib, yer goh muzlab, goh erib yotganda, ko‘chadan ko‘ra uyda o‘tirish yaxshiroq-ku, axir, deb o‘ylayman-da, yengil tortib ketaman. Agar ertalab quyosh charaqlab, ochiq kundan darak bersa, mana, odamlar bir-birlaridan qizg‘anadigan tag‘in bir xudo mar-hamati! – deb xitob qilishdan o‘zimni tiyolmayman. Ular salomatlikni ham, yaxshi nomni ham, quvonch va oso-yishtalikni ham bir-birlaridan qizg‘anishadi! Ko‘pincha nodonlik, tushunmaslik va kaltabinlikdan shunday qili-shadi, gaplariga quloq solsangiz, durustgina kishilarga

o'xshashadi. Ichak-chavoqlarini tilka-pora qilmasliklari uchun gohida ularga tiz cho'kib yalingim keladi.

17-fevral

Elchim ikkimiz bir-birimizga ortiq toqat qilolmaymiz, deb qo'rqaman. U o'ta yaramas odam. Uning ishlash, rahbarlik qilish usuli shunchalik kulgiliki, fikriga qarshi gapirishdan o'zimni tutolmayman. Ko'pincha ishni o'z usulimcha, o'z fikrimdan chiqarib bajaraman, tabiiyki, bu unga hecham yoqmaydi. Ish shungacha borib yetdiki, u ustimdan saroyga arz qilgan va vazir menga biroz bo'lсада, har holda tanbeh berdi, men ishdan bo'shash haqida ariza berishga shaylanib turganimda, vazirdan shaxsiy xat oldim, bu shunday maktub ediki, undagi buyuk donolik va samimiyat oldida bosh egishdan o'zga ilojim qolmadi. Behad ta'sirchanligim uchun u meni qanchalik koyigan va meni foydali intilish, boshqalarga ta'sir o'tkazish va muhim ishlarga aralashish haqidagi chegaradan ortiq fikrlarimga yoshlarga xos dadillik sifatida qanchalik ahamiyat bergen, shu bilan birga, ularni butunlay toptab tashlamasdan, balki biroz yumshatishga hamda ularni chinakam ro'yobga chiqa oladigan va kishilarga foya keltira oladigan yo'lga burishga harakat qilgan! Bir hafta davomida bundan ruhim tetiklandi hamda o'zimni qo'lga oldim.

Ma'naviy sokinlik va o'z-o'zidan qoniqish zap ajoyib narsa-da! Bu boylik qanchalik qimmatbaho va go'zal bo'lgani bilan shunchalik mo'rt bo'lмаганida edi!

20-fevral

Xudo yarlaqasin sizlarni, azizlarim, men mahrum etilgan barcha yaxshi kunlarni sizlarga ato etsin! Meni

aldaganing uchun rahmat senga, Albert: men sizlarning to‘ylaringiz haqida xabar kelishini kutdim va xuddi shu kuni Lottaning siluetini devordan tantanali tarzda olib, uni boshqa qog‘ozlar orasiga yashirib qo‘ymoqchi edim. Endi sizlar er-xotinsizlar, uning silueti esa, haliyam osig‘liq turibdi! Mayli, turaversin! Axir nega ham turmasin? Bilamanki, men sizlar bilan birgaman va senga xalaqit bermaganim holda Lottaning qalbida yashayman, ha, u yerda ikkinchi o‘rinni egallayman, mana shu o‘ringa ega bo‘lishni istayman, buni saqlab qolishim shart. Oh, bordi-yu, u meni unutsa... aqldan ozardim. Albert, bu xayol men uchun bamisli do‘zaxdir! Xayr, Albert! Xayr, Lotta! Xayr, samoviy farishta!

15-mart

Meni bu yerdan ketishga majbur qilayotgan bir ko‘ngilsiz voqeа sodir bo‘ldi. Alamimdan tishimni tishimga bosib o‘tiribman! Jin ursin! Endi buni tuzatib bo‘lmaydi, didimga mos kelmaydigan bu vazifani egallahsga majbur qilgan, qiynagan, shunga undagan – sizlar aybdorsizlar. Mana endi men ham, sizlar ham ko‘radiganimizni ko‘rib o‘tiribmiz! Balki sen odatdagidek, bunga o‘zing aybdorsan, mudom bir gapni ko‘pirtirib yurasan, deyarsan, unday bo‘lsa voqeani, xuddi solnomachidek, aniq, mufassal bayon etishimga ruxsat et, janob.

Graf fon K... menga mehribon, seriftifot, bu senga ma’lum, bu haqda yuz martalab yozganman. Kecha u meni tushki ovqatga taklif qilgan edi. Hamisha xuddi shu kuni kechqurun unikida olifta janoblar va xonimlar yig‘ilishardi. Bu mutlaqo yodimdan ko‘tarilib ketibdi, biz

quyi tabaqchisi kishilar bu davraga mansub emasligimiz ha-qida o‘ylab ham ko‘rmabman. Shunday qilib, grafnikida tushki ovqatni yegach, stoldan turib, katta zalga o‘tdik va o‘zaro suhbatlashib, u yoqdan-bu yoqqa yura boshladik. Keyin bizga polkovnik B... ham qo‘sildi, shu tariqa mehmonlarning keladigan vaqt ham yaqinlashdi. Xudo haqqi, hech narsa xayolimga kelmasdi. Shu payt fon S... ismli olifta xonim eri va g‘ozga o‘xshash hurpaygan, ko‘ksi tep-tekis, xipchabel qizi bilan kirib kelishdi va en passant aslzodalarga xos qiyofada xo‘mrayishar, burunlarini ko‘tarishar edi, shu taxlit nusxalar ta’bimga mut-laqo o‘tirmaganligi tufayli tezroq bu yerni tark etmoqchi bo‘ldim va graf o‘shalarning yoqimsiz suhbatidan xalos bo‘lguncha kutib turgandim, froylyn B... istiqbolimda paydo bo‘ldi. Uni ko‘rsam ko‘nglim hamisha taskin topadi, shu boisdan ketmadim va u o‘tirgan orom kursi orqasida tik turdim. Anchadan keyingina uning men bilan odatdagiga nisbatan tortinibroq, biroz xijolat bo‘lib gaplashayot-ganini sezdim. Hayron bo‘ldim. «Nahotki u ham hamma boshqa kishilardek bo‘lsa?» – o‘yladim undan ranjib va ketmoqchi bo‘ldim, lekin baribir qoldim, chunki bunga ishongim kelmasdi, uni jon deb oqlamoqchi bo‘lardim, undan biron og‘iz yoqimli so‘z eshitishga umidvor edim... Kim biladi, nega bunday. Bu orada mehmonlar ko‘paya boshladi. Frans I davriga oid butun askariy anjomlarni ta-qib olgan baron F..., saroy maslahatchisi R... (uni bu yerda in qualitate janob fon R... deb ataydilar) qulog‘i og‘irroq rafiqasi bilan, hatto daqqiyunusdan qolgan libosiga yangi lattalarni yamab olgan juldurvoqi I... ham va bosh-qalar to‘da-to‘da bo‘lib kela boshlashdi. Men esa, ba’zi

tanishlarimga so‘z qotardim, hammasi lo‘ndagina javob qaytarib qo‘yaqolishardi. Hech narsaga tushunolmasdim, so‘ngra bor diqqatimni froylayn B...ga qaratdim. Zalning narigi tomonida ayollar o‘zaro shivirlashganlarini va bu erkaklarning ham qulog‘iga yetib kelganini, natijada fon S... xonim graf bilan gaplashganini men sezmabman (buni menga keyinroq froylayn fon B... so‘zlab berdi), shundan keyin graf yonimga keldi-da, meni deraza oldiga yetakladi.

– Bizdagи yaramas odatlarni o‘zingiz bilasiz, – dedi u, – sizning bu yerda bo‘lishingiz mehmonlarga ma’qul bo‘lmayotganini sezyapman. Hech ham istamasdimki...

– Janobi oliylari, – so‘zini bo‘ldim men, – Xudo haqqi, meni afv eting, o‘zim buni anglashim lozim edi, bila-man, bu befahmligimni siz kechirasiz... Men darhol ketmoqchi edim, ammo qandaydir bir kuch meni tutib qoldi, – qo‘shib qo‘ydim yana, ta’zim qilarkanman kulimsirab.

Graf mening qo‘limni chin yurakdan qisarkan, shu bilan go‘yo hamma narsani ifodalagandek edi. Men dab-dabali davradan sezilmasdan chiqib ketdim, kabrioletga o‘tirdim-da, adir tepasidan turib quyosh botishini kuzatish, o‘z sevimli Homerimdan Uliss qanday qilib mehmondo‘st cho‘chqaboqarnikida mehmon bo‘lganligi haqidagi yo-qimli qo‘shiqni o‘qish uchun M...ga qarab yo‘l oldim. Bular hammasi shu qadar yaxshi ediki!

Kechki ovqatga qaytib keldim. Qahvaxonada odam siyrak edi, ular dasturxonni surib tashlab, stol burchagida soqqa o‘ynashardi. Shu payt xushfe‘l Adelin kirib keldi, meni ko‘rgach, boshidan shlyapasini oldi-da, yonimga ke-lib shivirlab so‘radi:

– Biror ko‘ngilsiz voqeа yuz berdimi?

- Nega bunday deyapsan? – so‘radim men.
- Graf seni haydab chiqaribdi-ku?
- Daf bo‘lsin o‘shalar, ochiq havoga chiqqanimga xur-sand bo‘ldim.
- Sening bunga shunchalik yengil qaraganing yaxshi-ya, ammo, bu haqda hamma yerda gapirishayotganlari menga alam qiladi.

Shundagina bu hodisa yuragimga yetib bordi. Stolga kim kelib o‘tirsa, hammasining meni kuzatganlari bejiz emas ekan-da, deb o‘yladim. G‘azabim toshib ketdi.

Bugun esa, qayerga bormayin, hamma yerda mendan ko‘ngil so‘raydilar, dushmanlarim esa, eshitishimcha, tantana qilayotgan mishlar.

Kekkayish, menga hamma ishni qilaverish mumkin, deb arzimas aqlini ko‘klarga ko‘tarish, mana, nimalarga eltadi, deyisharmish ular. Shunaqa yaramas safsatalarni eshitaversam, yuragimga pichoq sanchib olgim keladi. Mustaqillik haqida nima desalar dayaversinlar-u ammo, men, qandaydir muttahamlarning, birorta puch gapni das-tak qilib, xulosa chiqarishlariga chidab turadigan odam-ni ko‘rishni istardim, agar shu safsata puch bo‘lsa, unda ularga parvo qilmasa ham bo‘ladi.

16 mart

Hamma narsa g‘ashimni keltirmoqda. Bugun froylayn B...ni xiyobonda uchratib qoldim va u bilan so‘zlashishdan o‘zimni tiyolmadim, odamlardan biroz uzoqlashganimiz-danoq, uning o‘shandagi qilig‘idan ranjiganimni izhor qil-dim.

– O, Verter, – dedi u samimiy ohangda, – mening qalbimni tushuna turib, o’shanda sarosimada qolganimni shunday izohlashingiz to‘g‘rimi? Zalga kirgan daqiqalarimdanoq siz tufayli qanchalik azoblandim! Natijasi shunday bo‘lishini bilgandim, sizni ogohlantirishga juda ko‘p urindim. O‘sha S... va T... ismli ayollarga siz bilan bir davrada o‘tirgandan ko‘ra erlari bilan ketib qolish afzal ekanini bilardim. Grafning ularga qarshi gapirolmasligini ham bilardim. Mana endi qancha shov-shuv!

– Nima dedingiz, froylayn? – so‘radim o‘zimdagি qo‘rquvni yashirib. O‘tgan kuni Adelin aytgan gaplarning hammasi xayolimda joylandi va shu lahzada tomirlarimdan qaynoq suv yurgandek bo‘ldi.

– Shu tufayli boshimga ne ko‘rguliklar yog‘ilmadi, deysiz, – dedi sofko‘ngil qiz ko‘zлari yoshga to‘lib.

Men o‘zimni idora qilolmasdim. Uning oyoqlariga tashlanishga tayyor edim.

– Tushuntirsangiz-chi, axir! – qichqirdim men.

Qizning ko‘z yoshlari yuzlaridan oqib tusha boshladи. Men aqlimni yo‘qotayozdim: u ko‘z yoshlarini yashirishga ham urinmasdan, ularni artdi.

– Xolamni bilasiz-ku, – gap boshladи u, – u ham o‘sha yerda edi, bo‘lgan voqeaga shunday nazar bilan qaradiki! Verter, kecha kechqurun va bugun ertalab siz bilan tanishligim uchun qancha va’zonlikka toqat qilishga, sizni yomonlashlarini, yerga urishlarini eshitishga to‘g‘ri keldi, sizni yoqlashning imkonи yo‘q edi.

Uning har bir so‘zi misoli nayzadek yuragimga sanchilardi. Bularning barchasini mendan sir tutish nechog‘lik olajanoblik bo‘lishini u sezmasdi, u yana, endi mish-

mishlarning keti uzilmasligini, ma'lum toifadagi kishilarning tantana qilishlarini ham qo'shib qo'ydi. Ular endi, yuqori tabaqadagi kishilardan nafratlangani, kekkaygani uchun qilmishiga yarasha bo'ldi, deb mening haqimda vaysashlari turgan gap emish.

Oh, Vilhelm, chinakam hamdardlik bilan aytigan bu so'zlarni uning og'zidan eshitish... Ruhim tushib ketdi, hozirgacha ham xunobim oshib yuribman. Birortasi menga ochiqchasiga ta'na qilishga jur'at etsa-yu men uning ko'ksiga xanjar tiqib olishni istayapman, zora yengil tortsam.

Oh, bu azobdan xalos bo'lish uchun ming marta-lab qo'lga pichoq oldim, aytishlaricha, otlarning ajoyib bir nasli bo'lib, agar uni haddan ortiq yogurtirib, terlatib yuborsalar, u nafas olish oson bo'lsin uchun, tug'ma xususiyatiga ko'ra qon tomirlarini tishlab olarmish. Xuddi shunga o'xhab men ham, ko'pincha qon tomirimni qirqib g'amdan abadiy qutulishni istab qolaman.

24-mart

Meni ishdan bo'shatishlarini so'rab saroyga ariza berdim, ishonamanki, arizam inobatga olinadi. Bu xususda sizlardan ruxsat so'ramaganim uchun meni kechirasizlar. Nima bo'lsa ham bu yerdan ketaman. Meni bunda qoldirish uchun qiladigan barcha pand-nasihatlarining yoddan bilaman, demak... buni onamga yumshoqqina qilib tushuntirib qo'y, unga biror yordam ko'rsatolmasam, mendan ranjimasin, o'zimga ham oson emas. Payti kelib maxfiy maslahatchi yoki elchilik lavozimiga ko'tarilishi mumkin bo'lgan qulaygina martabadan to'satdan o'g'li

voz kechsa-yu yana eski ahvolga qaytsa, albatta onagi oson bo'lmaydi-da. Nima o'ylasalaring o'ylayveringlar, meni qoldirish maqsadida istagan shart-sharoitlariningni ro'kach qilaveringlar, men baribir ketaman. Qayoqqa jo'nab ketayotganimni bilishni istasalaring, aytishim mumkin: bu yerda meni o'ta qadrlaydigan knyaz bor. U niyatimni eshitgach, meni o'z mulkida go'zal bahor faslini o'tkazishga taklif etdi. Knyazning va'dasiga qaraganda, u yerda ixtiyorim tamoman o'zimda bo'larmish. Knyaz ikkimiz bir-birimizni yaxshi tushunamiz, shu sababli manglayimga yozilganini ko'raman, dedim-da, ketishga ahd qildim.

19-aprel

P.S. Ikkala xating uchun ham tashakkur. Saroydan javob olgunimga qadar bu maktubni jo'natmay turdim. Xatlariningga javob ham yozmadim. Onamning vazirga arz qilib niyatimni yo'qqa chiqarishidan xavflandim. Mana, bo'lar ish bo'ldi, javobni bo'lsa oldim. Meni ishdan g'oyat istamasdan bo'shatishganlarini va vazir menga nimalar yozganini aytishga jur'at qilolmayman – sizlar yana arz-dod qilishlaring mumkin. Valiahd janoblari menga ketishim oldidan bir xatcha bilan yigirma besh dukat pul yuboribdi. Xatni o'qib, hayajondan ko'zlarimdan yosh chiqib ketdi; xullas, yaqinda onamdan so'ragan pullarning endi hojati yo'q.

5-may

Ertaga bu yerdan jo'nab ketaman. Tug'ilgan joyim yo'ldan olti milya narida bo'lgani uchun u yerni ham

ziyorat qilib, o‘tmishdagi baxtiyor kunlarimni eslab o‘tmoqchiman. Otam vafot etgach, ana shunday xushman-zara, osoyishta joyni tashlab, o‘zining diqqinamas shahriga qamalish maqsadida onam meni yetaklab chiqqan xuddi o‘sha darvozadan kirmoqchiman. Xayr, Vilhelm! Senga o‘z sayohatim tafsilotlarini yozib turarman.

9-may

Ona yurtimni bamisli muqaddas joydek ehtirom bilan ziyorat qildim, meni g‘alati his-tuyg‘ular qamrab oldi. S... ga ketadigan yo‘lda shahardan chorak soatlik masofada-gi katta arg‘uvon daraxti yonida to‘xtadim-da, aravadan tushdim, xotiralardan to‘yguncha rohatlanib piyoda ketish uchun yamshchikka javob berib yubordim. Mana, bolali-gimda sayrlarimning maqsad va nihoyasi bo‘lgan arg‘uvon daraxti ostida turibman. O‘zgarishlar beqiyos! U paytlarda, bolalarcha tushunib yetmaslik orqasida yuragimga oziq topish, miriqib yayrash, ochko‘z, tug‘yonli vujudim-ni qondirish va tinchlantirish uchun yot o‘lkalarga bosh olib ketishga intilardim! Endi-chi... oh, do‘stim, qanchalab ro‘yobga chiqmagan orzu-umidlar, qanchalab poymol etilgan maqsadlar bilan o‘sha uzoq o‘lkadan qaytib kel-yapman!.. Necha martalab istaklarim manbai bo‘lgan tog‘tizmasining ko‘z oldimda yastanib yotganini ko‘rardim. Soatlab arg‘uvon daraxti ostida o‘tirib, ko‘zlarimga jo-zibali bo‘lib g‘ira-shira ko‘ringan o‘rmonlar, vodiylar tomon intilardim va ular bilan qalban qo‘silib ketishni orzu qilardim. Uyga qaytadigan payt bo‘lganda-chi, o, bu sevimli joyni nechog‘lik istamay tark etardim!..

Shaharga yaqinlashdim. Shahar chetidagi eskidan qolgan barcha tanish uylarga salom berdim. Bu yerda sodir bo‘lgan hamma o‘zgarishlar singari yangi uylar ham menga yoqimsiz tuyuldi. Darvozadan ichkariga kirgach, qaytadan o‘zimni bamisoli uydagidek his etdim. Aziz do‘stim, hammasini mufassal yozib o‘tirmayman. Bu narsalar menga qanchalik dilbar tuyulmasin, baribir hikoyada zerikarli chiqishi mumkin.

Sobiq uyimiz yonidagi maydonda tunashga qaror qildim. O‘tayotib razm solsam, yoqimtoy keksa ayol bolaligimizda bizni qamab olib ta’lim bergen maktab endi boq-qollik do‘koniga aylantirilibdi. Bu kulbada ne-ne hayajon, qo‘rquv va esankirashlarni boshimdan kechirganimni esladim. Har qadamda diqqatni tortuvchi biror narsa uch-rardi. Muqaddas joylarni ziyorat qiluvchi kishi ham shunchalik ko‘p ilohiy xotiralarga duch kelmasa kerak, uning qalbi shu qadar huzurbaxsh hayajon bilan tepishi ham gumon. Behisob esdaliklardan biri mana bu: daryo oqimi bo‘ylab tanish joygacha tushdim, bu ham qachonlardir mening har kungi yo‘lim edi. Biz, bolalar, shu yerdan turib, yassi toshlarni suv betida sakratishni mashq qillardik. Gohida daryoga tikilib, sirli xayollar og‘ushida suv ketidan kuzatib qolardim. U oqib o‘tadigan o‘lkalarni xayoldan ko‘z oldimda gavdalantirardim, tasavvurim kuchi nihoyasiga yetsa-da, ko‘z ilg‘amas kengliklar xayolotida yo‘qolib ketmagunimcha, yana ilgariga, juda ilgariga intilaverardim – bularni xuddi kechagina sodir bo‘lgandek xotirladim...

Ko‘ryapsanmi, azizim, ota-bobolarimizning fikr doi-rasi xuddi shunday chegaralangan bo‘lgan va o‘zlarini

o'shanday baxtli his etganlar! Ularning his-tuyg'ulari-yu ijodlari ham o'ta sodda bo'lgan! Uliss cheksiz dengiz va bepoyon yer haqida gapirodi, bu shunchalik tabiiy, insoniy, samimiy, sodda va sehrlik! Agar men hozir har qanday maktab o'quvchisiga qo'shilib, yer yumaloq, deb takrorlasam, buning biror foydasi bormi? Umr o'tkazish uchun insonga ozgina, qabr uchun esa undan ham ozroq yer parchasi kifoya.

Mana endi, knyazga qarashli ovchilar saroyidaman. Bu yerning xo'jayini ancha dilkash va oddiy odam, u bilan bemalol chiqishish mumkin. Unikiga men tushunolmaydig'an g'alati odamlar kelib turishadi. Ular tovlamachilarga ham o'xshamaydilar, biroq odamshavanda kishilarga xos ko'rinishlari ham yo'q. Ba'zida ular menga samimiyydek tuyulsalar-da, baribir ularga ishonolmayman. G'ashimga tekkan narsa yana shuki, knyaz ko'pincha birovlardan eshitgan, kitoblardan o'qigan narsalar haqidagina gapiradi va bu larga boshqa birov nuqtayi nazaricha baho beradi.

Butun qudratim, butun sevinch va iztiroblarimning manbai, yagona faxrim bo'lgan qalbimdan ko'ra, knyaz mendagi aql va qobiliyatni ko'proq qadrlaydi. Men bilgan narsani boshqa har qanday odam ham bila olarku-ya, biroq bunday qalbga ega bo'lolmasligi mumkin.

25-may

Mening bir rejam bor edi. U amalga oshgunicha, bu haqda sizlarga og'iz ochmoqchi emasdim. Bundan hech gap chiqmagach, demak endi baribir-da. Men urushga ketmoqchi edim, buni avvaldan ko'nglimga tugib qo'ygandim. Aslida, knyaz N.qismida general bo'lgani

tufayli unga qo'shilib, bu yerga kelgandim. Bir kuni sayr qilib yurganimizda unga o'z rejalarimdan so'z ochdim. U fikrimga qarshi chiqib, basharti men uning dalillari-ga qulq solishni istamagan taqdirimda ham bu narsa bema'ni havasdan ko'ra ko'proq qizg'in istak bo'lishi lo-zimligini menga uqtirdi.

11-iyun

Nima desang, deyaver, ammo bu yerda ortiq qolol-mayman. Bu yerda nima ham qilardim? Zerika boshlayapman. Knyaz iloji boricha ko'nglimni ovlashga urinadi, lekin baribir o'zimni noqulay sezayapman. Sirasini aytganda, knyaz ikkimizni bog'lab turadigan hech qanday bir umumiylit yo'q. Uni aqli odam desa bo'ladi, biroq aqli ham o'rtamiyona, yaxshi yozilgan kitob kishini qanday ovutsa, uning muomalasi ham meni shunday ovutadi. Bu yerda tag'in bir hafta bo'laman, so'ngra yana darbadarlikni boshlayman. Eng quvonarlisi shuki, bu yerda rasm solish bilan shug'ullanayapman. Knyaz san'atni tushunadi, agar u sayoz ilmiy tushunchalar va odatdag'i terminlar doirasida chegaralanib qolmaganida edi, bilim doirasi yanada kengroq bo'lardi. Ba'zida men unga butun qalb xarorati bilan tabiat va san'at eshigini ochaman, u bo'lsa, bilimini namoyish qilish maqsadida qandaydir yodlab olgan so'zlarini aytib yuborsa, alamdan tishlarimi ni g'ichirlataman.

16-iyun

Ha, men olamni kezib yuruvchi darbadarman, sizlar mendan ortiqmisizlar?

18-iyun

Qayoqqa ketmoqchisan? – deysanmi, buni senga yashiriqcha aytishim mumkin: yana ikki hafta shu yerda qolaman, keyin esa, ...dagi konlarga borishni mo‘ljallab turibman, aslida gap konda ham emas, Lottaga yaqinroq bo‘lishni istayman, xolos, bor gap shu. O‘z qalbimdan kulyapman-u uni yana o‘z erkiga qo‘yib beryapman...

29-iyul

Men... Uning umr yo‘ldoshi bo‘lsam! O, yaratgan Tangrim, menga shunday baxtni ato etganingda edi, umrim bo‘yi senga tinimsiz sajda qilgan bo‘lardim. Hasrat qilayotganim yo‘q, ko‘z yoshlarim, puch orzularim uchun afv et meni! U mening rafiqam bo‘lsa! Qani endi, yer yuzidagi eng pokiza vujudni bag‘rimga bossam...

Albert uning xushbichim qomatini quchsa, badanimga muz Yugurgandek bo‘ladi, Vilhelm!

Shunday deyishga haqlimanmi? Vilhelm, nega haqqim bo‘lmisin? Lotta undan ko‘ra men bilan baxtliroq bo‘lardi. O, u kabi odam Lottadagi qalb istaklarining barchasini qondirishga qodir emas. Unda sezgirlik yetishmaydi... qanday tushuntirsam ekan?.. Aytaylik... muhabbat kitobidagi Lotta ikkимизning qalblarimiz yakdil urgan joyga uning qalbi mos javob berolmaydi. Uchinchi bir shaxsning qiliqlari xususida Lotta bilan fikrlarimiz bir xil chiqqan yuzlab hollarda ham xuddi shunday. Ammo, azizim, Vilhelm, u Lottani butun borlig‘i-la sevadi, bunday sevgini qadrlamay bo‘ladimi!..

Ezma bir odam kelib fikrimni bo‘ldi. Ko‘z yoshlarim qurib qoldi. Fikrim chalg‘idi. Xayr, azizim!

4-avgust

Birgina mening ahvolim shunaqa emas. Hamma odamlarning umidlari puchga chiqadi, hammasi kuta-kuta aldanadi. Men, arg‘uvon daraxti ostidagi uyda turadigan tanish ayolnikiga bordim. To‘ng‘ich o‘g‘li istiqbolimga yugurdi, uning quvonchli qiyqirig‘ini eshitib onasi uydan chiqib keldi, u behad ma'yus ko‘rinardi. Uning dastlabki so‘zлari shu bo‘ldi:

– Oh, qimmatli janob, Hansim o‘lib qoldi.

Bu uning kenja o‘g‘li edi. Men qotib qoldim.

– Erim esa, Shvetsariyadan qup-quruq qaytib keldi, – davom etdi u, – yaxshi odamlar yordam berishmaganda, u tilanchilik qilishga majbur bo‘larkan; aksiga olgandek, yo‘lda yana isitmaga ham yo‘liqibdi.

Unga nima deb taskin berishni bilmasdim, bolaga qandaydir arzimagan bir narsa berdim; ayol menga uch-to‘rtta olma tutqazib, ularni olishimni o‘tindi, rad qilolmadim va bu alamli xotiralar makonini tark etdim.

21-avgust

Men har lahzada o‘zgarib turaman. Gohida hayot menga qaytadan kulib boqqandek tuyuladi. Afsuski, faqat bir zumgina, xolos!.. Xayol daryosiga g‘arq bo‘lgan paytlarimda, minglab fikrlar menga tinchlik bermaydi. Bordin-yu, Albert o‘lib qolsa nima bo‘ladi? Unda men... ha, Lotta bilan... Xomxayol ketidan, u meni tubsiz jar yoqasiga keltirgunicha, shu tariqa quvaman va birdan cho‘chib o‘zimga kelaman.

Lottani bazmga eltish uchun ilk bor o‘tgan yo‘l bo‘ylab shahar chetiga chiqaman, o‘shanda hamma nar-

sa tamoman o‘zgacha edi! Hamma, hammasi o‘tib ketdi! O‘tmishdan uchqun ham yo‘q, u paytlar qalbimni to‘lqinlatgan tuyg‘ulardan nom-nishon ham qolmagan. Umrining gullagan davrida, knyazlik yillarida tiklab, butun zebu ziynatlar bilan bezatib, nihoyat, o‘limi oldidan sevimli o‘g‘liga umid bilan vasiyat qilib qoldirgan, keyinchalik esa, kuyib bitgan saroyi xarobalariga qaytgan marhum ruhi qanday holatda bo‘lsa, men ham aynan o‘shandayman.

3-sentyabr

Ba’zan aqlim bovar qilmay qoladi: men uni butun qalb haroratim bilan sevsam-u undan o‘zga hech narsani sezmasam, undan o‘zga ma’naviy tayanchim bo‘lmasa-yu yana qanday qilib boshqa bir kimsa uni sevishga qodir va seva olishi mumkin!

4-sentyabr

Ha, shunday. Tabiat kuzga bo‘yin ega boshlaganidanoq, mening yuragimda va atrofimda ham hazinlik boshlanadi. Mening daraxtlarimdagи yaproqlar sarg‘aymoqda, qo‘shni daraxtlarning yaproqlari esa allaqachon to‘kilib ketgan. Bu yerga kelganimdanoq, nazarimda, senga’ bir dehqon yigit haqida yozgandim shekilli? Valhaymda o‘sha yigitni qayta surishtirdim, aytishlaricha, u xizmatdan haydalgan mish, u haqda hech kim ortiq biror narsa bilmasmish. Kecha qo‘shni qishloqqa ketadigan yo‘lda unga qo‘qqis dan duch keldim; gaplashdik, u o‘z qissasini so‘zlab berdi, eshitib behad hayajonga tushdim, buni yozuvlarimdan ham osongina payqab olarsan. Aslini ol-

ganda, buning nima hojati bor, o‘zimni ham qiyaydigan, yaramni yangilaydigan voqeani nega endi oshkor etay? Nega hamisha menga achinishing va meni koyishing uchun imkon yaratib beraman? Nima bo‘lsa bo‘lavversin! Ehtimol, mening ham qismatim o‘shandaydir.

Oldiniga, yigit biroz sokin, ma’yuslik bilan savollarimga tortinibroq javob berib turdi, lekin tezda go‘yo o‘ziga kelgandek va meni endigina payqagandek, jur’at qildi-yu, bor qilmishlarini to‘kib soldi va o‘z baxtsiz toleidan nolidi. Do‘stim, uning har bitta so‘zini sening hukmingga havola qilishni istardim! U menga o‘z ko‘ngil daftarini ochdi, ha, xotiralar lazzatiga g‘arq bo‘lgani holda shularni hikoya qildi: Uning o‘sha ayolga bo‘lgan intilishi kun sayin orta borgan, nihoyat u, nima qilayotganini, nima gapirayotganini idrok etolmay, o‘zini qayoqqa qo‘yishni bilmay qolgan. Bo‘g‘ziga bir narsa tiqilgandek, hech narsa icholmay, yeysolmay qolgan, ko‘zidan uyqu qochgan; u buyurilgan ish qolib, keraksizini bajargan; go‘yo shayton uni yo‘ldan ozdirgan; bir kuni ayolning cherdakka chiqqanini bilib ketidan borgan, to‘g‘rirog‘i, nimadir uni o‘sha yoqqa tortgan. Ayol uning yolvorishlariga qulqoq solmagach, u ayolni zo‘rlik bilan taslim qilmoqchi bo‘lgan; o‘ziga nima bo‘lganiga o‘zi ham tushunmagan. Yigit niyatlarining hamisha sof bo‘lganini, o‘sha ayolga uylanib, birga umr kechirishdan o‘zga istagi bo‘lmaganini aytib, xudoni o‘rtaga qo‘yib qasam ichdi.

Shularni so‘zlarkan, yana nimadir demoqlidek, ammo aytolmayotgandek, gapida tutila boshladi; nihoyat u, tortinib iqror bo‘ldiki, ayol ham unga biroz erkinlik bergen va oralarida yaqinlik bo‘lishiga yo‘l qo‘ygan. Yigit

tutila-tutila ayolni qoralashni istamasligini, uni hozir ham birdek sevishi va qadrlashini aytib ont ichardi; o‘zining buzuq emasligini, aqlining joyidaligini isbotlash uchungina bularni gapirib berganini, aks holda bunday so‘zlarni og‘zidan chiqarmasligini ham qo‘sib qo‘ydi... Aziz do‘stim, o‘sha eski qo‘sishim imni yana boshlayapman, uni takrorlashdan tolmayman: Mana shu yigitni senga, u mening ko‘z oldimda ilgari ham, hozir ham qanday turgani ni tasvirlab berolsam edi! Uning taqdiri uchun qanchalik qayg‘urayotganimni va qayg‘urishim lozimligini sen his etadigan darajada ifodalashga loyiq so‘z topolsam edi! Yetarli bo‘lsa kerak! Sen meni ham, qismatimni ham bilasan, hamma baxtsizlarga, ayniqsa, mana shu baxtsizga meni nima tortayotganini osongina anglab olarsan.

Xatni qayta o‘qib qarasam, voqeanning oxirini senga aytib berishni unutibman. Shusiz ham hamma narsa ravshan-ku. Ayol qarshilik ko‘rsata boshlagan. Uning akasi yetib kelgan, u ilgaridanoq yigitni yomon ko‘rib, uni bu yerdan ketkizish yo‘lini qidirib yurgan, negaki, ayol befarzand bo‘lganligi sababli o‘zлari umid ko‘zini tikib turgan meros, singlisi ikkinchi marta turmushga chiqqan taqdirda qo‘ldan ketib qolishidan qo‘rqqan; akasi yigitni shu zahotiyoydigan haydab solgan va bu haqda shunday shov-shuv tarqatganki, ayol o‘zi istagan taqdirda ham yigitni qayta ishga qabul qilolmagan bo‘lardi. U hozir yangi xizmatkor olganmish, aytishlaricha, yangisi tufayli ham akasi bilan janjallasharmish, ayol o‘shanga turmushga chiqarkan, deb hamma bir og‘izdan gapirayotganmish; «Bunga sira-sira toqat qilolmayman», deydi yigit.

Senga yozayotgan narsa mubolag'a emas, hech narsani xaspo'shlaganim ham yo'q, aksincha, ishonishing mumkinki, men uni jo'n, o'ta jo'n hikoya qildim, ham mamizga rasm-odat bo'lib qolgan so'zlar bilan yozib, bu voqeani qo'pollashtirib yubordim.

Bunday muhabbat, bunday sadoqat, bunday ehtiros shoirona xayol emas, yo'q, u yashayapti, u benihoya sof holda, bizningcha qo'pol, madaniyatsiz hisoblangan toifaga mansub kishilar orasida yashayapti. Bizlar esa, o'qib uqmaganlarmiz! O'tinaman, hikoyani ehtirom bilan o'qi. Bugun shuni yozarkanman, negadir so'nib qolgandekman, buni xatdan ham ko'rib turibsan, har vaqtdagidek bo'yab, chizib tashlamaganman. Azizim, o'qi va bu do'stingning ham qismati ekanligini o'ylab qo'y! Ha, shunday edim, shunday bo'lib qolaman, menda bu baxtiqaro yigitdagi jur'at va dadiilikning yarmi ham yo'q, o'zimni unga tenglashtirmayman ham.

5-sentyabr

Lotta ish yuzasidan qishloqqa ketgan eriga kichkina maktub yozibdi. Xat shunday boshlanadi: «Azizim, jonom, iloji boricha tezroq qayt! Seni cheksiz quvonch bilan kutaman!» Hozirgina kelgan bir do'stim, ma'lum sabablarga ko'ra, Albertning tezda qaytolmasligini aytdi. Xat jo'natilmabdi, kechqurun mening qo'limga tushdi. Uni o'qidim-da, kulimsiradim; Lotta nimaga kulganimni so'radi.

– Xayol xudoning qanday buyuk marhamati-ya! – dedim men, – Men bir zumgina go'yo bu maktub menga atalgandek xayol qildim.

U gapimni bo‘ldi, so‘zlarim unga yoqmagandek ko‘rindi, men jim qoldim.

6-sentyabr

Lotta bilan ilk marta raqsga tushganda kiyganim o‘sha odmigina ko‘k frakni anchagacha tashlayolmay yurdim; biroq u hozir mutlaqo ko‘rimsiz bo‘lib qoldi. Endi, yana shunaqa, yoqasi va yeng hoshiyasini ham xuddi o‘shanday qilib, yangi frak, sariq nimcha va shim ham buyurtirdim.

Baribir bular menga avvalgisidek yoqimli emas. Bilmadim... ehtimol, payti kelib buni ham yoqtirib qolarman.

12-sentyabr

Albertni olib kelish uchun Lotta bir necha kunga ketgan edi. Bugun Lottaning xonasiga kirdim; u istiqbolimga chiqdi, uning qo‘lini cheksiz quvonch bilan o‘pdim. Oynadan kanareyka uchib kelib, uning kaftiga qo‘ndi.

— Yangi do‘stimiz, — dedi u qushchani qo‘liga qo‘ndirib, — buni ukalarimga sotib oldim. Yoqimtoyginya! Qarang! Unga non bersam, qanotchalarini silkitib, itoat bilan cho‘qiydi, qarang, meni o‘padi ham!

U qushchani og‘ziga tutdi, qushcha bo‘lsa, bu bejirim lablarni shu qadar beozor turtib qo‘ydiki, go‘yo o‘ziga nasib etgan lazzatni his etayotgandek edi.

— Sizni ham o‘psin, — dedi-da, kanareykani menga uzatdi, qushcha tumshug‘ini uning lablaridan olib menikiga yo‘naltirdi va u lablarimga tekkanda, shirin bir lazzatning yoqimli sasini sezgandek bo‘ldim.

— Uning o‘pichida tama‘girlik sezilib turibdi, — dedim men, — u ovqat izlaydi, uni quruq erkalash qoniqtirmaydi.

– U ovqatni mening og‘zimdan ham yeydi, – dedi Lotta va sof muhabbat hislari balqib turgan beozor lablari bilan bir necha uvoqni qushchaga tutdi.

Men yuzimni chetga o‘girdim. U nega bunday qil-yapti? Samoviy soflik va rohatni ko‘z-ko‘z qilib nega hislarimni tobora alanga oldiradi, hayotga beparvo qarashga odatlanayozgan yuragimni yana nega uyqudan uyg‘otadi?! Xo‘sh, shunday qilsa nima bo‘pti?.. U menga shu qadar ishonadiki! Uni nechog‘lik sevishimni biladi!

15-sentyabr

Vilhelm, dunyodagi noyob narsalarni qadrlashga fahm-u farosati yetmaydigan kishilar ham borligini ko‘rsang, tepa soching tikka bo‘ladi kishining.

Sh... qishlog‘idagi xushfe’l ruhoniynikida Lotta ik-kimiz soyasida o‘tirgan yong‘oq daraxtlari yodingdadir, albatta. Xudo shohid, qalbimga mudom beqiyos orom bag‘ishlagan haligi ko‘rkam yong‘oq daraxtlari! Ular ruhoniy hovlisini qanchalik sarishta, qanchalik salqin qilib turishardi! Qanchalik sershox edi ular! Qadimda ularni o‘tqazgan muqaddas rohiblar bilan ham son-sanoqsiz xotiralar bog‘langan! U ajoyib kishi bo‘lgan va men shu daraxtlar ostida tik turib ehtirom bilan uni xotirlardim, deb mакtabda o‘qituvchimiz ulardan birining, o‘z bobosidan eshitgan nomini tinimsiz tilga olardi. Ishonasanmi, kecha gaplashib o‘tirgan edik, o‘qituvchim ko‘zlar yoshga to‘lib, ularni qirqib tashlashganini aytdi... Qirqib tashlashgan! Hushimni yo‘qotayozdim, daraxtlarga biringchi bolta urgan yaramasni majaqlab tashlagim kelardi. Bordi-yu o‘z hovlimda shunday daraxtlar o‘sib, ulardan

birortasi keksalikdan qulab tushganda yurakdan achingan bo‘lardim, mana endi bo‘lsa, nimaga chidab o‘tiribman! Shunisi quvonarliki, qimmatli do‘stim, dunyoda insoniy tuyg‘u ham bor! Butun qishloq nolimoqda, ishonamanki, ruhoniyning xotini o‘z qavmiga nechog‘lik zarar keltirgанини yog‘, tuxum va boshqa nazr-niyozlarning kamaygанидан ham sezadi. Chunki, hammasiga o‘shaning o‘zi – yangi ruhoniyning xotini aybdor (bizning ruhoniylar chol o‘lib ketgan), u oqsuyak xasta ayol, hech kimga qo‘silmaydi, dunyodagi barcha narsalarga g‘arazgo‘ylik bilan qaraydi, boshqalar ham unga nisbatan samimiy emas. U g‘irt ahmoq, o‘zini bilimdonlardek tutadi-da, diniy aqidalarni isloh qilishni o‘ylab chiqarib yuradi, nasroniylikni axloqiy-tanqidiy jihatdan yangichasiga tubdan o‘zgartirish ustida bosh qotiradi, Lafater mutaassibligidan ko‘ngli to‘lmaydi, xastalik uni shu qadar ado qilganki, yorug‘ dunyodan shodlanishga ham madori yetmaydi. Mening yong‘oq daraxtlarimni qirqtirib tashlatish faqat shunday maxluqninggina qo‘lidan kelishi mumkin. Bilasanmi, hecham o‘zimga kelolmayapman!.. Tasavvur qilasanmi: to‘kilgan barglardan go‘yo hovlisi ifloslanib, namiqib ketarmish, daraxtlar uni quyoshdan yashirarmish, yong‘oqlar pishgach, bolalar daraxtga tosh ota boshlaydilar, bu esa uning asabiga tegarmish, bu unga Kennikot, Zemler va Mixaelis iste’dodlarini bir-biriga muqoyasa qilish uchun chuqr o‘ylashga xalaqit berarmish.

Qishloq ahlining, ayniqlsa, keksalarning noroziliklari ni ko‘rib, ulardan so‘radim:

– Bunga qanday chidab turdinglar?

– Agar oqsoqol biror narsa desa, bizda uning istagini hech kim qaytarolmaydi.

Lekin bir narsa ko‘ngildagidek bo‘ldi: xotinining injiqliklari joniga tekkan ruhoniy hech

bo‘lmasa yong‘oqlardan biror foyda olishga va bu foydani o‘zaro taqsim qilishga oqsoqol bilan kelishib oldi. Buni mahkama bilib qolib: «Bu yerda haqlaring yo‘q!» dedi, chunki u ilgaridanoq ruhoniy mulkining daraxtlar o‘sigan qismiga egalik qilish huquqini olgan va uni iltimos qilgan kishilarga sotgan edi. Mana endi ular qulab yotishibdi! O, agar men knyaz bo‘lganimda edi! Ruhoniyning xotiniga ham, oqsoqolga ham, mahkamaga ham ko‘rsatib qo‘yardim... Knyaz! Darvoqe, knyaz bo‘lganimda, mam-lakatimdagи daraxtlar bilan necha pullik ishim bo‘lardi!

10-oktyabr

Uning charosdek ko‘zlariga nazar tashlaganim zahotiyoq ruhim tetiklashadi. Bilasanmi, meni nima qiyndi: aftidan, Albert o‘zi kutganchalik... baxtli emas... men esa... agar men... baxtli bo‘lardim... Ko‘p nuqtani o‘zim yomon ko‘raman-u lekin hozir fikrimni boshqacha ifodelayolmayman... har holda fikrimni anglagandirsan.

12-oktyabr

Ossian yuragimdan Homerni sitib chiqardi. Bu buyuk zot meni shunaqa olamga yetaklamoqdaki! Oyning xira nurida tuman pardalariaro ajdodlarimiz ruhini tentiratib, bo‘ron uvillab yotgan dalada darbadar kezishga, o‘rmon shovqini ichida ruhlarning tog‘dagi g‘orlardan bo‘g‘iq eshitilayotgan qichqirig‘ini hamda qahramonlarcha ha-

lok bo‘lgan sevgilisi dafn etilgan joyda, mox bosib ketgan to‘rtta tosh tepasida yurak-bag‘ri ezilib ko‘z yosh to‘kayotgan qizning qayg‘uli nolasini tinglashga undayapti. Men esa, keng dalada o‘z ota-bobolarining izlari ni axtarayotgan o‘sha mo‘ysafid darbadar qo‘shiqchini ko‘ryapman, afsus! Mo‘ysafid ularning qabrlarinigina topadi, xolos va uvvos tortib, yoqimli tungi yulduzga nazar tashlaydi, yulduz esa, to‘lqinli dengiz ortiga yashirinadi, shunda qahramonning xayolida o‘tmish, ya’ni dov-yuraklar yo‘liga muruvvatli nur to‘shalgan paytlar va kemaning gullarga burkanib, oy nuri og‘ushida g‘alaba bilan qaytgani gavdalananadi. Men uning manglayida chuqur hasrat izlarini ko‘raman, buyuk zotlarning eng so‘nggisi tamoman holdan toyib, qabrga sudraladi, marhum tug‘ishganlarining jismsiz soyalari hozirligi tufayli borgan sari jonni o‘rtaguvchi shodlikni to‘yib simiradi; u sovuq yerga, yelda tebranayotgan giyohga ko‘z tikarkan, xitob qiladi:

— Keladi, meni navqironlik davrimdan buyon bilgan o‘sha jahongashta keladi va: «Qani, qo‘shiqchi Fingalning go‘zal o‘g‘li qani?» deb so‘raydi. U qabrim ustida qadam tashlayapti, bekorga u meni yer yuzidan izlayapti.

O, do‘stim! Men, mard yalovbardor singari qilichimni sug‘urib olib, o‘z hukmdorimi ni asta-sekin so‘nayotgan jon talvasasidan bir zumda xalos qilishni va o‘z jonimni ham xalos etilgan payg‘ambar izidan jo‘natishni istardim.

19-oktyabr

Oh, qalbim bo‘m-bo‘sh! Uzluksiz o‘rtayotgan bo‘m-bo‘shlik!.. Ko‘pincha o‘ylab ketaman: agar uni bir marta-

gina, faqat bir martagina bag‘rimga bossam edi, bu bo‘mbo‘shlik to‘lgan bo‘lardi.

26-oktyabr

Ha, aziz do‘stim, bu menga ravshan, tamoman ravshan, bir odamning hayoti u qadar ahamiyatli emasligi kundankunga ravshanroq sezilyapti. Lottaning huzuriga bir dunganasi keldi, men kitob o‘qish uchun qo‘shni xonaga chiqdim, biroq o‘qiyolmadim, so‘ngra ruchka oldim-da, yo-zishga tutindim. Ularning gurunglashgan ovozlari eshitilardi, qizlar bir-biriga mayda-chuyda voqealar, shahardagi yangiliklar, birovning tur mushga chiqqani, boshqasining betobligi, og‘ir betobligi haqida hikoya qilishardi:

- U quruq yo‘taladi, yuz suyaklari turtib chiqqan, goho hushidan ketib qoladi.
- Menimcha, u uzoq yashamaydi, – dedi mehmon.
- N.N.ning ham ahvoli og‘ir, – qo‘shib qo‘ydi Lotta.
- Shishib ketibdi, – quvvatladi dugonasi.

Xayolim meni o‘sha jafokashlarning to‘shagi yoniga yetakladi; ular mutlaqo istamasdan hayotdan ko‘z yumadilar, ular... oh, Vilhelm!.. Mening xonimlarim bo‘lsa, bir begonaning o‘limi haqida kishilar odatda qanday gapirishsa, shunday gapirib o‘tirishibdi.

Atrofimga nazar tashlab kuzatarkanman, hamma yerdal Lottaning ko‘ylaklarini, Albertning qog‘ozlarini, mebellarni ko‘raman, bular menga behad qadrdon bo‘lib ketgan, hatto mana shu siyohdon ham. Shunda o‘z-o‘zimga deyman:

- O‘ylab qara, bu xonodon uchun qanchalik ahamiyatlisan! Mufassal o‘yla. Do‘stlaring seni qadrlashadi! Sen

ham ularga kam shodlik keltirmaysan, gohida shunday tuyuladiki, o'zing ham go'yo sholarsiz yashayolmasding, lekin baribir... bu yerdan – ularning davrasidan ketsangchi? O'rning bilinarmikan? Qachongacha bilinarkan? Sendan ayrilganlarini his etisharmikan? Qachongacha?.. Oh, odam bu qadar o'tkinchi, hatto o'zi o'ynab-o'sgan, o'z hayotidan haqiqiy iz qoldirgan joyda ham, o'z yaqinlarining qalbida ham uning xotirasi juda tez o'chib, yo'q bo'lib ketishi mumkin!

27-oktyabr

Kishilar bir-birlariga nihoyatda oz narsa bag'ishlay olishlarini his etsam, ko'ksimni chok etib, boshimni ezg'ilab tashlagim keladi. Afsuski, agar muhabbat, quvonch, harorat va zavq-shavq o'zimda bo'lmasa, menga ularni birov berolmaydi hamda o'zimning qalbim ham sevinch hissiga to'lib toshgan holda, kuchsiz va hissiz bo'lgan boshqa bir kimsani baxtli qilolmasligim mumkin.

27-oktyabr. Kechqurun.

Ulkan qudratga egaman-u, lekin unga bo'lgan hissiyot hammasini bosib ketadi; ulkan qudratga egaman-u, ammo usiz hayot men uchun hech nimadir.

30-oktyabr

Uning ko'ksiga otilishdan o'zimni yuz martalab tutib qolaman. Kishi shuncha ajoyibotlarni ko'rib tursa-yu unga qo'l urishga haqqi bo'lmasa, uning naqadar o'rtanishi yolg'iz xudoga ayon. Qo'l urish insondagi tabiiy xususi-

yat-ku! Bolalar ham nimaga ko‘zlari tushsa, o‘shanga qo‘l tekkizaveradilar-ku... Men-chi?..

3-noyabr

Xudo guvoh! Ko‘pincha to‘shakka qaytib uyg‘on-maslik istagi, gohida, hatto umidi bilan yotaman; tong otgach ko‘zimni ochib, yana quyoshni ko‘raman-da, g‘amga chulg‘anaman. O, qani endi qo‘limdan kelsa-yu aybni ob-havoga, uchinchi bir shaxsga, o‘ngidan kelma-gan ishga ag‘dara olsam, chidab bo‘lmas g‘am-g‘ussa yukining yarmigina mening yelkamga tushgan bo‘lardi! Oh sho‘rim! Aniq bilaman: hamma gunoh o‘zimda... darvoqe, qanday gunoh?! Shunisi borki, avvallari qalbim shavq-zavqdan qaynab toshgan bo‘lsa, endi iztirobdan o‘rtanadi. Axir bir vaqtlar hissiyotlar dengizida suzgan, har qadamda jannatni his etib, olamni qamrab olishga qodir yurakka ega bo‘lgan kimsa men emasmanmi? Ana shu yurak endi o‘lgan, endi u hayajondan entikmaydi, ki-priklarim qurib qolgan, quvonch yoshlari lazzatidan ortiq bahra ololmayman, shu tufayli manglayimga g‘am chi-zizqlari tushgan. G‘am ezib tashlayapti, negaki hayotim-ning yagona shodligini yo‘qotdim, o‘zim uchun butun bir dunyo yarata olishimga ko‘mak beruvchi muqaddas, jon-lantiruvchi qudrat yo‘q, u so‘ngan!.. Derazadan quyoshning olis tepaliklar ortidan ko‘tarilib, tumanni yorib o‘tib, jimjit vodiya nur sochishini kuzatsam-chi, Oh!.. Mana shu ko‘rkam tabiat xuddi suratdek jonsiz tuyuladi men-ga; mana shu go‘zalliklarning barisi yuragimda zarracha ham hayajon uyg‘otolmaydi va sezgilarimga ta’sir etol-maydi, men sho‘rlik, tangrim nazarida suvi qurigan qu-

duqqa, qaqragan chelakka o'xshab turibman. Qattiq qurg'oqchilik bo'lib, yer suvsizlikdan hansirab yotganida dehqon yomg'ir tilab Allohga yolvorganidek, men ham ko'z yoshi so'rab, tiz cho'kib Alloh taologa tinimsiz iltijo qilaman. Ming afsus! Bilaman, Alloh yomg'irli yoki issiq havoni bizning hayajonli o'tinchlarimiz evaziga bermaydi. O'sha lazzatli damlar xotirasi meni bekorga qiynamaydi, axir men Xudo marhamati tufayli boshimga yog'ilgan rohatni jon-jon deb qabul qilgan edim-da!

8-noyabr

U meni qanoatsizlikda aybladi! Behad yumshoqlik bilan! Mening qanoatsizligim shundaki, ba'zan bir stakan vinodan qizishib qolib, butun bir shishani ichib qo'yaman.

– Bunaqa qilmang! – dedi u. – Lotta haqida o'ylashga tirishing.

– O'ylash! Nahotki shuni buyurish shart bo'lsa? – e'tiroz qildim men, – o'ylaymanmi-yo'qmi, baribir, qiyofangiz qalbim ko'zgusida mujassam. Men bugun, yaqindagina Siz faytundan tushgan joyda o'tirdim...

Men arzi dilimni to'kib solmasligim uchun u gapni boshqa mavzuga burdi. Qimmatli do'stim! Men ado bo'ldim! U meni istagan kuyiga o'ynatadi!

15-noyabr

Samimiyl hamdardliging, do'stona maslahatingdan minnatdorman, Vilhelm, sendan iltimos, tashvishlanma. Azoblarga bardosh berishga qo'yib ber, men qancha iztirob chekmayin, bularga chidashga hali quvvatim yetadi. Mening dinni qadrlashimni bilasan; uning ruhan ezilgan-

lar uchun tayanch, umidsizlanganlar uchun tasalli manbai ekanligini tushunasan. Ammo uning har qanday kishi uchun ham shunday bo‘lishi shartmi, shunday bo‘la oladimi? Dunyoga bir nazar tashla, minglab kishilarga din targ‘ib qilinsa-qilinmasa, bundan qat’iy nazar, yordam berolmadi, yordam berolmaydi ham, nega endi menga yordam bersin? Hatto xudoning o‘g‘li ham otasi unga kimni bag‘ishlagan bo‘lsa, o‘shalargina u bilan bo‘lishini aytmaydimi? Men unga bag‘ishlanmagan bo‘lsamchi? Otam meni o‘ziga asrab qo‘ygan bo‘lsa-chi? Buni ko‘nglim sezib turibdi... O‘tinaman, bularni noto‘g‘ri tushunma, samimiy so‘zlarimni zinhor hazilga yo‘yma! Senga dilimda borini ochiq aytayapman, yaxshisi, bu haqda og‘iz ochmasam bo‘lardi, negaki boshqalarning ham mendek zo‘rg‘a fahmi yetadigan narsalar haqida istaristamas yozib o‘tiribman. Boshga tushganga chidash, hayot jomini tubigacha simirish – inson qismati mana shu bo‘lmay nima? Inson qiyofasidagi xudoga hayot shu qadar achchiq tuyulgan taqdirda, nega endi men kekkayib, o‘zimni g‘oyat baxtiyordek ko‘rsatishim kerak ekan? Butun borlig‘im hayot yoki o‘lim o‘rtasida titrab turgan, o‘tmish esa kelajakning zulmat chohi ustida yashindek chaqnagan va atrofimdag‘i hamma narsa yo‘q bo‘layotgan, dunyo ham menga qo‘shilib so‘nib borayotgan mana shu dahshatli daqiqalarda nega men tortinib turishim kerak ekan? Mana bu, quvg‘in qilinib, darmoni qurib, shiddat bilan pastga qulab borayotgan kimsaning ovozi emasmi; u qutulishga behuda urinib, jon-jahdi bilan: «E, xudoym! E, xudoym! Nega meni halok etding!» deya qichqirmoqda. Butun olamni o‘z izmida tuta oladigan zot bundan tor-

tinmaganda, bu qichqiriqdan men uyalishim, bu holdan dahshatga tushishim kerakmidi?

21-noyabr

U o‘zini ham, meni ham nobud qiladigan og‘u hozirlayotganini bilmaydi, tushunmaydi; garchi halokatga eltsa-da, u menga tutqazayotgan jomni rohatlanib sipporaman. Nega u menga ko‘pincha... ko‘pinchami?.. Har holda ba’zan yoqimli nazar bilan qaraydi, nega mendagi ixtiyorsiz his-tuyg‘ularga iltifot ko‘rsatadi, nega uning peshonasiga mening iztiroblarimga hamdardlik bitilgan?

Kecha xayrlashayotib, u menga qo‘lini uzatdi-da: «Xayr, azizim Verter!» – dedi. Azizim Verter! U meni birinchi marta «azizim» deb atadi, bu so‘zlar meni titratib yubordi, ularni tinimsiz takrorladim, kechasi o‘rnimga yotayotib esa, o‘z-o‘zimga nimalarnidir gapirarkanman, bexosdan: «Xayrli kech, azizim Verter!» deb yuborib-man, keyin o‘z ustidan kulib qo‘ydim.

22-noyabr

«Uni menga qo‘y!» deb nola qilolmayman, gohida u go‘yo o‘zimnikidek tuyulsa-da: «Uni menga ber!» deb yolvorolmayman. U birovnniki. Men o‘z iztiroblarim ha-qida safsata sotib o‘tiribman; agar o‘zimni qo‘lga ololmaganimda edi, taqqoslashlarning keti uzilmagan bo‘lardi.

24-noyabr

Mening azoblanib yurganimni u sezadi. Bugun uning nigohi yuragimning chuqur tubigacha yetib bordi. Bor-

sam u yolg‘iz ekan; men jim turaverdim, u menga qarab turdi. Men undagi maftunkor jozibani ham, yorqin aqlini ham ortiq payqamasdim, bularning barisi ko‘z oldimdan g‘oyib bo‘lgandi. Meni eng samimiyl hamdardlik, eng orombaxsh rahmdillikka to‘la yanada jozibaliroq nigoh sehrlab qo‘ygan edi. Nega uning oyoqlariga yiqilolmadim? Nega uni bag‘rimga bosib, minglab bo‘salar bilan javob qaytarmadim? U fortepianodan o‘ziga panoh topdi, past, shirali ovozda o‘z kuyiga jo‘r bo‘la boshladi. Uning lablaridagi bu qadar jozibani hech qachon ko‘rmagan edim: nazarimda, ular xiyol ochilib, musiqiy asbobdan chiqayotgan sehrli ohangni yutardi-da, tovushlar mana shu pokiza og‘izdan aks-sado bo‘lib taralardi... Oh, qani endi buni ifodalab berolsam! Ortiq toqat qilolmadim, bosh egib qasamyod qildim: «Samoviy ruhlar soya so-lib turgan bu lablardan bo‘sа olishga hech qachon jur’at etmayman!» Lekin baribir, men, oh!.. Bilasanmi, oldimda qandaydir to‘siq turganday... Uni chetlab o‘tsam-da... o‘sha lazzatni totsam... keyin gunohimni yuvish uchun halok bo‘lsam... Gunoh?

26-noyabr

Ba’zan o‘zimga-o‘zim «sening qismating og‘ir!» deyman. O‘zgalarni esa, baxtli deb o‘ylayman. Hech kim menchalik iztirob chekmagan. So‘ngra o‘tmish shoirini o‘qiy boshlayman, go‘yo o‘z kechinmalarimni o‘qiyotgandek bo‘laman. Bardoshim nelarga yetarkin? Yo, falak! Nahotki ilgari ham shunday baxtsizlar bo‘lgan dunyoda?

30-noyabr

Yo‘q, yo‘q, men mutlaqo o‘zimga kelolmayman. Qayerga bormayin, meni aqldan ozdiradigan voqealarga duch kelaman. Bugun-chi? Oh, qismat! Oh, insonlar!

Men qirg‘oq bo‘ylab borardim. Tushki ovqat payti bo‘lsa-da, ko‘nglim hech narsa tilamasdi. Atrofda jon asari yo‘q, tog‘dan kechki salqin shabada esardi, vodiy ustini qora bulutlar qoplab olgan. Uzoqdan yashil rangdagi eski kiyimli kishiga ko‘zim tushdi, u qoyadan-qoyaga o‘rmalardi, aftidan, dorivor giyoh izlardi. Unga yaqinlashganimda, qadam tovushlarimni eshitib, burilib qaradi, shunda sodda bir chehraga ko‘zim tushdi, biroq unda qandaydir g‘ayritabiyy g‘amginlik aks etib turardi. Qora sochlari ikki to‘onga qaytarilib, to‘g‘nog‘ich qadab qo‘yilgan, orqa qisini esa, yo‘g‘on qilib o‘rilib, tashlab qo‘yilgan. Kiyimiga qarab uni oddiy fuqaro ekan, deb o‘yladim, shu sababli uning nima bilan mashg‘ul ekanligiga qiziqsam, achchig‘i chiqmasa kerak, degan fikrda nima axtarayotganiri so‘radim.

– Gul axtaryapman, – javob berdi u chuqur uh tortib, – bircq uni topolmayapman.

– Hozir payti emas-da, axir, – dedim kulimsirab.

– Gullar judayam ko‘p, – dedi u yonimga tusharkan, – bog‘imda atirgul va xushbo‘y nastarinning ikki xili ‘sadi. Bittasini menga otam sovg‘a qilgan, u xuddi yovvovi o‘tdek o‘sib yotibdi. Ikki kundan buyon gul qidiramai.-u topolmayman. Bu yerda yalanglikda ham hamisha turfa xil: sariq, ko‘k, qizil gullar o‘sadi, chinnigul biram chiroyi gullaydiki. Bularning birortasini ham topolmayapman.

G‘alati bir hisdan seskanib ketdim-da, ehtiyyotlik bilan so‘radim:

– Gul sizga nega kerak bo‘lib qoldi?

Uning yuzi allaqanday talvasali iljayishdan burishib ketdi.

– Agar sirimni ochmasangiz, aytaman, – dedi u barmog‘ini labiga bosarkan, – men sevgilimga guldasta va‘da qilgandim.

– Juda yaxshi, – dedim men.

– O-o, unda busiz ham hamma narsa to‘lib yotibdi, u badavlat.

– Baribir unga sizning guldastangiz qimmatliroq, – dalda berdim unga.

– O, unda marvaridlar, toj ham bor, – davom etdi u.

– Uning ismi nima?

– Agar hukumat mening haqimni bergenida edi, boshqacha yashagan bo‘lardim. Bir vaqtlar men ham ko‘ngildagidek yashagan edim. Endi esa... ado bo‘lgan odamman!..

Osmonga tikilgan namli ko‘zlardan hamma narsani o‘qish mumkin edi.

– Demak, ilgari baxtli bo‘lgansiz? – so‘radim men.

– Oh, o‘sha kunlarga yana qaytsam edi! – dedi u, – “ paytlar men naqadar quvnoq, xuddi suvdagi baliqdek erkin yashardim.

– Haynrix! – qichqirdi yo‘l bo‘ylab shu yoqqa kela-yotgan kampir, – Haynrix, qayerga yo‘qolib ketding? Seni qidirmagan joyimiz qolmadi! Yur ovqatga!

– Bu Sizning o‘g‘lingizmi? – so‘radim kampirga ya-qinlashib.

– Ha, mening sho‘rpeshona o‘g‘lim, – javob berdi ayol, – Xudo boshimga og‘ir kun soldi.

– U ko‘pdan buyon shunaqami? – so‘radim yana.

– Yarim yildan beri mana shunaqa yuvosh bo‘lib qoldi, xudoga shukur. O‘tgan yili nihoyatda quturib ketganimidan jinnixonada zanjirda saqlashardi. Endi hech kimga yomonlik qilmaydi, nuql qirollar, podsholar haqida gapiradi. Biram yuvosh, bosiqqina edi! Dastxati juda chiroyli edi, qog‘ozlarni ko‘chirib yozar, shu yo‘l bilan tirikchilimga qarashardi. To‘satdan o‘ychan bo‘lib qoldi, isitma bilan og‘ridi, keyin quturib ketdi. Mana endi ko‘rib turibsiz, qanday bo‘lib qolgan... Men sizga aytsam, janob...

Men uning quyilib kelayotgan so‘zlarini bo‘ldim:

– U, bir vaqtlar erkin, baxtli yashagan edim, deydi, bu qachon bo‘lgan edi?

– Voy, ahmoqqina! – xitob qildi kampir, ayanchli jilmayib. – U aqldan ozib, jinnixonada yotgan davrini aytgan, shularni aytib, hamisha maqtanib yuradi.

Uning so‘zları miyamga yashindek urildi, ayolga bir tanga tutqazdim-da, ketishga shoshildim.

– Mana, sen qanday baxtli bo‘lgansan! – deyardim shahar tomonga jadal ketarkanman, – Mana, sen qanday erkin, suvdagi baliqdek yashagansan!

Yo, Parvardigori olam! Nahotki hali es-hushi quyilman yoki aqldan ozgan kishilarninggina peshonasiga baxt chizig‘i bitilgan bo‘lsa! Bechora! Sening aqldan ozib, telbalarcha tentirashingga qanchalik havasim keladi!

Sen qishda o‘z malikangga guldsta topish umidda kezib yuribsan! Gul topolmaganingdan kuyinasan, nega gul yo‘qligiga esa, aqling yetmaydi. Men bo‘lsam...

men... umidsiz, maqsadsiz uydan chiqib ketaman-da, yana o'sha ahvolda qaytib kelaman. Bordi-yu hukumat sening haqingni to'lasa, jannatdagidek yashashing mumkinligini xayol qilasan! Harqalay! Sen baxtlisan! O'z tolesizliging sababini hayotdagi to'siqlarga ag'dara olasan! Barcha ayb ado bo'lган yuragingda, aynigan miyangda ekanligini esa sezmaysan! Shu boisdan ham dunyodagi birorta podsho senga yordam berolmaydi.

Uzoq chashma sari yo'l tutib, umrining so'nggi daqi-qalarida o'z dardiga dard qo'shadigan, azoblarini battar oshiradigan jafokash ustidan kuluvchi kishiga la'natlar bo'lzin! Vijdon azobidan qutulish va yuragidagi g'amg'ussani yuvish uchun muqaddas qabr ustida bosh ega-digan baxtsiz oldida kekkayadigan kimsaga la'natlar bo'lzin!

Inson oyog'i tegmagan so'qmoqda tashlangan har bir qadamdan tovonlari shilinsa, jafokash banda bundan zar-racha bo'lsa-da, orom topadi va u, sayohatining har bir azobli kuni tugagach, kechasi tinchgina uxlab qoladi... Siz safsatabozlar esa, par to'shaklar ustida o'tirib olib, buni telbalik deb ataysizlar! Telbalik!.. O, Tangrim! Ko'z yoshlariimni o'zing ko'rib turibsan. Nechun axir, kishilar ni qashshoq qilib yaratganing yetmagandek, yana ularning oxirgi burdalarini, sendan, ha, sendan kutgan zar-racha marhamatlarini ham tortib oluvchi qarindoshlarini ularga ato etding, qudratli tangrim! Har bir shifobaxsh ildiz-u tok novdasining shirasiga umid ko'zi bilan qaray-miz, shu umid senga bo'lmay kimga? Negaki, sen bizni o'rab turgan tabiatga shifobaxsh va yaratuvchi kuch bag'ishlagansanki, bunga biz har vaqt muhtojmiz. Men

tanimaydigan otam! Avvaliga vujudimni to‘lqinlantirib, endi esa, mendan yuz o‘girayotgan otam! Meni o‘z yoningga chaqir! Sukut saqlama! Sukut saqlaganing bilan tashna qalbimni tinchitolmaysan...

Agar o‘g‘li kutilmaganda qaytib kelsa-yu otasining bo‘yniga osilsa-da: – Ota, mana men qaytib keldim! Mendan ranjima, sening istagingga ko‘ra hali uzoq cho‘zilishi lozim bo‘lgan safarimni to‘xtatib huzuringga keldim! Hayot hamma yerda bir xil: azob-uqubat chekib mehnat qilsang, quvonch va mukofotga erishasan. Menga bularning qizig‘i bormi? Sen qayerda bo‘lsang, menga o‘sha yerda yaxshi, azobni ham, rohatni ham sen bilan birga tortishni istayman! – desa, qaysi inson, qaysi ota o‘g‘lidan ranjiydi!..

Nahotki sen, qudratli otamiz, o‘z o‘g‘lingning ko‘kragidan itarsang?

1-dekabr

Vilhelm! Men senga yozganim o‘sha baxtli baxtiqaro Lottaning otasida mirza bo‘lib ishlagan va Lottaga nisbatan yuragida muhabbat uyg‘ongan, uni pinhon saqlashga uringan, biroq yashirolmagan, shu tufayli ishdan haydalib, keyin telba bo‘lib qolgan. Albert bu haqda menga beparvolik bilan gapirib bergenida (sen ham shunday beparvo o‘qisang kerak buni), ushbu voqeа meni qanchalik iztirobga solganini mana shu quruq so‘zlardan ham anglab olarsan.

4-dekabr

O‘tinaman... meni tushun, men ado bo‘ldim, ortiq chidashga toqatim qolmadi! Bugun uning huzurida

o‘tirdim... O‘tirdim, u bo‘lsa, fortepianoda turli kuylarni chalar hamda butun his-tuyg‘ularini ifodalardi! Hammasini!.. Hammasini!.. Qanday tushuntirsam ekan... Singlisi esa, mening tizzamda o‘tirib, qo‘g‘irchog‘ini bezatardi. Ko‘zlarimga yosh qalqdi. Engashganimda uning nikoh uzugiga ko‘zim tushdi... Ko‘z yoshlarim oqib tusha boshladi... U birdaniga o‘sha bizga tanish, nihoyatda nafis kuyni chalishga o‘tdi, qalbimga sokinlik yugurdi, o‘tmish – ilk bor shu kuyni tinglagan paytlar xotiramda jonlandi, g‘am-g‘ussaning, poymol bo‘lgan umidlarning mudhish chiziqlari ko‘z oldimdan o‘ta boshladi va... o‘rnimdan otilib turib xona bo‘ylab yura boshladim. Hislar tug‘yonidan nafasim qisilib ketdi.

– Xudo haqqi, o‘tinaman, chalmang! – xitob qildim, benihoya hayajonda unga otilarkanman.

U chalishdan to‘xtadi va menga tikilib qoldi.

– Verter! – dedi qalbni o‘rtovchi tabassum bilan, – Verter, Siz xastasiz, hatto eng lazzatli taomlarni ham ishtahangiz tortmaydi. Boring! Iltimos sizdan, tinchlaning!

Men uning oldidan chiqib ketdim... Tangrim! Alamlarimni ko‘rib turibsan, unga o‘zing xotima berarsan.

6-dekabr

Oh, bu qiyofa menga orom bermaydi! Tushimda ham, o‘ngimda ham qalbimni to‘ldirib turadi! Kipriklarimni yumganim zahotiyoq, u shu yerda, xuddi mana shu manglayim ichida, ko‘rish tomirlari tutashgan joyda uning qop-qora ko‘zları paydo bo‘ladi. Buni ifodalashdan ojizman! Ko‘zlarimni yumdirmi, bas, ular hozir bo‘lishadi!

Bamisli dengiz, bamisli tubsiz jarlikdek ular ko‘z oldimda, qalbimda namoyon bo‘ladi, ular borlig‘imni, butun tuyg‘ularimni egallagan.

Bu yarim xudo darajasidagi inson nimaga ham qodir?! Madadga muhtoj bo‘lgan eng zarur paytda kuchlari uni tark etmaydimi? Shodlik qanotida parvoz qilganda yoki g‘amga chulg‘anganda uni nimadir tutib qoladi va u mangulik olamiga g‘arq bo‘lib ketishni istab turgan lahzada, sovuq, hushyor ongini joyiga keltirib qo‘yadi.

Kitobxonqa noshirdan

Do‘stimizning so‘nggi muhim kunlaridan bizga uning dastxatiga taalluqli ma’lumotlar yetarlicha qolganida edi, unda men, u qoldirgan nomalarga ortiqcha izoh berib o‘tirmagan bo‘lardim.

Uning kechmishi bilan yaqindan tanish bo‘lgan kishilardan aniq ma’lumotlar to‘plashni o‘z burchim deb bildim; bu voqeа juda oddiy, ba’zi mayda-chuyda tafsilotlarni hisobga olmaganda, barcha ma’lumotlar bir-biriga deyarli to‘g‘ri keladi; faqat voqeа qahramonlarining xarakterlari haqida turlicha mulohaza yuritadilar va bunga har xil baho beradilar.

Bizga esa, zo‘r mashaqqat bilan to‘plangan narsalarni marhum qoldirgan xatlarga qo‘shib, hatto topilgan eng kichik qog‘ozlarni ham diqqatdan chetda qoldirmasdan bataysil hikoya qilib berishgina qoladi; donishmand kishilar xususida gap ketganda, ulardagi har bir harakatning tub sababini ochib berish qanchalik qiyinligini ham eslatib o‘tamiz.

Azob va g‘am-g‘ussa Verter yuragida borgan sari chuqur ildiz otdi va yanada mahkamroq o‘rnashib, butun

borlig‘ini chulg‘ab ola boshladi. Undagi ma’naviy so-kinlik tamoman buzilgan edi, tomir-tomirigacha larzaga solgan ichki bir tug‘yon va hayajon unga halokatli ta’sir ko‘rsatdi hamda butunlay holdan toydirdiki, bunga qarshi u, shu paytgacha barcha dardlarga qarshi kurashganidan ham mardonavorroq kurashdi.

Qalbidagi iztirob boshqa hamma ma’naviy kuchlar ni, undagi jo‘shqinlikni ham, o‘tkir aqlini ham yemira bordi, u kishilarga qo‘silmay qo‘ydi, baxtsizligini qanchalik his etsa, shunchalikadolatsizroq bo‘la bordi. Bu haqda qisman Albertning do‘stlari gapisirishardi; ularning ta’kidlashlaricha, Albert o‘zining uzoq kutgan baxtiga erishib, uni kelgusida ham saqlab qolishga intilgan, Albertdek muloyim va vijdonli odam haqida bor-yo‘g‘ini bir yo‘la sarflab, oxiri azobga chidashdan o‘zga iloji qolmaydigan Verter to‘g‘ri fikr yuritolmadidi. Albert esa, deyishadi uning o‘rtoqlari, ana shu qisqa vaqt ichida hech bir o‘zgarmadi, Verter uni boshdanoq qanday bilgan, qanday hurmat qilgan va qadrlagan bo‘lsa, o‘sha-o‘shaligicha qolaverdi. Albert Lottani jondan sevardi, u bilan faxrlanardi va uni hamma dilbar ayol sifatida hurmat qilishini istardi. Uning zarracha ham gumonni xayoliga keltirolmasligi, bitoror kimsa bilan o‘zining bu qimmatli xazinasini, hatto eng iffatli ma’noda ham, bir zumga bo‘lsa-da, bo‘lishishni istamagani uchun uni ayplash adolatdanmi? O‘rtoqlarining aytishicha, Albert ko‘pincha, Verter o‘tirganida xotining xonasidan chiqib ketarkan, buni u, achchig‘idan yoki do‘stidan rashk qilib emas, balki o‘zining huzurida Verterning qiynalishi tufayli qilgan.

Lottaning otasi betob bo‘lib uydan chiqolmay qolgach, u qiziga faytun yuborgan va Lotta otasinikiga ketgan. Ochiq qish kuni. Birinchi qalin qor hamma yoqni qop-lagan.

Ertasi kuni Verter, mabodo Albert uni olib kelishga bormasa, Lottani uyiga kuzatib kelish maqsadida o‘scha yoqqa ketgan.

Ochiq havo ham uning mungli kayfiyatini ko‘tarolmadi, yuragi qattiq siqilardi, ko‘z oldiga faqat ayanchli manzalarlar kelar, dahshatli xayollar iskanjasidan qutulolmasdi.

O‘z ishlari mudom o‘ngidan kelmagani sababli, bosh-qalarning ahvoli ham unga ixtilofli va notinch tuyulardi, u Albert bilan xotini o‘rtasidagi shirin totuvlikni buzdum, deb o‘ylar, buning uchun o‘zini koyirdi, shu bilan birga Albertdan pinhona ranjirdi ham.

Yo‘l-yo‘lakay ham shu haqda o‘ylab ketdi.

– Ha, ha, – derdi u o‘zicha yashirin bir alam bilan, – shu ham endi samimiy mehribonlik, bir-biriga iltifotli munosabat, buzilmas sadoqat bo‘ldimi? Bu to‘yish va be-parvolikdan bo‘lak narsa emas! Sevimli, go‘zal xotinidan ko‘ra, uni boshqa arzimas ishlar ko‘proq o‘ziga tortmay-dimi? U xotinini qadrlay oladimi, axir Lotta bunga loyiqliku! Lotta uniki, ha, uniki... bu menga ma’lum, boshqa ko‘p narsalarni bilganimdek, buni ham bilaman; bunga go‘yo ko‘nikib qolgan bo‘lsam-da, bu fikr meni baribir aqldan ozdiradi, halok etadi... Menga nisbatan do‘stlik sinovdan o‘toldimi? Lottaga bo‘lgan mehribonligimni, u, o‘z huquqlariga tajovuz deb, e’tibor bilan qarashimni esa, pinhoniy ta’na deb tushunmaydimi? U meni ko‘rishni

istamasligini, ketishimni xohlashini, meni ko'rish unga og'irligini sezaman, bu menga ravshan.

Verter jadal odimini qadam-baqadam sekinlatar, to'xtab qolar va orqaga qaytmoqchi ham bo'lardi, lekin yana yo'lida davom etardi va o'z-o'zi bilan so'zlashib, mulohaza yuritardi. Shu tariqa o'z istagiga qarama-qarshi holda ovchilar saroyiga yetib keldi.

U ichkariga kirib, mo'ysafidni va Lottani so'radi, uyda allaqanday notinchlikni sezdi. Bolalarning kattasi unga Valhaymda baxtsizlik yuz bergenini, bir dehqon o'ldirilganini aytdi. Bu xabarga u e'tibor qilmadi. Verter xonaga kirganda, Lotta otasini ko'ndirish bilan ovora edi, chunki qariya, xastaligiga qaramasdan voqeа sodir bo'lgan joyga borib, tafsilotni bilishni istardi. Jinoyatchi hali aniqlanmagan, o'likni tongda ostonadan topishibdi, ba'zi gumonlar ham bor: marhum bir beva ayolnikida xizmatkor bo'lib ishlagan, o'sha ayolning ilgari boshqa xizmatkori bo'lgan-u u bilan janjallashib haydab yuborgan.

Bu so'zlarni eshitgach, Verter o'midan otilib turdi.

– Nahotki! – xitob qildi u, – men ketdim, shu zumdayoq o'sha yerda bo'lishim kerak. U Valhaymga qarab shoshildi, xotiralar ko'z oldida jonlandi, u bilan bir necha marta muloqotda bo'lgan va unga shunchalik yaqin bo'lib qolgan o'sha yigit suiqasd qilganiga zarracha shubha qilmasdi.

Jasad qo'yilgan o'sha oshxonaga borish uchun unga arg'uvon daraxtlari ostidan o'tishga to'g'ri keldi, avvallari sevimli bo'lgan joy bu gal uni dahshatga soldi.

Shu atrofdagi bolalar tez-tez o'ynaydigan ostona qonga belangan edi. Muhabbat va sadoqatdek eng oliv inso-

niy tuyg‘ular oxiri zo‘rlash va o‘limga olib kelgan. Ulkan daraxtlar qip-yalang‘och bo‘lib, qirov bosib yotardi, cherkovni o‘rab olgan pastakkina devordan mo‘ralab turgan shoxlardagi barglar to‘kilib ketgan, qabr toshlari qalin qordan bosh chiqarib turishardi.

Oshxona oldiga butun qishloq to‘plangandi. Verter u yerga yaqinlashayotganida birdaniga g‘ala-g‘ovur ko‘tarildi. Uzoqdan bir to‘da qurollangan kishilar ko‘rindi va hamma, qotilni olib kelishyapti, deb qichqirishardi. Verter qarab, o‘z fikrining to‘g‘riligiga ishonch hosil qildi. Ha! Bu o‘z bekasini sevib qolgan xizmatkor yigit edi. Verter yaqindagina sho‘rlikni pinhoniy g‘azabda, o‘zicha umidsizlanib yurgan holda uchratgan edi.

– Nima qilib qo‘yding, baxtiqaro! – qichqirdi Verter, mahbus tomonga otilarkan.

U Verterga c , chan tikilib turdi va nihoyat xotirjam ohangda: – U hech kimga nasib ham etmaydi, boshqa birov ham unga muyassar bo‘lmaydi! – dedi.

Mahbusni oshxonaga olib kirib ketishdi, Verter esa, ketishga oshiqdi.

Bu musibatli, dahshatli hodisa Verterning barcha fikr-o‘ylarini ostin-ustun qilib yubordi. Undagi alam, umidsizlik va beparvolik bir lahzada g‘oyib bo‘ldi. Uni rahm-shafqat tuyg‘usi egallab oldi, unda o‘sha odamlari qutqazishga bo‘lgan jo‘shqin istak paydo bo‘ldi. Verter yigitni shunchalik baxtsiz deb his qilar, uni qotil sifatida shu qadar oqlar, o‘zini uning o‘rniga qo‘yib ko‘rar va boshqalar ni ham bunga ishontira olishiga imoni komil edi. U o‘sha baxtiqaroni himoya etishni istardi, qaynoq so‘zlar hoziroq lablaridan otilib chiqishga shay edi, u ovchilar uyiga

shoshilarkan, amtmanga bayon qiladigan barcha asoslari ni yarim ovozda o‘zicha pishitib borardi.

Xonaga kirarkan, u yerda Albertga ko‘zi tushdi va bir zum dovdirab qoldi, ammo tezda o‘zini o‘nglab oldida, fikrini amtmanga yonib tushuntira ketdi. Amtman bir necha marta boshini chayqab qo‘ydi. Birov ikkinchi bir kishini oqlash uchun nimalar deyishi kerak bo‘lsa, Verter ham mahbus haqida qanchalik qizg in, chin yurakdan to‘lib-toshib gapirmas, o‘z-o‘zidan ma’lumki, bu so‘zlar qariyaga ta’sir o‘tkazolmadi. Aksincha, u do‘stimizning so‘zini bo‘lib, unga keskin e’tiroz bildirdi. Qotilni himoya qilishni o‘z bo‘yniga olayotgani uchun koyiy boshlad. Qariya, bunday qilingan taqdirda har qanday qonun ham bekor qilinib, davlat tartiblariga hech qanday hojat qolmasligini va buni qonun yo‘li bilan hal qilish lozimligini ham qo‘shib qo‘ydi.

Baribir, Verter o‘z fikrida turib olib, amtmandan, mabodo mahbusni qochirib yuborish imkonini bo‘lsa, buni sezib-sezmaganlikka olishini o‘tinardi. Amtman bunga ham rozi bo‘lmadi. Nihoyat, suhabatga Albert aralashdi va u ham qariyaning fikrini yoqladi. Verter yakkalanib qoldi, amtman bir necha marta «Uni qutqazib bo‘lmaydi!» deya takrorlagach, Verter qattiq iztirobda uyiga ketib qoldi.

Bu so‘zlar Verterni o‘rtab yuborganini uning qog‘ozlari orasidan topilgan, aftidan, o‘sha kuni yozilgan xatchadan ham payqash mumkin:

«Seni qutqazib bo‘lmaydi, baxtiqaro! Bizni qutqazib bo‘imasligini bilib turibman!»

Albertning amtman huzurida mahbus ishi yuzasidan aytgan gaplari Verterga qattiq tegdi. Nazarida, bu so‘zlar

o‘ziga ham tegishlidek tuyuldi, garchi u aql bilan mulo-haza yuritib, ularning har ikkalasi ham xaq ekanliklariga ishonsa-da, unda shunday tuyg‘u bor ediki, ularning haq-ligini tan olgan taqdirda o‘z ichki asoslaridan qaytadigan-dek tuyulardi.

Uning qog‘ozlari ichidan shu masalaga taalluqli bo‘lgan va ehtimol, uning Albertga munosabatini ifoda-laydigan quyidagi xatchani topib oldik:

«U sofdil va vijdonli, deb o‘zimga qayta-qayta uqtir-ganimdan nima foyda; bu ich-ichimni kemirib tashlayapti; men adolatli bo‘lолmayman».

* * *

Kechqurun havo iliq bo‘lib, atrofdagi qorlar eriy bosh-ladi. Shu sababli Lotta bilan Albert uyga piyoda ketishdi.

Yo‘lda u xuddi Verterni qidirgandek, atrofga alanglar-di. Albert Verter haqida gap boshladi, undagi fazilatlarni tan olsa-da, uni aybladi. Gap orasida u Verterning baxtsiz sevgisiga ham til tegizib o‘tdi va uni uzoqlashtirsa, yaxshi bo‘lardi, deb qo‘shib qo‘ydi.

— Buni o‘zimiz uchun yaxshi bo‘ladi, deb o‘ylay-man, — dedi u, — o‘tinaman sendan, uning senga bo‘lgan muomalalariga nisbatan munosabatingni o‘zgartirishga, biznikiga tez-tez kelishlariga chek qo‘yishga urin, eshit-gan quloqqa yaxshi emas. Allaqachon mish-mishlar tar-qalganini eshitdim.

Lotta jim bo‘lib qoldi. Aftidan bu Albertni ranjitib qo‘ydi, har holda, u shu paytgacha Lotta oldida Verter xususida gapirmasdi, agar Lottaning o‘zi bu to‘g‘rida og‘iz ochsa, u gapni bo‘lar yoki boshqa yoqqa burardi.

Baxtsiz kimsani qutqazishga bo‘lgan behuda urinish so‘nayozgan olovning oxirgi yolqini edi. Shundan keyin Verter battar g‘am-g‘ussa va beparvolikka chulg‘andi, uni endi hamma qilmishlarini inkor qilayotgan ayblanuvchiga guvohlikka chaqirib qolishlari mumkin, degan xabarni eshitganda, aqldan ozayozdi.

Ilgari ishlab yurgan paytalaridagi boshiga tushgan xo‘rliklarni, elchixonadagi ko‘ngilsizliklarni, nimadan ishi yurishmaganini va nimadan ranjiganini, hamma-hammasini xayolidan birma-bir o‘tkazdi. Shular bilan go‘yo o‘z g‘ayratsizligini oqlamoqchi bo‘lardi, u o‘zini istiqbol-dan tamoman ajralgan, kundalik hayotdagi yumushlarni bajarishga noqobil deb hisoblay boshladи. Shu tarzda, ming xil o‘y-fikrlar, tuyg‘ular girdobida aylanib, go‘zal va sevimli ayol huzurida mudom bir xil, quvonchsiz dam-larni o‘tkazdi, uning osoyishtaligiga xalal berdi. Nihoyat, o‘z kuchlarini maqsadsiz-nesiz behudaga sarflab, ularni ishdan chiqarib, borgan sari halokatga yaqinlasha bordi. Uning iztirob va alamlari, orom bilmasdan o‘zini har yoqqa urishlari, yashashdan toliqqani haqida o‘zi qoldirgan bir necha xatlar yaqqol guvohlik beradi, quyida shu xatlarni keltiramiz.

12-dekabr

Odamlar ba’zi bir baxtsizlarni ko‘rishsa, sho‘rlik, savdoyi bo‘libdi, deya gapirishadi. Qimmatli Vilhelm, mening ham boshimga hozir o‘sha kun tushgan. Goho meni nimadir qiynay boshlaydi: bu qo‘msash ham, ehtiros ham emas, qandaydir, ko‘ksimni yorib chiqishga, tomog‘imni bo‘g‘ishga intiluvchi noma’lum ichki bir tug‘yon! Azob!

Azob! Shunda men, mana shu kimsasiz qish faslida zulmat tun qo‘ynida tentiragani chiqib ketaman.

Kecha kechqurun shahar tashqarisiga chiqib ketgim keldi. Havo birdaniga isib ketdi, eshitishimcha, daryo qirg‘oqdan toshib, anhor pishqirib, sevimli vodiyni – Valhaymgacha suv bosib ketgan mish! Kechasi soat o‘n birda o‘sha yoqqa yugurdim. Cho‘qqidan turib, pastga, dahshatli oqimning oy nurida jo‘sh urishini, chakalakzor, o‘tloq, dala, xullas, butun vodiyni bosib, shamol uvillashi ostida bamisol dengizdek quturishini kuzatish qo‘rqinchli edi! Oy yana qora bulutlar ortidan mo‘ralab, oqim ko‘z oldimda vahima bilan yaraqlab shovullaganida meni qandaydir titroq va qo‘msash hissi qamrab oldi! Oh, tubsiz jarlik tepasida qo‘llarimni yozib turarkanman, meni nimadir pastga undardi! Pastga! Rohat og‘ushida esdan og‘ayozdim. Oh, barcha azob-u iztiroblarim bilan o‘zimni pastga uloqtirsam! To‘lqinlar yanglig‘ ko‘pirib-toshsam! Oh!.. Oyoqlarimni shundoq yerdan uzib, azoblarimga chek qo‘yolmadim-a!.. Hali kunim bitmabdi! Buni bilib turipman! O, Vilhelm! Anavi dovulga qo‘silib, bulutlarni tit-pit qilish, to‘lqinlarni quchish uchun borlig‘imni jon deb bag‘ishlagan bo‘lardim! Eh! Nahotki mahbusga bunday rohat biror marta nasib etmasa?..

Men quyiga, Lotta ikkimiz jazirama kunda sayrdan so‘ng majnuntol ostidagi dam olgan joyimizga alam bilan nazar tashladim: u yerlarni ham suv bosib ketganligi sababli majnuntolni zo‘rg‘a tanidim! Vilhelm! Ovchilar saroyining atrofi, o‘tloqlar, bizning ayvonchamiz ham hozir selda qolgandir! – deya o‘yladim. Mahbusning tushiga yaylov, podalar, e’tiborli vazifalar kirganidek, mening qalbimga ham o‘tmish xayollari nurdek yog‘ilardi!

Shu taxlit turaverdim! O‘zimdan norozi emasman, chunki o‘limdan qo‘rqlayman... Yaxshisi men... Shu yerda turibman-u o‘zimni, taxta devorlardan payraxa terib, har eshikdan bir burda non tilab, o‘zining ayanchli va mazmunsiz hayotini birozgina bo‘lsa-da, uzaytirish va yengil-lashtirishga intiluvchi tilanchi ayolga o‘xshataman.

14 dekabr

Aziz do‘stim, bu nimasi? O‘z-o‘zimdan vahimaga tushaman! Men uni eng muqaddas, eng samimiylar va sof muhabbat bilan sevmasmidim? O‘shanda yuragimda jino-yatkorona istaklar ham yashirinib yotmaganmidi? Inkor qilmayman... Bugungi tushni aytmaysanmi! O, qaramaqarshiliklar sababini begona kuchlardan izlagan kishilar qanchalik haqli! Bugungi tun!.. Hatto aytishga qo‘rqaman, u mening og‘ushimda emish, uni bag‘rimga bosib muhabbat so‘zlarini shivirlayotgan lablarini sonsiz bo‘salarga ko‘mib tashlabman. Mening nigohim uning sarxushlikdan xiralashgan ko‘zlarida g‘arq bo‘lib ketganmish! Yo, parvardigor! Nahotki men o‘sha qaynoq quvonchni to‘lato‘kis qayta his etib, lazzatini totayotganim uchun gunohkor bo‘lsam? Lotta! Lotta!.. Bardoshim tugadi! Misoli telbaman, bir haftadan buyon hech narsani idrok etolmayman, ko‘zlarimdan yosh arimaydi. Hamma joy menga bir-dek: ham yaxshi, ham yomon. Biror istagim ham yo‘q, talabim ham. Yaxshisi, butunlay ketganim ma’qul.

* * *

Hayotdan ketish haqidagi qaror shu kezlarda, mana shunday sharoitda Verter qalbidan yanada chuqurroq

joy oldi. Lotta yoniga qaytganidan buyon bundan o‘zga panohi va umidi qolmagan edi; lekin u, bu ishni shoshma-shosharlik bilan emas, balki mulohaza yuritib, iloji boricha aniq qarorga kelib, tinch amalga oshirish uchun o‘ziga so‘z berdi.

Undagi ikkilanish, o‘z-o‘zi bilan kurash, qog‘ozlari orasidan topilgan, sanasi qo‘yilmagan, aftidan, Vilhelmgaga yozilgan xatda ko‘zga tashlanib turadi:

«Uning hozirligi, uning taqdiri, mening qismatim uchun qayg‘urishi – ko‘zlarimdan oxirgi yoshlarni buloq-dek oqizmoqda.

Pardani ko‘tarsang-da, uning ortiga o‘tsang! Shu bilan tamom! Nega ikkilanamiz va imillaymiz? Uning ortida nima borligini bilganimiz tufaylimi? U yoqdan ortiq qaytish mumkin emasligi uchunmi? Yana shuning uchunki, o‘zimiz o‘sha haqda aniq bir narsa bilmasak-da, u yerda qorong‘ilik va bo‘shliqni tasavvur qilishga odatlanib qolganmiz».

Nihoyat, u ana shu g‘amgin fikrga borgan sari ko‘proq bog‘landi va qat’iy qarorga keldi, uning do‘stiga yozgan quyidagi mujmal xati bundan guvohlik beradi.

20 dekabr

Vilhelm, bunday iltifoting uchun minnatdorman. Ha, sen haqlisan: men ketsam yaxshiroq bo‘lardi. Yonimizga qayt, degan taklifing menga uncha to‘g‘ri kelmaydi, men biroz aylanib bormoqchiman, ayniqsa, hozir tinimsiz sovuq, hali yo‘llar yaxshi bo‘lar, degan umiddamiz. Meni olib ketish uchun kelishingdan behad mammunman, ikki haftacha sabr qil va mening kelgusi rejalarim haqida-

gi xabarimni kut: meva pishgunicha uni uzmashlik lozim. Ikki haftada ko‘p narsa hal bo‘ladi. Onajonimga aytki, u o‘g‘li uchun xudoga sig‘insin va unga yetkazgan alamlarim uchun meni kechirsin. Mening qismatim shu: kimga quvonch keltirishim lozim bo‘lsa, o‘shani azoblayman. Xayr, qimmatli do‘stim! Seni xudo o‘z panohida asrasin! Xayr!

* * *

Bu orada Lottaning qalbida nimalar sodir bo‘ldi, eriga va baxtsiz do‘stiga nisbatan tuyg‘ulari qanaqa edi – bularni so‘z bilan ifodalashga qodir emasmiz, uning tabiatini bilganimiz uchun, ko‘p narsani o‘zimiz tushunib olamiz, har qanday sof ayol qalbi esa, uning qalbini tasavvur qiladi va uni anglashga qodir.

Shunisi ravshanki, u Verterni uzoqlashtirish maqsadida qo‘lidan kelgan hamma narsani qilish uchun qat’iy qarorga keldi, lekin u ikkilanar, Verterga do‘stlarcha yurakdan achinardi, chunki bu, Verter uchun deyarli bajarib bo‘lmaydigan g‘oyat og‘ir vazifa ekanligini aniq bilardi. Ammo, sharoit undan jiddiy harakat qilishni talab qilardi; eri ham Lottaga o‘xshab endi bu masalada og‘iz ochmay qo‘ydi, shunday bo‘lsa-da, Lotta qalban unga sodiqligini amalda isbotlash uchun iloji boricha urinardi.

Xuddi o‘sha, Verter yuqoridagi xatni yozgan rojdestvo bayramidan oldingi yakshanba kuni kechqurun u Lottaning oldiga keldi, Lotta yolg‘iz edi. U ukalari va singillariga atab bayramga sotib olgan o‘yinchoqlarini tartibga solish bilan ovora edi. Verter, bundan bolalarning behad quvonishlarini aytdi va ilgarilar, eshik qo‘qqisdan ochilib

olmalar, shirinliklar, mum shamlar bilan bezatilgan go'zal archaga ko'zi tushganda hayratdan dong qotgan paytlarini esladi.

— Agar bama'ni bo'lsangiz, Siz ham sovg'a olasiz, — dedi Lotta, sarosimada ekanini yoqimli tabassumi bilan yashirarkan, — sizga bir o'ram shamcha va yana u-bu narsalar tegadi.

— Sizningcha, bama'ni odam qanday bo'ladi? — qizishdi u, — Lotta, azizim! Men qanday bo'lay, o'zimni qanday tutay?

— Payshanba kuni kechqurun arafa, otam bilan hamma bolalar kelishadi, har kim o'ziga atalgan sovg'ani oladi, — dedi Lotta. — O'shanda siz ham keling, faqat belgilangan vaqtida. (Verter taraddudlandi.) O'tinaman sizdan, — davom etdi u, — shunday bo'lishi kerak, hech bo'lmasa mening tinchligimni ayang, bu hol davom etishi mumkin emas.

Verter burilib ketdi va xonada u yoqdan-bu yoqqqa yurar ekan, o'zicha sekin takrorladi: «Bunday davom etishi mumkin emas!» O'zining so'zлari uni qanchalik dahshatga solganini sezgan Lotta uning fikrini boshqa mavzuga tortishga urindi, biroq endi foydasiz edi.

— Yo'q, Lotta! — xitob qildi u, — men sizni boshqa ko'rmayman!

— Nega unaqa deysiz? — e'tiroz bildirdi Lotta, — siz biz bilan ko'rishib turasiz, shunday bo'lishi kerak ham, Verter, faqat o'zingizni bosing! Oh, nega bunchalik qiziqqon, tutingan narsangizga bu qadar qizg'in beriluvchan bo'lib tug'ilgansiz-a? O'tinaman! — takrorladi u Verterning qo'lidan tutarkan, — og'ir bo'ling! Sizdagi bilim, zuk-

kolik, iste'dod Sizga qanchalik huzur-halovat keltirishi mumkin! Yigit bo'ling! Sizga faqat achinishgina qo'lidan keladigan kimsaga befoyda bog'lanishdan voz keching!

U tishlarini qisib, Lottaga alam ichida tikildi. Lotta esa, uning qo'lini qo'yib yubormasdan, so'zida davom etardi:

– Bir zumgina o'zingizga keling, Verter! Nahotki, o'z-o'zingizni aldayotganingizni, bila turib o'zingizni halokatga eltayotganingizni sezmasangiz? Mening sizga nima keragim bor? Verter, men birovga bag'ishlanganman-ku, axir! Kuyinishdan ne hojat? Oh, qo'rqaman, qo'rqaman, balki bu menga yetishish imkonni yo'qligi tufaylidir, axir bu shirin orzu xolos-ku?

Verter qo'lini tortib oldi va unga g'azabli nazar bilan tikildi.

– Oqilona, o'ta oqilona gap! – dedi u, – ehtimol, bu Albertning fikridir? Nozik! Nihoyatda nozik fikr!

– Har qanday odam ham shunday qilishi mumkin, – javob berdi Lotta, – nahotki dunyoda sizning yuragingizdan joy oladigan boshqa qiz topilmasa? O'zingizni qo'lga oling, ont icharnanki, Siz uni topasiz; ko'pdan buyon Siz uchun ham, o'zim uchun ham qo'rqaman; Oxirgi paytlarda benihoya azob iskanjasida qolgansiz. O'tinaman, o'zingizni qo'lga oling. Sayohat, albatta, ruhingizni yengillashtiradi! Izlang, muhabbatingizga loyiq kimsani topasiz, o'shanda yana qaytib keling, haqiqiy do'stlik huzurini birgalashib totamiz.

– Bu gaplarni nashr etsa bo'ladi! – dedi Verter sovuq jilmayib, – toki hamma tarbiyachilar bundan o'rnak olsin-

lar! Azizim Lotta! Yana biroz sabr qiling, meni bezovta qilmay turing, hammasi joyida bo‘ladi!

– Faqat bir shart bilan, Verter! Bayramga belgilangan vaqtda keling!

U javob berishga ulgurmagan ham ediki, xonaga Albert kirib keldi. Ular sovuq salomlashishdi va dovdiranlaricha xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshlashdi. Verter qandaydir bir mavzuda gap boshladi, lekin gap qovushmadi. Albert ham shunga urinib ko‘rdi, so‘ngra xotinidan ba’zi bir topshiriqlari haqida so‘radi va ular hali bajarilmaganini eshitgach, Lottaga (xuddi Verterga tuyulganidek) sovuq va qo‘pol javob qaytardi. Verter ketmoqchi bo‘ldi, bir qarorga kelolmasdan, soat ikkigacha imilladi, bu orada undagi alam va g‘azab yanada o‘sma bordi; nihoyat, kechki ovqat tayyor bo‘lganda, shlyapa va tayoqchasini qo‘lga oldi. Albert uni qolishga undadi, lekin u buni shunchaki rasmiyatchilik, deb tushundi-da, sovuq minnatdorchilik bildirib, chiqib ketdi.

Uyiga qaytgach, yoritib turmoqchi bo‘lgan xizmatkorini qo‘lidan shamni oldi-da, xonaga yolg‘iz o‘zi kirdi va o‘ksib-o‘ksib yig‘ladi; keyin darg‘azab holda o‘ziga-o‘zi so‘zlarkan, xonada jadal yura boshladi, oxiri yechinmasdan o‘zini to‘shakka otdi, soat o‘n birlarga yaqin ichkariga kirishga va xo‘jayinning etigini yechib qo‘yishni so‘rashga jur‘at etgan xizmatkori uni shu ahvolda ko‘rdi. Verter etigini yechib qo‘yishga rozi bo‘ldi, u xizmatkoriga, ertaga o‘zi chaqirmagunicha xonaga kirishni man etdi.

Yigirma birinchi dekabr dushanba kuni tongda, u Lottaga quyidagi nomani bitdi, bu uning o‘limidan keyin yozuv stoli ustidan surg‘ichlangan holda topilgan va Lottaga

keltirib berilgan; aftidan, o'shandagi sharoit taqozosiga ko'ra, maktub bo'lib-bo'lib yozilgan, men ham uni quyida qismlarga bo'lib sizga havola qilaman.

«Lotta, hammasi hal bo'lган, men o'lishim kerak va bu to'g'rida hech qanday romantik xayollarga berilmasdan, beparvo, seni so'nggi marta ko'radigan kun subhidamida yozyapman. Ushbu satrlarni o'qiyotgan vaqtingda, azizim, hayotining oxirgi daqiqalarida sen bilan muloqotda bo'lishdan o'zga rohatni bilmagan beorom jafokashning qotgan jasadini sovuq qabr o'z bag'riga olgan bo'ladi. Oh! Bu tun men uchun ham dahshatli, ham lazzatli bo'ldi! Shu kecha davomida qarorim aniqlandi va mustahkamlandi: men o'lishim kerak! Kecha, qattiq sarosimada huzuringdan chiqqanimda, bor hislarim yuragimdan toshib ketdi va sening oldingda umidsiz, quvonchsiz xo'rланishdan ko'ra, o'zimga o'limni afzal ko'rdim!.. Xonamga arang yetib keldim, o'zimni yo'qotgan holda tiz cho'kdim, o, Tangrim! Sen menga qaynoq ko'z yoshlarining oxirgi lazatini ato etding! Miyamda minglab niyat, minglab umidlar aylanishardi, biroq nihoyat, so'nggi, yagona, qat'iy fikr mustahkam o'rin oldi: men o'lishim kerak! Uxlashga yotdim, bugun tongda, uyqudan keyingi sokin miyada ham xuddi o'sha qat'iy va mustahkam hukm turardi: men o'lishim kerak! Bu ikkilanish emas, yo'q, o'zim ana shu qat'iy qarorga keldim va sen uchun o'zimni qurban qilaman. Ha, Lotta! Yashirishning nima hojati bor? Uchchalamizdan birimiz ketishimiz lozim, men ketaman! O, azizim! Bu azoblangan yurak ko'p martala... sening eringni o'ldirishga ham... urinib ko'rgan... Seni ham!.. O'zimni!.. Mayli, shunday bo'la qolsin!.. Ochiq yoz kechalari toqqa

chiqqaningda men haqimda, mening ko‘pincha vodiy bo‘ylab yuqoriga ko‘tarilganimni esla, so‘ngra, qabristonga, botib borayotgan quyosh nurida ustidagi baland o‘sgan o‘tlarni shabada tebratayotgan qabrimga nazar tashla... Yoza boshlagan paytimda tinch edim, hozir esa, hamma narsa ko‘z oldimda jonlanib, go‘dakdek ko‘z yosh to‘kyapman...»

* * *

Soat o‘nlarga yaqin Verter xizmatkorini chaqirdi-da, kiyinayotib yaqinda jo‘nab ketish taraddudida ekanligini aytdi, shuning uchun kiyimlarini tozalab, hamma narsani yo‘lga taxt qilib qo‘yishni tayinladi; bundan tashqari, hamma bilan hisob-kitobni to‘g‘rilashni, boshqalardagi kitoblarni yig‘ishtirib kelishni, har hafta o‘zi yordam berib turadigan kambag‘allarga esa ikki oylik yordam pulini hozirdan to‘lab qo‘yishni buyurdi.

U tushki ovqatni xonasiga keltirishni so‘radi va stol yonidan turib to‘g‘ri amtmannikiga ketdi, lekin uni uydandan topmadi. Go‘yo barcha so‘nggi xotiralar yukini o‘z gardaniga olmoqchi bo‘lgandek, bog‘da o‘ychan kezib yurdi.

Biroq bu tanholik uzoq davom etmadi, bolalar uning yoniga yugurib kelishib, unga osilib olishdi-da, ketma-ket bidirlay ketishdi: erta, ertadan keyin va yana bir kun o‘tgach, ular Lottanikiga archa bayramga borishadi, sovg‘alar olishadi; ular o‘zlarining bolalarcha xayollari va’da qilgan har xil ajoyibotlarni hikoya qilishardi.

– Ertal! Ertadan keyin va yana bir kun o‘tgach! – dedi Verter, ularning hammasini samimiy quchdi va ketishga

chog'landi, shunda eng kenjası uning qulog'iga nimadir shivirladi va sirni olib qo'ydi: katta akalari chiroyli yangi yil tabriklari yozishgan! Biram kattaki! Bittasi otalari uchun, ikkinchisi Albert va Lottaga atalgan, janob Verterga atalgani ham bor, bularni yangi yil kuni ertalab taqdim etishadi.

Bu gaplar uni holdan toydirdi, u bolalarning har biriga bir tangadan bergach, otasiga salom aytishlarini so'rada, otga sakrab mindi va ko'zlar yoshga to'lib jo'nab ketdi.

Soat beshlarga yaqin uyga qaytib keldi va pechkaning tungacha yonib turishidan xabardor bo'lishni oqsoch qizga tayinladi. Xizmatkoriga esa kitob va ichki kiyimlarini chamadonning eng tubiga joylashtirishni va ko'ylaklarini tikishni buyurdi. Aftidan, shundan keyin, Lottaga atalgan so'nggi xatning quyidagi satrlarini qog'ozga tushirdi.

«Sen meni kutmayapsan! Bayramgacha ko'rishmaymiz, deb o'layapsan? Yo'q, Lotta! Bugun yoki hech qachon! Bayram kuni sen bu xatni titragancha qo'llaringda tutib, aziz ko'z yoshlaring bilan ho'l qilasan. Men o'lishim kerak va shunday bo'ladi ham! O, qarorim qat'iyligidan qanday shodman!»

* * *

Bu orada Lotta g'alati ahvolga tushib qoldi. Verter bilan bo'lgan suhbatdan keyin, bir-birlaridan ajralish qanchalik og'ir bo'lishini, Verter ham bundan behad iztirob chekishini his etdi. Albert huzurida u, Verterning bayramgacha kelmasligini gap orasida eslatib qo'ydi va Al-

bert ish yuzasidan qo'shni qishloqqa bir xizmatchinikiga jo'nab ketishini hamda bugun qaytmasligini aytdi.

Mana, u yolg'iz. Ukalari va singillaridan birortasi ham yonida emas, o'z ahvoli haqida chuqur o'yga tolib o'tiribdi. U Albertga bir umr bog'langan, undagi muhabbat va sadoqatni his qiladi; o'zi ham qalban unga sodiq, undagi qat'iylik va vafodorlik go'yoki bir sofdil ayol ularning hayotlarida baxt yaratishi uchungina mavjuddek tuyuladi unga; o'zi va bolalari uchun bu odam qay darajada ahamiyatli ekanini u tushunadi. Shu bilan birga, Verter ham unga g'oyat qimmatli bo'lib qolgan; tanishuvlarining dastlabki lahzalaridanoq ulardagi ruhan uyg'unlik yaqqol ko'zga tashlangan, u bilan shu paytgacha bo'lgan munosabat va boshdan kechirgan ko'p voqealar Lotta qalbida o'chmas iz qoldirgan edi. O'zini qiziqtirgan hamda haya-jonlantirgan hamma narsani Verter bilan o'rtoqlashishga odatlanib qolgan, bordi-yu, u ketsa, yuragidagi ortiq hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydigan tubsiz bo'shliqni his etish uni dahshatga solardi. O, Verter hoziroq akasi bo'lib qolsa, naqadar baxtli bo'lardi!.. Uni dugonalaridan biriga uylantirib qo'ya olsa, Albert bilan Verter o'rtasidagi munosabatni qayta tiklash imkonи bo'lsa edi!..

U barcha dugonalarini xayolidan bir-bir o'tkazdi va ularning har biridan birorta kan chilik topdi, hech birini unga loyiq hisoblayolmadi.

Shularni xayoldan o'tkazarkan, u birinchi marta, to'la anglab yetmasdan, o'zining sof, muqaddas istagi – Verterni o'zi uchun saqlash ekanligini chuqur his etdi, lekin, shu bilan bir qatorda, uni saqlay olmasligini, bunga haqqi yo'qligini ham o'ylab qo'ydi; uning toza qalbidagi shu

paytgacha hech narsa xiralashtira olmagan beqiyos ravs-hanlik o‘rnini g‘am-g‘ussa egalladi: -baxt eshigi uning uchun yopiq edi. Ko‘z oldini tuman qopladi va yuragi ezilib ketdi.

Qulog‘iga zinapoyadagi qadam tovushlari chalinganda, vaqt olti yarimlarga yaqinlashgan edi va u Verterning qadam tashlashini hamda uni so‘rayotgan ovozini darhol tanidi. Verter kelganda, aytishimiz mumkinki, birinchi marta uning yuragi qattiq ura boshladi. U o‘zini uyda yo‘q, deyishlarini afzal ko‘rdi-yu biroq Verter ro‘baro‘sida paydo bo‘ldi va Lotta uni dovdiragan hamda achchiqlangan ohangda kutib oldi:

- Siz so‘zingizda turmadingiz.
- Men hech qanday so‘z berganim yo‘q, – javob berdi Verter.
- Hech bo‘lmasa mening iltimosimga quioq solsangiz bo‘lardi, – ranjidi Lotta, – axir, men sizdan ikkimizning tinchligimiz uchun iltimos qilgandim.

U nima gapirayotganini o‘zi tushunmasdi, Verter bilan tanho qolmaslik maqsadida dugonalaridan ba’zilarini aytib kelishga odam yuborganida nima qilayotganini ham anglamasdi, Verter o‘zi keltirgan bir necha kitobni chiqarib qo‘ydi va qandaydir boshqalarini so‘radi. Lotta esa, bir ko‘nglida dugonalarining kelishini istasa, bir ko‘ngli istamasdi. Xizmatkor qiz qaytib kelib taklif qilingan qizlarining har ikkalasi ham uzr so‘raganlarini va kelolmasliklarini aytdi.

U xizmatkor qizga qo‘shni xonada o‘z ishini qilib o‘tirishni buyurmoqchi ham bo‘ldi, keyin yana bu fikridan qaytdi. Verter xonada u yoqdan-bu yoqqa yurardi, Lotta

fortepiano oldiga bordi-da, minuetni chala boshladidi, bi-roq hech narsa chiqara olmadi. Nihoyat, o‘zini tutib oldi va Verter odatdagagi joyi bo‘lgan divanga o‘tirgach, kelib uning yonidan joy oldi.

– O‘qiydigan biror narsangiz yo‘qmi? – so‘radi u. Verterda hech narsa yo‘q edi.

– Mening stolim tortmasida sizning tarjimangizda Ossian qo‘shiqlari bor, hali o‘qiganim yo‘q, uni o‘zingizdan eshitishga umid qilgandim, ammo, negadir, shu paytgacha buning imkonni bo‘lmadi.

Verter kulimsiragancha daftarni olib keldi, lekin uni qo‘liga olgan zahotiyooq Verterni titroq qamrab oldi, dافتarni ocharkan, ko‘zlari yoshga to‘ldi. O‘tirdi-da, o‘qiy boshladidi:

«Sokin tun yulduzi, sen ufqda jozibali jimillaysan, bulut ortidan nur sochib chiqsang-da, tepaga qarab mag‘rur suzib ketasan. Sen bo‘shliqda nimani axtaryapsan? Quturgan shamol tingan, uzoqdan anhorning shovillagan qulokqa chalinadi va to‘lqinlar huv anavi cho‘qqilar tubida shovqin solmoqda; mayda pashsha galalari dala ustida g‘uvillashmoqda. Nimani axtaryapsan, go‘zal nur? Ammo sen jilmayib nari ketasan, to‘lqinlar quvonch bilan seni o‘rab olishadi-da, mayin sochlaringni ko‘mib yuborishadi. Xayr, beozor nur! Yana charaqla, Ossian qalbi ning porloq nuri!

Mana, bor qudrati-la u yana paydo bo‘ldi. Men marhum do‘stlarimni ko‘ryapman, ular xuddi qadimdagidek Lora-da to‘planishgan. Fingal xuddi tuman ustunidek tuyulyapti; atrofida uning qahramonlari, ana u yerda diniy qo‘sish ijrochilari: mo‘ysafid Ullin! Xushbichim Rino! Mohir

qo'shiqchi Alpin! Anavi esa, sen, sekin qayg'urayotgan Minona!.. Do'stlarim, biz Selmada, tepalik ustida shitirlayotgan o'tlarni silkitgan bahor yellari yanglig' qo'shiq aytishda musobaqa o'ynagan o'sha quvonchli kunlardan buyon qanchalik o'zgarib ketibmiz!

Mana, chiroyini ko'z-ko'z qilib Minona chiqib keldi; u nigohini yerga tikkan, ko'zlari to'la yosh, soch o'rimlari tog'dan esayotgan shamoldan og'ir silkinadi. Uning sirli ovozi yangraganda, qahramonlarning qalblari g'amg'ussaga to'ladi; chunki ular, goh Salgarning qabrini, goh xushovoz oq Kolmaning qorong'i kulbasini ko'z oldilariiga keltirishardi. Xushovoz Kolma tepalik ustida tanho qolgan, Salgar kelishga va'da bergen bo'lsa-da, kelmagan, atrofga tun qorong'iligi cho'kkani. Tepalik ustida yolg'iz o'tirgan Kolmaning tovushiga quloq tuting.

Kolma

Tun! Yolg'iz mengina bo'ronda tepalik ustida unutilganman. Daralarda shamol uvillaydi, sel tog'dan pastga intiladi. Tepalik ustida bo'ronda qolgan men bechora tashlandiqni yomg'irdan himoya qiladigan birorta boshpana yo'q.

Bulutlar ortidan chiq, mohitobon! Charaqlang, tun yulduzları! Sizning nurlaringiz, sevgilim ov tashvishlari dan so'ng dam olib yotgan joyga eltuvchi yo'limni yoritsinlar, kamoni ham yonida yotibdi, charchagan itlari uni o'rab olishgan! Men esa, tanhoman, pastda dahshatli sel quturyapti. Sel va to'lqin shovillaydi, sevgilimning ovozi esa eshitilmaydi.

Nega mening Salgarim hayallayapti? Bergan va'dasi yodidan chiqdimikan?.. Ana qoya va daraxt, bunda esa, quturgan to'lqin. Tun cho'kkanda kelaman, deb so'z bergen eding, oh! Salgarim qayerlarda adashib qoldiykin? Men otam va akamdan, barcha dabdabalardan kechib sen bilan qochib ketmoqchi edim! Bizning ajdodlarimiz ilgaridanoq dushman bo'lib kelishgan, lekin biz raqib bo'lolmaymiz, o, Salgar! Bir zumgina tin ol, shamol! Bir zumgina tinchlan, ey to'lqin! Ovozim vodiy bo'ylab yangrasin, uni mening sayyohim eshitsin! Salgar, seni men chorlayapman! Mana qoya, mana daraxt! Salgar! Sevgilim, men bu yerdaman! Axir nega hayallayapsan?

Qara, oy chiqdi, vodiydagи suv yaraqlayapti, cho'qqilar qo'ng'ir tusdagи tepaliklar ustida mag'rur turishibdi; faqat Salgar yo'q, u ko'rinmaydi, itlari hurib undan darak ham berishmaydi. Men bunda tanho o'tiribman.

Huv pastda, tekislikda yotganlar kim? Akammi? Sevgilimi? Javob beringlar, do'stlarim! Ular jim! Qo'rquvdan titrab ketyapman!.. Oh, ular o'ldirilgan! Qilichlari qonga bo'yagan! O, aka, akajonim! Nega mening Salgarimni halok etding? O, Salgarim! Nega sen akamni o'ldirding? Men axir ikkingizni ham shunchalik sevardimki! Sen vodiydagи minglab kishilar ichida eng go'zali eding! U esa, jangda dahshat solardi. Javob beringlar! Ovozimga quloq solinglar, azizlarim! Oh, ular jim! Abadiy jim! Ularning ko'ksi xuddi yer ko'ksidek sovuq!

O, qoyalardan, bo'ron uvillayotgan tog' cho'qqisidan turib javob beringlar menga, marhumlarning ruhlari! Gapinglar! Men bundan cho'chimayman!.. Sizlar qayoqqa orom izlab ketdingizlar? Sizlarni qayerdan, qaysi tog'

darasidan axtaray?.. Shamolda na bir ovozni, bo‘ronda na bir javobni ilg‘ayman.

G‘amga chulg‘anib, ko‘z yoshi to‘karkanman, tongni kutyapman. Marhumlarning do‘satlari, qabr qazinglar, lekin men borgunimcha dafn etib qo‘ymanglar. Hayot meni xuddi tushdek tark etyapti; tiriklar orasida qolishimning ne ma’nosi bor? Men mana shu yerda, guldurayotgan cho‘qqilar orasida, selda yashayman. Tepalik ustiga tun cho‘kib, vodiy tepasida shamol esa boshlaganda, ruhim shamol qo‘ynida bosh ko‘taradi-da, do‘stlarim o‘limiga ko‘z yoshi to‘kadi.

Chaylada o‘tirgan ovchi ovozimni eshitib, dahshatga tushadi va undan sehrlanib qoladi; chunki men, aziz va sevikli do‘stlarim haqida jo‘shib kuylayman!

Sen shunday kuylading, Tormaning yuvosh, uyatchan qizi Minona. Biz Kolma uchun ko‘z yosh to‘kdik, qalblarimiz g‘am-alamga chulg‘andi. Shu paytda qo‘lida arfa tutgan Ullin chiqib keldi va bizga Alpin qo‘shig‘ini kuylab berdi... Alpinning ovozi muloyim yangrardi, Rino qalbi esa, yolqinga o‘xshardi. Garchi ularning boshpanalari allaqachon tor bo‘lsa-da, ovozlari Selmadan yangrardi. Bir kuni Ullin, qahramonlar hali tirik paytida, ovdan qaytib kelganida, tepalik ustida ularning qo‘shiq aytishda bellashayotganlarini eshitdi. Ularning qo‘shig‘i yoqimli, ammo g‘amgin edi. Ular, qahramonlar ichida birinchi halok bo‘lgan Morarga atab motam qo‘shig‘i kuylardilar. Uning qalbi Fingalning qalbidek, qilichi esa, Oskarning qilichidek edi, baribir u halok bo‘ldi. Otasi esa, o‘g‘li uchun yoqasini choc etib qayg‘uradi, singlisining ko‘zlarini to‘la

yosh, botir Morarning singlisi Minonaning ko‘zлari jiqlqa yosh edi.

Ullinning qo‘shig‘i yangragan zahotiyoy, Minona, xuddi bo‘ronni sezib, yuzini bulut ortiga yashirgan ufq-dagi oydek, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Men esa, Ullin bilan birga arfa torlarini chertib motam ashulasiga jo‘r bo‘ldim.

Rino

Shamol va yomg‘ir o‘tib ketdi, havo nihoyatda ochiq, bulutlar tarqalishmoqda. Beqaror quyosh tepalikka nari-dan-beri nur sochmoqda. Shafaqdan qizargan oqim vodiy bo‘ylab pastga shoshiladi. Oqim, sening shovullashing biram yoqimli! Ammo menga eshitilayotgan tovush bundan ham yoqimliroq. Bu Alpinning ovozi, u marhumlar xotirasiga ko‘z yoshi to‘kyapti. U keksalikdan bukchay-gan, ko‘zлari yig‘idan qizarib ketgan. Alpin! Xushovoz qo‘shiqchi! Nima uchun sokin tepalikda yolg‘izsan! Nega chakalakzor o‘rmondagi shamoldek, uzoq qirg‘oqlarga urilayotgan to‘lqindek faryod chekasan.

Alpin

Rino, men marhumlar uchun yig‘layapman, ovozim qabrda yotganlar yoniga chorlaydi. Sen tepalik ustida qanchalik mag‘rur turmagin, vodiydagи o‘g‘lonlar ichida qanchalik omadli hisoblanmagin, baribir, xuddi Morardek halok bo‘lsan va qabring ustida kimdir yum-yum yig‘laydi. Tepaliklar seni unutishadi, bukilgan qadding qabr gumbazi ostida yotadi.

O, Morar, sen tog‘ kiyigi yanglig‘ abjir, zimiston ko‘kdagi chaqmoqdek dahshatli eding. G‘azabing go‘yo

to‘lqindek edi, qiliching jangda vodiy ustidagi yashindek yaraqlardi, ovozing bamisoli uzoq tepaliklar ortidagi momaqaldiroqdek, yomg‘irdan so‘nggi o‘rmon shovullashi-dek edi. Ko‘plar sening qo‘lingda jon berdi, ular g‘azabing alangasini o‘chirdi. Urushdan qaytib kelganingda ovozing osoyishta yangrardi! Chehrang esa, bo‘rondan keyingi oftobga, sokin tundagi oyga o‘xshardi, qalbing shamol tinchigandan so‘nggi ko‘l yanglig‘ osuda edi. Endi esa, boshpanang tor! Sen yashayotgan joy zulmatda! Bir vaqt-lar naqadar buyuk bo‘lgan kimsa qabrini endi uch qadam bilan o‘lhash mumkin! O‘t bosib yotgan to‘rtta tosh – mana, sendan yagona yodgorlik! Yalang‘och daraxt-u shamolda tebranib turgan o‘sik giyoh ovchiga qahramon Morar qabridan darak beradi. Sen uchun qayg‘uradigan onang ham, muhabbat yoshlарini to‘kadigan sevgiling ham yo‘q. Seni tuqqan kimsa, Morglanning qizi ham halok bo‘lgan.

Anavi joyda hassaga tayanib yurgan kim? Keksaligidan sochlari oqargan, yig‘idan ko‘zлari qizargan kimsa kim? Bu sening otang, Morar, sendek yagona o‘g‘ilning padari buzrukвори. U sening jangdagi qahramonligingni eshit-gan, dushmanlaringning mag‘lubiyati haqida ham eshit-gan! O, jarohatlarindan esa, u bexabar! Yig‘la! Yig‘la! Afsus, o‘g‘ling ovozingni eshitmaydi. O‘liklarning uyqusi qattiq, tuproq ularning yostig‘i. Sening ovozing unga yetib bormaydi, qichqirig‘ing uni uyg‘otolmaydi. Tong otganida esa, qabrda marhum: «Uyg‘on!» degan tovushni eshitadi.

Alvido, marhumlarning eng botiri, g‘olib jangchi! Endi seni jang maydoni qaytib ko‘rmaydi! Shamshiring yaraq-

lashi endi qorong‘i o‘rmonni yoritmaydi. Sen o‘zingdan o‘g‘il qoldirmading, ammo noming qo‘sishlarda saqlanadi va kelajak avlodlar sen haqingda – jangda halok bo‘lgan Morar haqida xabar topadilar.

Qahramonlar qattiq fig‘on chekishardi, Arminning nołasi ayniqsa kuchliroq edi. U umrining ayni gullagan davrida halok bo‘lgan o‘g‘lini xotirlardi. Uning yonida sershovqin Galmolning xo‘jayini Karmor o‘tirardi.

– Nima sababdan Armin bunchalik faryod chekadi?
– so‘radi u, – nega axir yig‘laydi? Axir qo‘sish qalbga orom bag‘ishlash va uni yupatish uchun kuylanmaydimi? Qo‘sishlar xuddi ko‘ldan vodiya ko‘tarilayotib, rangbarang gullarni shabnamga ko‘mib yashnatib yuborgan yengil tumanga o‘xshaydilar; ammo quyosh chiqdimi, bas, tuman shu zumdayoq tarqalib ketadi. Nega bu qadar nola qilasan, to‘lqin yuvgan Gormaning sultoni – Armin?

– Ha, men nola qilyapman! G‘amim benihoya, Karmor, sen o‘g‘lingni yo‘qotganing yo‘q, guldek qizingdan judo bo‘lganing yo‘q; jasur Kolgar hayot va go‘zal Annira ham hayot. Sening uyingdagi nihollar gullayapti, o, Karmor, bizning naslimiz esa Armin bilan tugaydi! O, Daura, sening to‘slicing zulmat qo‘ynida! Qabrda-gi uyqung ham qattiq!.. Qachon uyg‘onasan va sening qo‘sishing, yoqimli ovozing qachon qayta yangraydi? Kuz shamoli, qo‘zg‘ol! Qo‘zg‘ol! Qorong‘i vodiy ustida g‘awilla! O‘rmon, shovqin sol! Bo‘ron, qayinlar tepasida qichqir! Suzaver, oy, bulutlar orasidan so‘lg‘in chehrang mo‘ralasin! Bolalarim halok bo‘lgan – jasur Arindal va sevimli Daura dunyodan o‘tgan o‘sha dahshatli kechani yodimga sol.

Daura, qizim, sen go'zal eding! Fura tog'lari tepasidagi oydek fusunkor, qordek oppoq, sof havodek yoqimli eding! Arindal, sening kamoning mahkam bog'langan, jangda yoyni ham mo'ljalga tegizib otarding, nazaring dengiz ustidagi tumandek edi, qalqoning esa, momaqaldiroq paytidagi yashindek yaraqlardi!

Urushda shuhrat qozongan Armar qaytib kelgach, Dauraga ko'ngil qo'ydi, Daura ham ko'p qarshilik ko'rsatmadi. Do'stlari ularning baxtli bo'lishlariga ishongan edilar.

Odgalning o'g'li Erat akasini Armar o'ldirgani tufayli ilgaridan kek saqlab kelardi. U dengizchi kiyimida keldi. Uning chiroyli qayiqchasi to'lqin ustida chayqalardi, sochlariqa oq oralagan, jiddiy chehrasi xotirjam ko'rindi.

— Sohibjamol qiz, — dedi u, — Arminning suluv qizi, anavi dengiz bo'yidagi cho'qqida, daraxtlardan mevalar mo'ralab turgan joyda Armar Daurani kutyapti; men uning sevgilisini quturayotgan dengizdan olib o'tgani yuborilganman.

Daura unga ergashdi va Armarni chaqira boshladi. Cho'qqlardan aksi sadogina qaytdi, xolos.

— Armar! Azizim! Sevgilim! Nega meni bunchalik qo'rqtasan? Javob ber! Javob ber, Arnatning o'g'li! Sen Daura chaqiryapti!

Sotqin Erat bo'lsa, tirjayib quruqlikka yashirindi. Qiz ovozining boricha otasini va akasini chaqira boshladi:

— Arindal! Armin! Nahotki hech kim Daurani qutqazmaydi?

Uning tovushi dengiz osha yetib keldi. O'g'lim Arindal tepalikdan yugurib keldi: u ovchilik yarog'-aslahalari

bilan dahshatli ko‘rinardi. Belidagi kamarida o‘qlar shildirardi, qo‘lida kamon, atrofini beshta qora-qo‘ng‘ir tusdagi itlar o‘rab olgan edi. Qirg‘oqda u jinoyatchi Eratni ko‘rgach, tutib oldi-da, qarag‘ayga belidan siqib bog‘lab tashladi. Bandi og‘riqdan ingrab yubordi.

Arindal o‘z qayig‘ida Daurani olib kelish uchun dengizga tushdi. Shu payt darg‘azab holda Armar paydo bo‘ldi-da, o‘tkir uchli yoyni irg‘itdi; u vizillab borib sening ko‘ksingga qadaldi, o, Arindal, o‘g‘lim! Jinoyatchi Erat o‘rniga sen halok bo‘lding, qayig‘ing toshlarga borib urildi, sen uning ustiga yiqilding-da, jon berding. O, sho‘rlik Daura, akangning qoni sening oyoqlaring ostida oqardi!

To‘lqinlar qayiqni parchalab tashladi, Armar o‘z Daurasini qutqazish, yo‘qsa halok bo‘lish uchun o‘zini to‘lqinlar bag‘riga otdi. Shu payt tog‘dan qattiq shamol turdi va dengiz quturib, Armarni domiga tortdi-yu u abadiy g‘oyib bo‘ldi.

Yolg‘iz o‘zim dengiz o‘rtasidagi qoya ustida o‘tirardim va qizimning faryodi qulog‘imga chalinardi. U uzluksiz, qattiq faryod solardi, biroq otasi uni qutqarolmadi. Tun bo‘yi dengiz sohilida o‘tirib chiqdim va oyning so‘lg‘in nurida u ko‘zga tashlandi, tun bo‘yi uning oh-nolasini eshitdim, shamol uvillar, yomg‘ir tinimsiz qoyaga urilardi. Tong oldidan Dauraning tovushi susaya boshladi, cho‘qqilarda o‘sgan maysalarni yelpib o‘tgan kechki shabadadek u yo‘q bo‘ldi. Daura faryod chekib halok bo‘ldi va Arminni tanho tashlab ketdi! Urushdagи tayanchimdan judo bo‘ldim, qizlar ichida eng go‘zal hisoblangan Dauram halok bo‘ldi.

Tog‘da bo‘ron uvillaganda, to‘lqinlarni shimol shamoli ko‘kka irg‘itganda, men ana shu sershovqin qirg‘oqda, o‘sha dahshatli qoyadan ko‘z uzmay o‘tiraman. Botayotgan oy nurida ba’zan bolalarimning soyalari ko‘zga tashlanadi, ular xuddi xira sharpadek ayanchli tanholikda kezib yurishadi...»

Lottaning ko‘zlaridan yurakni g‘amdan xalos etuvchi yoshlar marjondek oqa boshlaganini ko‘rgan Verter o‘qishni to‘xtatdi. U daftarni irg‘itib yubordi-da, Lottaning qo‘lini qisgancha, achchiq ko‘z yosh to‘kdi. Lotta ikkinchi qo‘lidagi dastro‘moli bilan ko‘zlarini bekitdi, ikkalasi ham dahshatli holatda edi. Diniy qo‘sinq qahramonlarining achchiq taqdiri ularga go‘yo o‘z qayg‘ularidek tuyuldi, ikkalasi buni birdek his etishar va birdek ko‘z yosh to‘kishardi. Verterning ko‘z yoshlari va lablari Lottaning qo‘lini kuydirardi: u qo‘rqib ketdi, ketmoqchi bo‘ldi, biroq shafqat va alam uni ipsiz bog‘lab qo‘ygandi. U chuqur xo‘rsindi-da, yig‘i aralash Verterdan o‘qishda davom etishni nihoyatda o‘tinib so‘radi! Verter titrardi, yuragi otilib chiqqudek hapriqardi, u varaqni oldi-da, tutilib-tutilib o‘qiy boshladи:

— O, bahor shabadasi, nega meni uyg‘otasan? Sen erkalatib: «Men samo shabnamila senga jon baxsh etaman!» — deysan go‘yo. Biroq mening so‘lish paytim yaqin, yaproqlarimni yulib otadigan bo‘ron yaqin. Ertaga keladi, meni navqironlik davrimdan buyon bilgan o‘sha sayyoh keladi. U meni hamma yoqdan o‘z nigohila axtaradi, afsuski, topolmaydi...»

Bu so‘zlarning butun qudrati baxtsiz Verter ustiga • yog‘ildi. U chuqur iztirobda o‘zini Lottaning oyoqlari-

ga tashladi, uning qo‘lini mahkam ushlab, ko‘zlariga, manglayiga bosdi, uning mudhish qarorini go‘yo sezgandek, Lotta qo‘rquvdan titrab ketdi. Ko‘z oldi xiralashdi, Verterning qo‘llarini qattiq qisib, ko‘ksiga qo‘ydi, titrab-qaqshab uning boshi ustiga egildi, ularning yonayotgan yonoqlari bir-biriga tegib ketdi. Borliq go‘yo g‘oyib bo‘ldi, Verter uni bag‘riga bosganicha nimalarnidir shivirlayotgan titroq lablaridan qattiq-qattiq o‘pa boshladi.

– Verter! – qichqirdi Lotta bo‘g‘iq ovozda boshini chetga burarkan, – Verter! – behuda harakatlar bilan uni chetlatishga urinardi. – Verter! – takrorladi u dadillik bilan qat’iy ohangda. Verter ortiq qarshilik qilmadi. Lottani og‘ushidan bo‘shatdi-da, o‘zini telbalardek uning oyoqlari ostiga tashladi.. Lotta o‘zini o‘nglab oldi va dahshatli sarosimada muhabbat va g‘azab o‘rtasida titrab dedi:

– Bu boshqa takrorlanmaydi! Siz meni ko‘rmaysiz, Verter!

U sho‘rlik Verterga muhabbat to‘la nigoh bilan qarab turdi-da, qo‘shni xonaga kirib ketdi va ichdan qulflab oldi. Verter uning ketidan qo‘llarini cho‘zgancha qolaverdi. U boshini divanga qo‘yib yarim soatlar chamasi polda cho‘zilib yotdi, qandaydir shitirlash uni hushiga keltirdi. Xizmatkor qiz stol yasatish uchun kirgandi. Verter xonda yura boshladi, yana o‘zi yolg‘iz qolgach, xona eshigiga kelib, sekin chaqirdi:

– Lotta! Lotta! Loaqal bir og‘iz so‘zimni eshitining! Xayrlashuv oldidan!

Lotta jim edi. U kutdi, yalindi, yana kutdi, keyin qichqirdi: – Alvido, Lotta! Umrbod alvido!

Shu bilan o‘zini tashqariga otdi.

U shahar darvozasigacha bordi. Qorovullar uni tani-ganlari tufayli indamasdan o'tkazib yuborishdi. Yomg'ir aralash qor yog'ardi, u bo'lsa faqat soat o'n birlarga yaqin darvozani qayta taqillatdi. Uyiga kelganida, xizmatkori uning shlyapasiz qaytganini payqadi. Biroq og'iz ochishga jur'at qilolmadi, uni yechintirdi, hamma kiyimlari jiqli-qa ho'l edi. Keyinchalik shlyapani tepalikning vodiya qaragan yonbag'ridagi cho'qqidan topishdi. Yog'inli zimiston kechada hech yeriga shikast yetkizmasdan qanday qilib u yerga chiqqanligi kishining aqliga sig'maydi.

U to'shakka yotdi, shu ko'yi uzoq uxladi. Xizmatkori ertalab uning istagiga ko'ra qahva keltirganida, u stol yonida yozib o'tirardi. U Lottaga atalgan maktubiga quyida-gilarni qo'shimcha qildi:

«Shunday qilib, men so'nggi bor, ha, so'nggi bor ko'zlarimni ochyapman. Oh! Endi ularga oftobni ko'rish nasib etmaydi! Xira tumanli tun ularni to'sib qo'yadi. Motam tut, tabiat! Sening o'g'ling, sening do'sting, sening oshig'ingning umri tugayapti. Lotta, bu tuyg'uni tas-virlash mushkul, agar o'zingga: «Bu mening so'nggi subhidamim! Oxirgisi!» deyarkansan, bu shuurni faqat xira tushga o'xshatish mumkin. Oxirgisi! Lotta, men «oxirgi» degan so'zni tushunolmayman. Mana, hozir kuchga to'liqman, ertaga esa, yerda jonsiz, harakatsiz cho'zilib yotaman. O'lim! Bu nima degani? Qara, biz o'lim ha-qida gapirarkanmiz, go'yo xayol suramiz. Kishilarning o'lganlarini ko'p marta ko'rganman. Biroq odam tabiatan shu qadar chegaralanganki, o'z hayotining ibtidosi va intihosini hatto payqamay ham qoladi. Hozir seniki, seniki! Ha, seniki! O, mahbubam! Yana bir zum o'tgach

esa... tugaydi, ado bo'ladi... ehtimol abadiydir? Yo'q, Lotta, yo'q... Men qanday qilib yo'q bo'lib ketay? Qanday qilib sen yo'q bo'lib ketasan?! Biz axir mavjudmizku! Yo'q bo'lish!.. Bu nima degani?.. Yana so'z, yuragim his etmaydigan quruq ovoz!.. Halok bo'l, Lotta! Tor, timqorong'i sovuq yerga ko'mil!.. Men bir qizni bilardim, u jur'atsiz yoshlik davrimda men uchun butun yorug' olam edi. U o'ldi, men uning tobuti ostidan bordim, qabri tepasida turdim! Tobutni qabrga tushirganlaridan keyin, arqonni uning ostidan tortib olishgach, birinchi kurak tup-roqni tashlashdi, u dahshatli qutiga bo'g'iq urildi, ovoz borgan sari bo'g'iqlashib bordi va qizni butunlay ko'mib tashlashdi!.. Men o'zimni qabr ustiga tashladim, bag'rim tilka-pora bo'lgan, ezilgan, titragan, sarosimaga tushgan edim, ammo, baribir, buning o'lim ekanini, o'z boshimga ham bir kuni shu ko'rgulik tushishini bilmasdim... O'lim! Qabr! Anglab bo'lmaydigan so'zlar!

Oh, kechir, kechir meni! Kecha! Kecha o'lishim kerak edi! O, farishtam! Ilk marta, ha, ilk marta, bor vujudim-la dilni yayratuvchi bir tuyg'uni his etdim: u meni sevadi! U meni savadi! Hanuz lablarimda sening lablaringdan o'tgan sehrli o't yonyapti va qalbimni ajib bir rohat chulg'ayapti, Kechir meni! Kechir!

O, meni sevishingni bilgandim. Ilk samimiyl nigo-hingdanoq, ilk marta qo'limni qisganingdayoq bilgandim, ammo men ketgach, yoningda Albert qolardi, men bo'lsam, azob o'tida kuyardim.

Esingda bormi, o'sha yoqimsiz kishilar orasida biz biron og'iz ham so'zlasholmagan, hech bo'lmasa, bir-birimizning qo'limizni qisolmagan paytimizda menga gul

yuborganding? Yarim kechagacha o'sha gul oldida tiz cho'kib turdim, chunki u sening menga bo'lgan mhabbatting ramzi edi.

Afsuski, Alloh taoloning saxiyliik bilan ko'rsatgan muqaddas marhamatiga bo'lgan ishonch ishonuvchi ongida asta-sekin so'nib borganidek, bu taassurotlar ham o'tib ketdi. Hamma narsa o'tadi, lekin har qanday abadiylik ham, kecha sening lablaringdan olgan va hozir ham yonib turgan mana shu yolqinli olovni so'ndira olmaydi! U meni sevadi! Mening qo'llarim uni quchdi, lablarim uning lablarida titrab, nimalarnidir shivirladi. U meniki! Ha, Lotta, sen abadiy menikisan!

Albert ering bo'lsa nima bo'pti? Menga nima? U fagaqt bu dunyodagina er, demak, bu dunyoda seni sevishim, seni uning bag'ridan tortib olishga va o'z bag'rimga bosishga intilishim gunohmi? Gunoh! Ha, mayli, men buning uchun o'zimni jazolayman. Bu gunohni bor ilohiy lazzati bilan totdim, undan hayotiy kuch-quvvat oldim. O'sha lahzadan e'tiboran, sen menikisan, o, Lotta! Menikisan! Men ketaman! O'z otam yoniga, sening onang yoniga ketaman! Men unga o'z qayg'umni so'zlab beraman, sen kelguningga qadar u meni yupatadi, sen kelgach esa, men istiqbolingga chiqaman, seni og'ushimga olaman va bir-birimizni quchganimizcha tangri nigohi oldida abadiy birga qolamiz.

Men xayol qilmayapman, bu uydirma emas! O'limim oldidan hamma narsa oydinlashayapti. Biz yo'q bo'lmaymiz! Biz qayta topishamiz! Sening onangni ko'ramiz! Men uni ko'raman, uni topaman va unga, ay-

nan sening qiyofadoshing bo‘lgan onangga o‘z dardimni to‘kib solaman».

* * *

Soat o‘n birlarga yaqin Verter xizmatkorini chaqirib, undan Albertning qaytgan-qaytmaganini so‘radi. Xizmatkor uning kelganini, otda o‘tib ketganini o‘zi ko‘rganini aytdi. Shunda xo‘jayin unga quyidagi mazmunda xatcha tutqazdi:

«Sayohatga chiqish uchun to‘pponchangizni berib tur-sangiz? Sizga doimo sog‘liq tilayman!»

Sevimli Lotta o‘sha kechasi yomon uxladi. Ro‘y berishiga ko‘zi yetmagan, ammo qo‘rquv ichida kutib yurgan voqeal ko‘z ochib yumguncha hal bo‘ldi-qo‘ydi. Hamisha sokin va xotirjam vujudi qattiq hayajon bilan to‘lib-toshib, minglab qarama-qarshi his-tuyg‘ular musaffo qalbiga bir nafas orom bermasdi. Ko‘ksida yonayotgan olov Verterning og‘ushidan o‘tmadimi? Ehtimol u, hozirgi holatini o‘ziga benihoya ishongan, beqiyos sof, iffatli bo‘lgan avvalgi kunlari bilan solishtirib, o‘zidan nafratlanayotgandir? Eri bilan qay tarzda uchrashadi? Garchi eridan yashirmasa-da, baribir aytishga jur’at etolmaydigan hodisani unga qanday qilib bildiradi? Ikkalasi ham uzoq jim o‘tirishgach, o‘zi birinchi bo‘lib jimlikni buzishi va noqulay bir holatda Albertga kutilmagan voqeani bayon qilishi kerakmi? Verterning kelganligi haqidagi xabarning o‘ziyoq unda yoqimsiz tuyg‘u uyg‘otadi-yu bu kutilmagan zarba ne holga solarkin? Eri bu xabarni eshitib, xotinini qoralamaydi degan o‘yga ishonsa bo‘ladimi? Yuragidagi tug‘yondan Albertning voqif bo‘lishiga yo‘l qo‘ya

olarmikan? Ammo, ikkinchi tomondan, shu paytgacha erining nazarida samimiy va billurdek toza bo‘lib kelgan, o‘z tuyg‘ularini biror marta yashirmagan va yashirrolmagan, endi shunday odam oldida mug‘ombirlik qila oladimi? Mana shunday qarama-qarshi o‘ylar uni xijolat va notinch qilsa-da, baribir, xayoli yana Verterga qaytdi – u endi Lotta uchun yo‘q, Lotta undan kecholmaydi ham, biroq, afsuski, uni o‘z holiga tashlab qo‘yishga majbur. Lottani yo‘qotarkan, Verter uchun ham hamma narsa bema’ni bo‘lib qolardi.

Eri va o‘zi o‘rtasida paydo bo‘lgan g‘ovunga hozir qanchalik og‘ir tuyulishini hali tushunib yetmasdi! Qandaydir yashirin kelishmovchilik tufayli mana shunday mulohazali, ba’mani kishilar bir-biridan sir yashira boshladilar. Har biri o‘zini haq, boshqasini nohaq deb o‘ylardi. Munosabatlar shu qadar qiyinlashib va keskinlashib ketdiki, ni-hoyat, mana shu hal qiluvchi lahzada tugunni yechishning imkonini yo‘q edi. Yana samimiy ishonch tug‘ilib, ularning ilgarigi totuvligi tiklansa edi, ular o‘rtasida o‘zaro hurmat va muhabbat qayta jonlanib, qalblarni ilitsa edi, balki do‘stimizni qutqazishning imkonini bo‘lardi.

Bundan tashqari, yana bir muhim vaziyat mavjud edi. Verterning xatlaridan ayonki, u hayotni tashlab ketishga intilishini hech vaqt yashirmagan. Albert bu xususda u bilan tez-tez bahslashardi. Lotta bilan eri o‘rtasida ham shu to‘g‘rida tortishuv bo‘lardi. Albert bu taxlit ishlarga keskin qarshi bo‘lib, tabiatiga xos bo‘lmagan asabiylilik bilan, bunday niyatlar chuqur o‘ylanmasdan yengiltaklik bilan qilinishiga ikkilanmayman, deyishga asosli dalilla-

rim bor, deb uqtirardi, hatto shu haqda hazil tariqasida gapirib, o‘z ishonchhsizligini Lottaga ham bildirgan edi.

Garchi, dahshatli manzara xayoliga kelgan paytlarida bu uni bir tomondan tinchlantirsa-da, ikkinchi tomondan, hozir o‘zini azoblayotgan qo‘rquvni eriga aytishdan cho‘chib turardi.

Albert qaytib kelganda Lotta sarosima holatda shoshilib unga peshvoz chiqdi. Albertning kayfiyati yomon edi, ishi o‘ngidan kelmagan, chunki o‘sha xizmatchi nihoyatda o‘jar va bachkana edi. Yomon yo‘l ta’bini battar xira qilgandi.

U Lottadan hol-ahvol so‘radi. Lotta kecha kechqurun Verter kelganligini shoshilib xabar qildi. U xat kelmadi-mi, deb so‘radi, bitta xat va bir necha paketlar xonasida stol ustida yotganligini eshitgach, o‘sha yoqqa ketdi, Lotta yolg‘iz qoldi. O‘ sevadigan va hurmat qiladigan eri bilan uchrashuv uning ruhini birmuncha ko‘tardi. Albertdagi oliyjanoblik, sofdillik va muhabbatni his etarkan, qalbi biroz orom topdi. Yoniga borgisi keldi, qo‘liga ishini olib, odadtagidek, uning xonasiga ketdi. Lotta kirganda, eri paketlarni ochib o‘qish bilan mashg‘ul edi. Ba’zilarining mazmuni aftidan yoqimli emasdi, Lotta undan nimalarni-dir so‘radi, u qisqa javob qaytardi-da, stol yoniga o‘tirib, yozishga tutindi.

Shu tariqa ular bir soatlar chamasi yonma-yon o‘tirishdi. Lottaning yuragi borgan sari qattiqroq siqilardi. Albert o‘ta xush kayfiyatda bo‘lganida ham, ko‘nglidagi gapni unga aytishga qurbi yetmasligini Lotta sezardi. O‘zini qo‘lga olishga, ko‘z yoshlarini yashirishga urinarkan, uni yanada og‘irroq g‘am qurshab oldi.

Verter xizmatkorining kirib kelishi esa tamoman dovdiratib qo‘ydi. Xizmatkor Albertga xatchani uzatdi, Albert bo‘lsa, xotirjam holatda Lottaga burilib dedi:

– To‘pponchani berib yuborgin. Unga sayohatida oq yo‘l tilashimni aytib qo‘y, – qo‘shib qo‘ydi u xizmatkorga yuzlanarkan.

Lottani go‘yo yashin urgandek bo‘ldi, u gandiraklab o‘rnidan turdi, fikr-xayolini to‘plab ololmasdi. Devor yoniga zo‘rg‘a yetib bordi, titroq qo‘llari bilan to‘pponchani oldi, changini artdi, uni bergisi kelmasdi, agar Albert savol nazari bilan qarab shoshirmaganida edi, yanayam imillagan bo‘lardi. Biron og‘iz so‘z aytishga holi yetmasdan, mash’um qurolni xizmatkorga tutqazdi, u chiqib ketgach, ishni yig‘ishtirdi-da, haddan tashqari vahima ichida o‘z xonasiga kirib ketdi. Bor dahshatni ko‘ngli oldindan sezib turardi. U o‘zini erining oyoqlariga tashlab, kecha kechqurun bo‘lib o‘tgan hodisani – o‘z gunohini, o‘zidagi xavotirni unga aytib bermoqchi ham bo‘lardi. Bunday qilishning ham befoydaligini tushunardi. Erini Verter yoniga borishga ko‘ndira olishiga deyarli ishonmasdi. Tushki ovqat paytida ochiq ko‘ngil bir dugonasi darhol nimadir so‘rab kelishga keldi-yu biroq ketmadi va ovqat mahalida suhbatga jon kiritib o‘tirdi. Lotta ham istasa-istamasa suhbatga aralashib, nimalarnidir gapirib, og‘ir o‘ylarni unutishga o‘zida kuch topishga urindi.

Xizmatkori Verterga to‘pponchani keltirib berdi, uni Lotta olib bergenligini eshitgach, Verter uni hayajon ichida oldi. U vino va non keltirishni buyurdi. Xizmatkorini ovqatlanishga yubordi-da, o‘tirib yozishga tutindi:

«Uni sen olib bergansan, changini artgansan, men esa, uni tinimsiz o‘paman, axir, unga sening qo‘ling tekkan-da! Samoviy farishtam, sen ham mening qarorimga homiylik qilyapsan! Lotta, sen menga qurol tutqizyapsan, men ajalni sening qo‘llaringdan kutardim! Ha, mana endi uni qabul qilyapman! Xizmatkorimdan batafsil so‘rab oldim. Sen to‘pponchani uzatarkansan, titrab ketding, hatto bir og‘iz so‘z demading!.. Oh, sho‘rim! Men bilan vidolashmading ham!.. Nahotki, ikkimizni abadiy bog‘lagan o‘sha narsa tufayli sening qalbing men uchun bekilgan bo‘lsa? Lotta! Ming yillar ham o‘sha taassurot o‘tini o‘chirolmaydi. Bilaman, his etyapman: seni qaynoq muhabbat bilan sevgan kishini hech qachon yomon ko‘rolmaysan».

Ovqatdan so‘ng u xizmatkoriga narsalarni joylashtirishni buyurdi, ko‘p qog‘ozlarni yirtdi va mayda-chuyda qarzlarni uzish uchun chiqib ketdi. Keyin qaytib keldi, yana tashqariga chiqdi va yomg‘ir yog‘ayotganiga qaramasdan shahar chetidagi graf bog‘iga yo‘l oldi, tevarakatrofni rosa aylandi, kechqurun qaytib kelgach, yozishgaga o‘tirdi.

«Vilhelm, men dala, o‘rmon va samoni oxirgi marta tomosha qildim. Alvido, do‘stim! Onajonim, meni kechir! Vilhelm, unga tasalli ber! Sizlarga xudo yor bo‘lsin! Mening ishlarim hammasi joyida. Alvido! Biz yana qaytadan quvonch bilan ko‘rishamiz!»

«Senga yaxshilik qilolmadim, Albert, biroq sen meni kechirasan. Oilang tinchligini buzdim, sizlarning o‘rtalariningizga ishonchsizlik urug‘ini sochdim. Endi bunga xotima beraman! Alvido! O, mening o‘limim sizlarga

baxt keltirsin! Albert, Albert! O'sha farishtaga baxt ato et!
Xudo hamisha yor bo'lsin!»

Butun kech davomida u qog'ozlarni tartibga soldi, ko'plarini yirtib, pechkaga tashladi, bir qancha paketlarni surg'ichlab, ustiga Vilhelmning manzilini yozib qo'ydi. Ularning ichida mayda-chuyda xatlar, uzuq-yuluq fikrlar ham bor edi, ulardan ba'zilarini o'zim ko'rdim. Soat o'nda u pechkaga o'tin tashlashni va bir shisha vino keltirishni buyurdi, shundan keyin xizmatkorini uqlashga jo'natdi. Buning hujrasi ham boshqa xizmatkorlarniki singari orqa hovliga qaragan edi. Xizmatkor ertalab barvaqt turish uchun yechinmasdan yotdi: xo'jayin pochta otlarini soat oltida keltirishadi, degan edi.

«Soat o'n birdan keyin.

Atrofimdag'i hamma narsa osoyishta, o'zim ham tinchman. So'nggi soniyalarda menga shunchalik kuch va osoyishtalik bag'ishlaganing uchun sendan minnaddorman, Tangrim!

Azizim, deraza oldida turib, osmonda suzib yurgan ulkan bulutlar orasidan mo'ralayotgan bitta-ikkita samo chiroqlarini tomosha qilyapman! O, yo'q, sizlar tushib ketmaysizlar! Parvardigori olam sizlarni ham, meni ham o'z bag'rida asraydi. Men, barcha yulduzlar ichida eng sevimli bo'lган Yetti qaroqchini ko'ryapman. Kechqurunlari yoningdan chiqib ketgan paytlarimda, u darvozang ustida porlab turardi. Men unga hamisha hech to'ymasdan tikilardim! Unda o'zimdag'i mo"tabar tuyg'uning muqadas ramizi va belgisini ko'rarkanman, unga qo'llarimni cho'zardim! Yana... Oh, Lotta, bu yerdagi hamma, hamma narsa seni eslatadi! Atrofimdag'i hamma narsa sensan!

Men xuddi ochko‘z boladek, sening qo‘ling tekkan mayda-chuydalarni oldimga to‘plab olganman, bebaho durdonam!

Aziz siluetni esla! Uni senga vasiyat qilib qoldiraman, Lotta, o‘tinaman, uni avaylab asra. Men uni ming martalab o‘pganman, ketganimda va uyga qaytganimda unga ming martalab bosh silkitganman.

Otangga xat yozib, undan meni dafn etishga boshchilik qilishini so‘radim. Qabristonning dala tomonidagi eng chekkasida ikki tup arg‘uvon daraxti o‘sadi, meni o‘sha yerga dafn etishsin. U do‘sti xotirasi hurmati buni bajara oladi. Sen ham undan iltimos qil. Taqvodor nasroniylar qabri yonida bir sho‘rlik baxtsizning jasadi yotishini istamayman. Oh, meni yo‘l chetiga yoki tanho vodiyga dafn etishlaringizni, ruhoniy yoki dyakonning qabr yonida fotiha o‘qib o‘tishlarini, samariyaliklarning esa ko‘z yoshi to‘kishini istardim.

Vaqt bo‘ldi, Lotta! Mutlaqo seskanmasdan, ajal sarxushligini simirish uchun sovuq, dahshatli qadahni olyapman. Uni menga sen tutqazgansan, men hech ikkilamasdan ichaman! Hamma, hammasini, tubigacha! Mana, hayotimdagি barcha umid va istaklarim amalga oshdi! Xotirjam va hissiz bir holatda o‘limning mudhish eshigini qoqyapman.

O, menga sen uchun o‘lish baxti! O‘zimni sen uchun qurbon qilish baxti ato etilganda edi! Sening hayotingda shodlik va osoyishtalikni qayta tiklash evaziga hech ikkilamay, jon deb halok bo‘lgan bo‘lardim! Afsuski! O‘z yaqinlari uchun qon to‘kish va o‘z o‘limi orqali do‘stlariga

yuz karra ortiq yangi hayot bag‘ishlash sharafi kamdan-kam kishilargagina nasib bo‘ladi!

Lotta, meni shu kiyimda dafn etishlarini istayman, unga sening muqaddas qo‘ling tekkan. Otangdan ham shuni o‘tindim. Ruhim tobut ustida uchib yuradi. Cho‘ntaklarimni tintishga yo‘l qo‘yma. Mana bu push-tirang bant, seni ilk bor bolalaring orasida ko‘rganimda ko‘ksingda edi... Bolalarni men uchun o‘pib qo‘y hamda ularga baxtsiz do‘stilarining qismati haqida so‘zlab ber. Jonginalarim! Ular hozir ham meni o‘rab turishibdi! Oh, senga qanchalik intilardim. Shu bantni ham men bilan bir-ga ko‘msinlar. Sen uni tug‘ilgan kunimda hadya etganding! Men bularga hech to‘ymasdim!..

Og‘ir bo‘l! O‘tinaman sendan, og‘ir bo‘l!..

U o‘qlangan... Soat o‘n ikkiga zang urdi! Mayli, shunday bo‘lsin! ... Lotta! Lotta!... Alvido! Alvido!...»

* * *

Qo‘shnilardan biri porox portlaganini ko‘rgan va o‘q ovozini eshitgan, lekin shu zahotiyoy hammayoq jimjit bo‘lib qolgan, bunga ahamiyat bermagan.

Ertalab soat oltida xizmatkor sham ko‘tarib kiradi. U xo‘jayinining yerda yotganini, to‘pponcha va qonni ko‘radi. U Verterni chaqiradi, turtadi: javob yo‘q, xiril-lash eshitiladi, xolos. U doktorga, Albertga yuguradi.

Qo‘ng‘iroq tovushini eshitganda, Lottani titroq qam-rab oladi. U erini uyg‘otadi, ikkalasi ham o‘rinlaridan turadilar. Xizmatkor faryod ko‘tarib, bo‘lgan hodisani aytadi. Lotta Albertning oyog‘i ostiga behush yiqiladi...

Doktor baxtsiz bechora yoniga yetib kelganda, u yerda yotardi, tuzalishiga umid yo‘q edi, tomiri hamon urar, lekin tanasi deyarlisovugan edi. U o‘ng ko‘zi ustidan miyasiga o‘q uzgan, miyasi otilib chiqqandi. Qo‘l tomirini kesishdi, qon otilib chiqdi, u bo‘lsa hamon nafas olardi.

Oromkursi suyanchig‘iga tekkan qondan bilish mumkin ediki, u stol yonida o‘tirgancha o‘q uzgan, keyin polga qulab tushgan va talvasada oromkursiga urilgan. U orqasi bilan derazaga suyanib, butunlay holsiz yotardi. Oyog‘ida etik, ustiga sariq nimcha, ko‘k frak kiygan.

Butun uy, butun mahalla, butun shahar hayajonga tushdi. Verterni to‘sakka yotqizib, peshonasini bog‘lab qo‘yishdi. U qimir etmas, yuzi murdanikidek edi. O‘pkasi goh susayib, goh yana kuchayib, dahshatli xirillardi. Joni uzilish oldida edi.

Vinodan faqatgina bir stakangina ichilgan, stol ustida «Emiliya Galotti» ochiq yotardi.

Keksa amtman xabar topgan zahoti otda jadal yetib keldi va achchiq-achchiq yig‘lab, jon berayotgan kimsani o‘pdi. Ketidan katta o‘g‘illari kelishdi, kuchli iztirob ichida to‘sak yoniga tiz cho‘kib uning qo‘llari, labidan o‘pishardi. Verter juda yaxshi ko‘radigan eng kattasi esa, uning joni uzilguncha lablariga yopishib oldi, keyin bolani zo‘rg‘a ajratib olishdi. Kunduz soat o‘n ikkida Verter olamdan o‘tdi. Amtmanning hozirligi va u ko‘rgan chora-tadbirlar ko‘ngillarni tinchitdi. Uning ko‘rsatmasiga ko‘ra, Verterni kechasi soat o‘n birlarga yaqin, o‘zi istagan o‘sha joyga dafn etishdi. Qariya o‘g‘illari bilan tobut ortida ketdi. Albert borolmadni: Lottaning ahvoli og‘ir edi. Tobutni hunarmandlar ko‘tarib ketishdi. Ruhoniylardan birortasi ham uni kuzatib bormadi.

«Verter» haqida so‘z

«Yosh Verterning iztiroblari» romanı haqidagi ma'lumotlarga ham kitobxon befarq bo'lmashligi aniq. Ma'lumki, Gyotening ushbu asari jahon adabiyoti tarixida boshqa biron bir asarga nasib etmagan shon-shuhurat bilan yo'g'rildi. 1774 yil tarixda ana shu kitob yaratilishi yili sifatida mashhurdir. Roman bosilib chiqqanidanoq qo'ldan qo'lga o'tib, tez orada yuzlab tillarga tarjima qilinib, jahon bo'ylab tarqalib ketdi.

So'zimizning avvalida shuni ta'kidlamoq lozimki, Gyote adabiyot maydoniga kirib kelguniga qadar olmon tili nafaqat boshqa xalqlar tomonidan, balki olmonlarning o'zları tomonidan ham u qadar qadrlanmas edi. Bu haqda olmon olimi Herman Grimm shunday yozadi: «Gyote bizning tilimiz va adabiyotimizni kashf qildi. Gyotegacha ular Yevropa xalqlarining jahon bozorida hech qanday ahamiyatga ega emas edi... Shimoliy Germaniyaning barcha doiralarida ikkinchi ona tili farang tili, Avstriyada esa italyan tili hukmron edi. Volter Qomusdagi «Til» nomli maqolasida turli tillarning adabiy-tasviri xususiyatlari haqida so‘z yuritgan bo'lsa, olmon tili haqida lom-mim demaydi. Faqatgina Gyotening «Verter»i inglizlar va faranglar tomonidan miridan-sirigacha o'qib o'rganilgandan hamda asar Italiyaga ham kirib borganidan so'nggina oliy darajadagi olmon adabiyotining imkoniyatlari tashqi olamda tan olindi... Gyote nasri asta-sekin ma'naviy hayotning barcha jabhalari uchun ifodaviy vosita namunasini bo'lib bordi... Bizning butun epistolyar uslubimiz Gyoteda makon topgan. Biz foydalanadigan son-sanoqsiz

so‘z va birikmalar Gyotesiz nazarimizdan chetda qolib ketavergan bo‘lardi». Mana shu fikrning o‘ziyoq Gyote dahosi va «Verter» romanining jahonshumul ahamiyati mislsiz ekanligini ta’kidlab turibdi.

XIX asrning 30-yillariga qadar Gyotening «Verter»dan boshqa asarlari rus tiliga tarjima qilinmagan edi. Yolg‘iz shu roman orqali ham Gyote Rusiyada behad mashhur edi. Bu kitobcha ayniqsa his-tuyg‘ularga boy yoshlarni shu qadar rom etdiki, Verter va Lottaga taqlid qilib, xuddi asarda tasvir etilganidek, yosh yigitlar «oddiy havorang frak, sa-riq nimcha va shim», qizlar esa, «ko‘kragi va yeng uchlariga pushtirang bant qadalgan odmigina oq ko‘ylak» kiya-digan bo‘lishdi. Gyotega olis Xitoydan «Verter» syujeti bilan bog‘liq surat ishlangan chinni idish ham yuborishdi. Ushbu asarning odamlar qalbi va ruhiyatiga nechog‘liq ta’sir etganini yaqqolroq ta’kidlash uchun Tomas Mann o‘zining «Gyotening «Verter»i» nomli maqolasida shun-day bir voqeani keltiradi: «Bir ingliz ancha yillar keyin Vaymarga kelganida yo‘ldan o‘tib borayotgan Gyoteni ko‘rib qolib, ko‘cha o‘rtasida behush yiqilgan ekan, nega-ki «Verter» muallifining naq o‘zini ko‘rish uning uchun kutilmagan va hayratlanarli bir voqea bo‘lgan».

Tomas Mann Lotta bilan Verterni mumtoz she’riyat va rivoyatlardagi Laura va Petrarka, Romeo va Juletta, Abel-yar va Eloiza, Paolo va Francheska singari ishq-muhabbat juftlari qatoriga qo‘sadi. Darhaqiqat, «Verter»ni mutolaa qilgan har bir yigit shunday sevishni, har bir qiz shun-day sevilishni orzu qildi. Yoshlarning butun bir avlodи o‘z qalb qomusini Verterda ko‘rdi.

Verterning yoshlarga ta'siri shu darajaga borib yetdi-ki, o'z sevgilisiga yetisholmagan ayrim yigitlar Verterga taqlid qilib, hatto o'z-o'zini o'ldirishdi ham. Natijada kitobni ta'qiqlab qo'yishgacha bordilar. Asarning yoshlarga zarari haqida bong uruvchilar ham bo'ldi. Chunonchi, bundaylardan biri, o'sha davr olmon adabiyotining eng iste'dodli vakili shoir Lessing bo'lib, u shunday degan edi: «Tasavvur qiling-a! Bironta rim yoki yunon yigit shu taxlit o'z joniga o'zi qasd qilsa-ya! Hech aqlga to'g'ri kelmaydi!». Lessing yuragida his-tuyg'ular tug'yon urgan yigitning baxtsiz sevgi tufayli o'z-o'zini o'ldirishini qattiq qoralardi. Shu sababli matbuotda ham «Verter»ga qarshi chiqdi. Biroq asarning «kishining qalb torlarini chertib o'tuvchi ta'siri», «inson qalbi va ruhini ko'klarga ko'taruvchi» ahamiyati haqida ko'p gaplar aytildi. Ayniqsa mashhur san'atshunos Zulser «San'atning umumiylazariyasi» (1774) asarida «Verter»ning yuqoridagi singari qirralari haqida keng to'xtalib, romanning inson qadr-qimmatini, ma'naviyatini ulug'lashdagi ahamiyatini alohida ta'kidlagan va shu bilan asarni turli ta'qiblardan himoya qilgan edi.

«Yosh Verterning iztiroblari» romani Gyotening dastlabki nasriy asari hisoblanadi. Xo'sh, uning nomini jahonga mashhur qilgan, beqiyos shuhrat qozongan bu kitobcha qanday sabablarga ko'ra dunyoga keldi?

Ob'ektiv sabablardan eng muhimi shu ediki, XVIII asrning 70-yillarida san'atdagi antifeodal qarashlarning ifodasi sifatida «Bo'ron va hujum» deb nomlangan adabiy oqim vujudga keldi. Bu oqim ishtirokchilari adabiyotda

yangi shakl va yangi mazmun yaratish tarafdlari bo'lib maydonga chiqishdi.

«Bo'ron va hujum» oqimi faoliyatida ikki asosiy tipni kuzatish mumkin: birinchisi – hujumkor, jo'shqin tabiatli, hayotdagi har qanday chegaralashlarga qarshi kurashga otlangan, kuch-qudratli, fojiaviy, o'ziga xos daho qahramon bo'lsa, ikkinchisi – ehtirosli, xayolparast, ichdan kuyunuvchi, olam dardini qalbiga jamlagan, abadiy ozodlikni qo'msovchi, cheksizlikka intiluvchi qahramon timsoli bo'lishi kerak edi. «Hujumchilar»ning oldingi safida bo'lgan yosh Gyote o'z asarlarida bu xislatlarning barchasini o'zida jamlagan adabiy obrazlarni yaratdi. Uning Prometeyi xudolarga qarshi chiqishga jur'at etgan bo'lsa, Faust ona zamin dardi, zamin baxtini yelkasida ko'tara olishga qodir shaxs bo'lib gavdalandi. Shuning uchun ham u:

Men tilayman dovul va bo'ron,
Menga hislar otashi kerak,

deya hayqirdi. Bular tom ma'noda birinchi tip va killari edi. O'z xayollari, his-tuyg'ulari doirasidan chetga chiqolmagan, yig'loqi kayfiyatga beriluvchan Verter esa ikkinchi tip vakili edi. Demak, o'sha XVII asrning 70-yillarida yaratgan barcha asarlarida Gyote u yoki bu ma'noda «hujumchilar»ning manfaatlari va qarashlarini ifoda etdi, desak adashmaymiz.

«Verter» romanida yosh Gyote o'sha davrdagi har taraflama ilg'or fikrli, zukko va sezgir qalbli yigitning go'zal ichki kechinmalari, ehtiroslarini o'zida jamlan-

gan qahramon obrazini yaratish bilan «hujumchilar» harakati uchun xarakterli bo‘lgan qirralarni ohib berdi: goh junbushga keluvchi, goho o‘ta ruhiy tushkunlikka, yig‘loqilikka yuz tutuvchi tuyg‘ular, ehtiroslar erkinligi, tabiat qo‘yniga intilish, tabiatdan oziq olish, hamma narsani tabiat bilan bog‘liq holda ko‘rish, hayotdagi bir xilikka, kishilarni chegaralovchi, tabaqalarga ajratuvchi har qanday qonun-qoidalarni inkor etish, san’atni va ma’naviy erkinlikni targ‘ib qilish kabi muammolar «Verter»ning asosiy mag‘zini tashkil etadi. Eslatib o‘tish joizki, diniy masalada panteistik qarashlarni targ‘ib qilgan Gyote insonlarni o‘rab turgan butun borliqni, tabiatni Alloh bilan bir qatorga qo‘yadi. Shuning uchun ham u mudom tabiatga sig‘ingan, butun faoliyatida tabiatdan ilhom olgan. Shu sababli uning sevimli qahramoni Verter ham o‘zini tabiatning oshig‘i, do‘sti, farzandi deb ataydi hamda o‘z hayotini tabiatdan ayricha tasavvur etolmaydi.

Yaqinlashib kelayotgan fransuz burjua inqilobi ta’sirida bo‘lgan Yevropa yoshlari Verter obrazini o‘z qarashlarining ifodasi sifatida qabul qilishdi. Tomas Mann ta’biri bilan aytganda, Verter bunday yoshlarga «porox to‘ldirilgan idishga tushgan uchqundek» ta’sir qildi.

«Verter»ning dunyoga kelishiga turki bo‘lgan ikkinchi sabab, – ko‘proq sub’ektiv sabab, – Gyotening Sharlotta Buffga bo‘lgan javobsiz sevgisidir. Yosh litsensiat Gyote 1772 yilning mayidan to sentabrigacha otasining xohishi bilan Vetslar shaharchasidagi umumimperiya su-dida advokatlik amaliyotini o‘taydi. Ushbu davlat mah-kamasida uzoq yillardan beri ko‘rilmagan ishlar qalashib yotar, bunday diqqinafa joyda ishlash shoirni mutlaqo

qiziqtirmas, umuman, bu soha uning yuragini siqardi, xolos. Umumimperiya sudidagi zerikarli mashg‘ulotdan ko‘ra uni Vetslarning ko‘rkain, xushmanzara tabiat o‘z bag‘riga tortardi. U tabiat qo‘yniga chiqib ketib, Homer ni mutolaa qiliish, rasm chizish, she’rlar yozish, quvnoq yoshlarning davralarida bo‘lishni ko‘proq yoqtirardi.

Bir kuni yoshlar shahar chekkasida bazm tashkil etishi va Gyote shu bazmda Sharlotta bilan tanishadi. Ular birga raqs tushishadi, suhbatlashishadi, shu asnoda Gyote bu zukko, nazokatli qiz bilan o‘zi o‘rtasida allaqanday fikriy, ruhiy mushtaraklikni his etadi. U qizni yurakdan sevib qoladi. Biroq Lottaning «bir olivjanob yigitga» unashadirilganidan o‘sha bazm paytidayoq xabar topadi. Bu yigit shoir xizmat qiladigan sud qaramog‘idagi elchixona kotibi Yohann Kestner edi. Gyote ertasigayoq Lottanikiga yana boradi. Lottaning onasi vafot etgan, otasiga hamda o‘n bitta uka-singillariga ona o‘rnida g‘amxo‘rlik qilar, shuning uchunmi, o‘zi yosh bo‘lsa-da, xiyla jiddiy edi. U qizning otasi, ukalari, qaylig‘i bilan yaqindan tanishib, do‘sit bo‘lib qoladi. Ular mashhur shoirni behad qadrlashar, ko‘klarga ko‘tarishardi. Kestner bilan Gyotedagi xarakter-xususiyatlar tamoman bir-birining aksi bo‘lib, Kestner jiddiy, ko‘rinishdan yoqimli yigit edi. U ham Lottani behad sevar, biroq bu sevgida hech qanday «o‘ldim-kuydim» yo‘q, buni ko‘proq sokin, kelajakda birga oila qurishga qaratilgan, aniq maqsadga yo‘naltirilgan moyillik desa bo‘ladi. Gyote esa ochiqko‘ngil, shoirona kayfiyatli yigit edi. Tomas Mann «Gyotening «Verter»i» maqolasida shoir xarakteriga baho bergenida, mening nazarimda ancha oshirib yuborgan: uni «ishonchsiz, bir

joyda qo'nimi yo'q, daydi, his-tuyg'u quli, negaki u ya-qinda Frederika Brionni aldab tashlab ketgan, chunki uni oilaga mixlab qo'yishi mumkin bo'lgan nikohdan qo'rqqan edi. U «Faust»dagi «Men qo'rkoq emasmani? Boshpanasiz, qo'nimsiz, maqsadsiz maxluq» deya o'z-o'zini xarakterlagan iblisdir» deb tasvirlaydi. To'g'ri, Gyote nikohdan qochgan, oilaga mixlanib qolishdan qo'rqqan, bu narsa uning erkin ijod qilishiga to'sqinlik qilishi mumkin edi. U jahon kezishni, kengliklarni, tabiatni, o'z xayol so'qmoqlarida yo'qolib ketishni, to'yib ijod qilishni sevgan. Bordi-yu u uylansa, xotini uni yo tushunardi, yo tushunmasdi, ehtimol uning erkinliklarini chegaralab qo'yar, shu bilan ijodkordagi baland ilhom parvozi so'ngan bo'lardi. Agar unda jahongashtalik, has-sos tuyg'ular bo'lmanida, yozgan asarlari ham bu qadar ta'sirchan bo'lmasdi. Shuning uchun uni «his-tuyg'u quli», hatto «iblis» deya qoralab bo'lmasa kerak. Keyinchalik uylangan xotini Kristiana Vulpiusgina kim unga hayot yo'ldoshi ekanligini teran anglagan oqila ayol edi. U shoirning biron istagiga qarshi chiqmas, qayerga borsa, nima qilsa, barcha sharoitlarni yaratar, Gyotedekinson o'z hayotini u bilan bog'laganining o'ziyoq Kristiana uchun ulkan baxt edi.

Kim biladi, ehtimol, Sharlotta Buff agar hech kimga unashtirilmaganida ham, baribir Gyote unga uylanmasligi mumkin edi. Bu katta oilaga umrbod bog'lanib qolishdan qo'rqqan bo'larmidi. Tomas Mann keyinroq shoir xarakteriga ancha haqiqatga yaqin chizgilar beradi: «... chiroyli, yuksak iqtidorli, aql-zakovtli, ehtirosli tuyg'ularga boy,

bebosh va xayolparast, qisqasi, ijobiy ma'noda telbanamo kimsa edi».

Xullas, ana shunday yigit yozni Lotta yonida o'tkazadi. Biroq u Sharlottaga bo'lgan muhabbatidan pirovardida do'stlikdan boshqa hech narsa kutib bo'lmasligiga aqli yetadi. Lotta uni nechog'lik hurmat qilgan, ehtimol sevgan taqdirida ham zinhor Gyoteni deb Kestnerdan voz kechishi mumkinligi haqida og'iz ochmagan. Gyote o'z hislarini jilovlash lozimligini tushunib yetadi va ularning birortasi bilan xayrlashmasdan, bir enlik xatcha tashlaydi-da, 10 sentyabrda Vetslarni tark etadi. Gyotening 1772-74 yillardagi yozishmalarining assosiy qismini Kestnerlar oиласи о'rtasidagi xatlar tashkil qiladi hamda bu xatlar «Verter» romani yuzaga kelgan o'sha yillardagi muallifning shaxsiy holati va ijtimoiy shart-sharoitlarni to'g'ri baholash imkonini beradi. Bu qiziq, sermazmun xatlarni Kestnerlar avaylab saqlab kelishgan va 1854 yilda ularning o'g'li Avgust Kestner tomonidan nashr ettirilgan. Shu xatlarning aksariyati roman syujetiga asos qilib olingan.

Tabiat qo'yniga intilish, undan ilhom olish, tevarak-atrofda kechayotgan voqeа-hodisalarни kuzatib, ularga munosabat bildirish, dehqon bolalari hamda oddiy odamlar bilan muloqotlar, Lotta bilan ilk uchrashuvi manzaralari – uni bir to'da uka-singillari o'rtasida non ulashyotgan paytda ko'rgani, qizning ustidagi yengi va ko'kragiga pushtirang bant o'rnatilgan odmigina oq ko'ylak, bazm vaqtidagi kechinmalar, kishilarning o'z-o'zlarini o'ldirishlariga sabab bo'lувchi hodisalar ustidagi Kestner bilan bo'lgan bahslar, kishilarning o'lgandan keyin ham uchrashishlari borasidagi suhbatlar, Kestner va

Lottaning Gyote tug‘ilgan kuni, ya’ni 28-avgustga yuborgan sovg‘alari (hatto o’sha sana ham) – hamma-hammasi hayotda qanday bo‘lsa, xuddi shundayligicha romanda aks ettirilgan. Faqat asar xotimasigina boshqa bir voqeasiga qurilgan 1772 yilning 30-oktabrida Vetslarda, shoir yaxshi taniydigan, Vilhelm Iyeruzalim ismli bir yigit eri bor ayolni sevib qolib, o‘z-o‘zini otganidan keyin Kestnerdan uzundan-uzun maktub oladi. U voqealar tafsilotini miridan-sirigacha bayon qilgan, hatto Iyeruzalimning Kestnerga to‘pponchasini so‘rab yozgan xatchsini ham qo‘shib jo‘natgan edi: «Kelgusi sayohatim uchun to‘pponchangizni berib turishingizni so‘rayman! Iye.» (K.O.Konradi, 1-jild, 241-bet). Darvoqe, Iyeruzalim ham Kestnerning xotini Sharlottani yaxshi ko‘rib qolgan edi.

Romanning «Yozuvchiga noshirdan» qismidagi ak-sariyat tasvirlar: Verterning o‘z joniga qasd qilishga tayyorlanishi, o‘zini qay taxlit otgani, uni dafn etish marosimi Kestnerning ana shu xati asosida bitilgan. Verterning Albertga uning to‘pponchasini so‘rab yozgan xatchasi ham xuddi Iyeruzalimning xatchasiga o‘xshaydi: «Sayohatga chiqish uchun to‘pponchangizni berib tursangiz. Sizga doimo sog‘lik tilayman» (Gyote, «Yosh Verterning iztiroblari», G‘. G‘ulom nomidagi ASN., T.. 1975, 176-bet). Romandagi so‘nggi jumlalar ham Kestner maktubidagi Iyeruzalimni dafn etish marosimi tasviriga deyarli o‘xshaydi. Kestnerda: «Kechasi chorakkam o‘n birda uni shov-shuvsiz oddiy cherkov qabristoniga dafn etishdi. O‘n ikkita chiroq yoqilgandi, dafn marosimida bir necha kishi qatnashdi, xolos. Uni sartaroshxonada xizmatchilari ko‘tarib borishdi; oldinda xoch ushlab borishdi. Ruhoniylardan bi-

rortasiyam uni kuzatib bormadi».(241-bet). «Verter»da: «Uning (amtmanning – Ya.E.) ko‘rsatmasiga ko‘ra, Verterni kechasi soat o‘n birlarga yaqin o‘zi istagan joyga dafn etishdi. Qariya o‘g‘illari bilan tobut ortidan ketdi. Albert borolmadi: Lottaning ahvoli og‘ir edi. Tobutni hunarmandlar ko‘tarib ketishdi. Ruhoniylardan birortasiyam uni kuzatib bormadi» (186-bet).

Keyinchalik Gyote o‘zining «She’riyat va haqiqat» kitobida ko‘rsatib o‘tganidek, xuddi o‘sha, Iyeruzalimning o‘limi haqidagi xatni olgan soniyalardan boshlaboq «Verter» rejasi pishib yetilgan, uning asosiy qismlari har tarafdan yopirilib kelib, bir butunlikni tashkil eta boshlagan. Shunga qaramay, roman yozilguncha tag‘in salkam bir yarim yil o‘tgan. Bu orada Gyote Frankfurtda Maksimilian Larosh ismli ko‘zлari qop-qora, behad go‘zal qiz bilan tanishadi. U 1774 yilning yanvarida frankfurtlik boqqol Peter Brentanoga uzatilgandi. Go‘zal qiz yog‘ va pishloq hidi anqib turgan bu badavlat xonadonda o‘zini baxtsiz his etar, shu boisdan Gyotening bu yerga tashriflari uni xiyla ovutardi. Gyote xuddi Lottaning ukalari bilan o‘ynagandek, Maksining beshta o‘gay bolalari bilan ham xilma-xil o‘yinlar o‘ylab topar, Maksimilian bilan musiqa chalishar, soatlab suhbatlashishardi. So‘zsiz bu narsalar boqqol Brentanoga yoqmaydi. Bir kuni u qattiq janjal ko‘taradi va shu bilan do‘stlik ham yelga uchadi. «Verter»ning yozilishiga shu voqeа ham katta turki beradi. Tomas Manning yozishicha, «Verter»dagi Lotta ko‘zлarining qoraligi Brentano xonimdan olingan, aslida Sharlotta Buffning ko‘zлari ko‘k bo‘lgan.

Xullas, 1774-yilning fevralidan boshlab sho'rlik Verterning kechinmlari kitob holiga kela boshladi. «She'riyat va haqiqat» asarining guvohlik berishicha, romanni yozish ko'p vaqt ni olmaydi. Fevralda yozib boshlangan asar qo'lyozmasi may oyida Laypsixga, noshir Vaygandga jo'nataladi. Uzoq muddat ko'ngilga tugib kelingan fikr-o'ylar go'yo yashin tezligida qog'ozga tushadi-qo'yadi. Bu – romanning birinchi nusxasi edi. Ikkinchi nusxasi 1778-yilda to'ldirilgan, qayta ishlangan holda nashr etiladi.

Oradan ko'p yillar o'tib, Gyote o'z o'tgan umriga qayta nazar tashlab, «Verter»ning yozilishi, umuman ushbu asar hayotdagi chigalliklarni yengib o'tish, ulardan qutulishga intilish natijasi, deb atagan edi. «She'riyat va haqiqat» kitobida u shunday yozgan edi: «Boshqalaridan ham ko'ra ushbu asarim menga junbushga kelgan halokat changalidan qutulib chiqish imkonini berdi... O'zimni baayni yuragidagi dardlarni kimgadir to'kib solgan odam-dek, yengil, xursand, yangicha yashashga jazm qilgandek sezdim».

Verterning qo'lidan kelmagan ish, ya'ni «junbushga kelgan halokat changalidan qutulib chiqish»ga yozuvchi muvaffaq bo'ldi. Tabiiyki, bunda faqat Sharlotta Buffga yoki Maksimilianaga bo'lgan umidsiz sevgigina emas, balki 1771-74 yillardagi shoirni qiyagan ruhiy tushkunlik ham ko'zda tutiladi. O'sha paytlarda shoirda allaqanday ichki noxushliklar, ya'ni o'z-o'zidan qoniqmaslik, lanjlik, hayotdagi o'z o'rnini anglab yetishga bo'lgan urinishlar, o'z iqtidoriga to'la ishonsa-da, nimadandir mudom norozilik holatlari uni beorom qilar, bularning

barchasi hatto uni yashashdan to‘yishgacha olib kelardi. Verter maktublarida goh qayg‘u-alam girdobida, goh quvonch to‘lqinida bitilgan gaplar keyinchalik Gyotening o‘ziniyam hayratga solgan. Gyote va Verter shaxsiyatlarini bir-biriga qiyoslab aytish mumkinki, u bir vaqtning o‘zida ham Verter edi, ham o‘zga edi: negaki Gyote o‘z qahramoniga nisbatan sermulohazaroq faoliyat egasi edi. U o‘z-o‘zini o‘ldirish fikrining barcha qayg‘uli bosqichlarini bosib o‘tdi hamda bu fikrni o‘zidan quvishga iroda va kuch topa oldi. “She’riyat va haqiqat”da u o‘zining o‘tkir qilib qayralgan qimmatbaho xanjarini har kech to‘shagi yoniga qo‘yib yotishini, shamni o‘chirishdan oldin, uning o‘tkir uchini ko‘kragimga bir-ikki enlik sancha olarmikanman, deya sinab ko‘rmoqchi bo‘lganini, biroq bu ish qo‘lidan kelmaganini, shundan so‘ng o‘z ustidan kulib qurolni otib yuborganini va yashash kerak degan qaror-ga kelganini yozadi (494-bet). «Men hozircha o‘zimni shundoqqina otib qo‘yaqolmayman» deya hazil ohanggida yozgan edi u Kestnerga.

1780 yilning 30 aprelida kundalik daftarida: «nashr qilinganidan buyon endi boshdan-oyoq o‘qib chiqdim va hayratdan yoqa ushladim» deb yozgan. Qayta o‘qishga hech qachon yuragi betlamagan shoir: «Turgan-bitgani olovli yolqin, buni o‘qish ham dahshat» deb yozgan.

U o‘z avlodini azoblagan va holdan toydirgan barcha ko‘rguliklarni shaxsan boshidan kechirgan edi. Bu kechinmalar «Verter»da go‘yo aks-sado bo‘lib yangradi. Gyotening «Prometey»i, «Faust»i va boshqa ijtimoiy-falsafiy asarlaridagi yuksak ko‘tarinki ruh nuqtai nazariidan shoirga baho berishga odatlanib qolgan kishilar uning

qalbidagi ichki qarama-qarshiliklarni ko‘pam tushunib yetavermasdi. Aslida uning ilm-fan, siyosiy sohalardagi faoliyati, adabiyotdagi beqiyos xizmatlari ichki noxushliklar, mudom unga ergashib yuruvchi ruhiy tushkunliklar asosiga qurilgan edi. U do‘sti Selterga yozgan xatida bu haqda to‘xtalib, o‘zi o‘ralashib qolgan, qalbiga hecham o‘tirishmaydigan mana shu chigal shart-sharoitlardan, taqdir injiqliklaridan qutulib chiqishda undagi xudo bergen iqtidorgina ko‘mak berayotganini ta’kidlagan edi.

«Yosh Verterning iztiroblari» romani epistolyar, ya’ni xatlardan iborat romanidir. Bunday shakl o‘zida ham dramatik, ham she’riy, ham nasriy asarga xos xususiyatlarni birlashtirgan bo‘lib, qahramonning ruhiy o‘z-o‘zini anglashi, tanqid va tahlil qilishi uchun har taraflama imkoniyatlar yaratadi. O‘sha paytda shunday janr kun tartibida turardi. Ayniqsa asr o‘rtalarida ingliz epistolyar romanlari mashhur edi. Ular ko‘tarinki his-tuyg‘ular, ehtirosli ko‘ngil kechinmalariga boy edi. «Verter» aynan mana shunday sentimental romanlar ta’sirida yozildi. Buning o‘sha romanlardan farqi shunda ediki, ular qahramonlarining bir-birlariga yozgan xatlardan iborat bo‘lsa, Gyoteda faqat Verter yozadi. Xatlar asosan Vilhelm ismli do‘stiga, ayrimlari Albertga va Lottaga yozilgan. Ularning Verterga javoblarini, uning xatti-harakatlariga munosabatlarni ham kitobxon Verter xatlari mazmunidan bilib oladi. Kitobning «O‘quvchiga noshirdan» qismida noshirning Verter o‘limi, uning so‘nggi kunlardagi ahvoli, dafn mafrosimi haqidagi fikrlari beriladi, xolos. Butun tashqi olam qahramon kechinmalari, dil izhorlarida jamlangan.

«Bu kichkina roman mohirona bitilgan asardir, – deb yozadi Tomas Mann, – u qalb kechinmalari, ruhiy tug‘yonlarning ustalik bilan, bekamu-ko‘st, nafis bir tarzda jamlangan xilma-xil ko‘rinishlari bo‘lib, ular o‘lim va shirin hislar manzarasini o‘zida mujassam etgandir... Har qanday chegaralashlardan, qafasdan qutulib cheksizlikka intilish Verter tabiatining asosidir, shu jihatdan u Faustga o‘xshab ketadi. U bepoyon kengliklar va kelajak haqida, kengliklarga va kelajakka tiyib bo‘lmash intilish haqida yozadi...» («Gyotening «Verter»i» maqolasidan, 259-bet).

Endi Verterning o‘z-o‘zini o‘ldirishga sabab nima, degan masalaga keladigan bo‘lsak, «Verter» haqidagi ko‘plab tanqidiy asarlarda uning halokatga uchrashi – bu feodal tuzumi, unda kishilarning tabaqalarga bo‘linishi, chegaralanishi oqibatidir deyiladi. Ehtimol, shundaydir. Biroq nafaqat feodal jamiyatda, balki har qanday ijtimoiy tuzum bag‘rida ham bunday holatlarni ko‘rishimiz mumkin-ku? «Jamiyatda ko‘zga ko‘ringan mavqeni egallagan kishilar, - deb yozadi Verter 1771 yili 15 maydagi xatida, – go‘yo obro‘dan ayrilib qolishdan cho‘chigandek, oddiy fuqarodan o‘zlarini chetga tortadilar,... ular o‘zlarini go‘yo oddiy xalqqa iltifot ko‘rsatgandek tutadilar-u, bu bilan o‘z kalondimog‘liklarini yanada ko‘proq namoyon qladilar» (Romanning o‘zbekcha nashri, 1975, 13-bet).

Nima, bunday odamlar faqat feodal tuzum davrida bo‘lganmi?

Verter xizmat qilgan elchixona boshlig‘ini olaylik. Bunday harfxo‘r, kaltabin, o‘z amal kursisidan ajralib qolmaslik uchun har qanday yaramaslik, pastkashlikdan qayt-

maydigan, «ezma xotinlardek qildan qiyiq axtaradigan», ish bilmasliklari tufayli «o‘zlarini ham, o‘zgalarni ham qiy Naydigan» johil boshliqlar qaysi jamiyatda bo‘lman? Hozir yo‘qmi ular? Verter kabi halol va kuyunchak har qanday odam hozir ham atrofidagi mana shunday odamlardan, mana shunday hayot tarzidan qiynalishi, ulardan xalos bo‘lish yo‘lini topolmay iztirob chekishi tabiiy-ku!

Verterning o‘z joniga qasd qilishiga sabab faqatgina ijtimoiy muhit yoki bo‘lmasa faqatgina sevgilisiga yetisholmagani, deb izohlash xato bo‘lardi. Aslida unisi ham, bunisi ham. Shu bilan birga bu hodisaga baho berishda qahramonning xarakter-xususiyati, dunyoqarashidan ham kelib chiqish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Verter o‘zbekcha so‘zlaganda...

Gap tarjima haqida ketganda Chingiz Aytmatovning «Tarjima – muhabbat farzandi» degan hikmatnamo gapi esga tushadi. Darhaqiqat, so‘zga, adabiyotga, tarjima qilinmoqchi bo‘lgan asarga cheksiz muhabbat qo‘ymay turib yaxshi tarjima yaratish mumkin emas. Shuning uchun nashriyotlarning maxsus topshirig‘i bilan emas, tarjimon o‘zi xohlagan, yuragini «jiz» etkizgan asarni tanlashi kerak. O‘sha asar tarjimonni shu qadar rom etmog‘i lozimki, toki uni tarjima qilmay turolmasin, o‘shanda kitob asl nusxada kishilarni qanday larzaga solgan bo‘lsa, tarjimada ham xuddi shunday ta’sir kuchiga ega bo‘lardi. Bordiyu shularning aksi bo‘lsa, yaxshisi tarjimaga qo‘l urmay qo‘yaqolgan ma’qul. Chunki tarjima ham san’at, badiiy

ijod. Yozuvchi o'sha asarni nechog'lik ilhom bilan yaratgan bo'lsa, mutarjimni ham shunday ilhom o'z og'ushiga olishi kerak. Demak, tarjima uchun kitob tanlash pirovardida muvaffaqiyatni ta'minlovchi muhim omillaridan biridir. Zabardast o'zbek tarjimonlari M.Shayxzoda, A.Qahhor, K.Qahhorova, Q.Mirmuhammedov, A.Oripov, E.Vohidov, Mirtemir, Ibrohim G'afurov, Jamol Kamol, Nizom Komil, Muhammad Ali, Abdulla Sher va boshqa qalamkashlar qo'lidan chiqqan, o'zbek adabiyoti xazinasidan munosib o'rin olgan eng yaxshi tarjima namunalari ana shunday muhabbat mevalaridir.

Jahon mumtoz adabiyoti namunalari, buyuk daholarning asarlari tarjimasi ayniqsa yuksak mas'uliyat talab etadi. Tarjimon bir zum ham kimni tarjima qilayotganini, qanchalik sharaflı vazifani o'z zimmasiga olganini esdan chiqarmasligi zarur. O'sha buyuk asarni buyukligicha o'z xalqiga taqdim qilishi, bu ish juda katta mehnat talab qilishini, buni uddalash jasorat bilan teng ekanliginiyam yodida tutishi, o'zida shunga kuch va iqtidor sezsagina, ruhan, qalban shu jasoratga tayyor bo'lsagina shoh asarlar tarjimasi uchun qo'lga qalam olish durust bo'ladi. Bino-barin, Gyotedek daho ijodkor asarlari tarjimasi ham ana shunday mas'uliyattalab mehnatdir.

Shu satrlarni yozyapman-u, Gyotening «Yosh Verterning iztiroblari» romanidek jahonni zabt etgan asar tarjimasiga kirishganim 1969 yilning kuz oylari xayolimda jonlanadi. Xo'sh, shaklan mo "jazgina, mohiyatan beqiyos bu kitobchani o'zbekchaga o'girishga – bunday jur'atga meni nima undadi? Axir u paytlar universitetlarda tarjima nazariyasi va amaliyoti fan sifatida o'r ganilmas, men tarji-

mon oldiga qo‘yiladigan talablarni ham tuzukroq bilmashdim. Endigina oliy o‘quv yurtini bitirib, talabalarga olmon tilidan saboq beruvchi o‘qituvchi edim, xolos. Shubhasiz, Gyoteni, ayniqsa uning «Verter»ini bir tildan ikkinchi tilga o‘girish uchun olmon tilini bilishning o‘zagina yetarli emas. To‘g‘ri, adabiyotga bo‘lgan muhabbatim cheksiz edi. O‘zbekcha badiiy asarlarni tinimsiz mutolaa qilardim. Harqalay badiiy ijod sohasida nimadir qilish niyatim ham yo‘q emasdi. Ammo... Gyotedek zabardast ijodkor asarini tarjima uchun tanlashga turtki bergen, so‘z bilan ifoda etib bo‘lmaydigan yana nimadir, ehtimol o‘sha ulkan muhabbatga o‘xshagan narsa ham kerak edi nazarimda. Yillar davomida qalbimning qayeridadir, qaynab toshishga yo‘l topolmayotgan ilhom bulog‘ining ko‘zi shu «Verter» tufayli ochilgan-u, badiiy tarjima bois o‘ziga yo‘l topgandek go‘yo...

«Verter»ga mehr menda talabalik yillarimda, roman dan katta bir parchani tahliliy o‘qish darsida batafsil o‘rgangan paytimizda tug‘ilgan edi. Qolaversa, qahramon bilan xarakterlar mushtarakligi, sof sub’ektiv sabablar bunga turtki bergen bo‘lishi ham mumkin...

Xullas, bu kitobni asliyatda qayta-qayta o‘qir, Verter taqdiri uchun unga qo‘shilib ko‘z yoshi to‘kardim. Asar mening yuragimni «jiz» etkizibgina qolmasdan, balki butun qalbimga, borlig‘imga tug‘yon olib kirgan, o‘y-xayolimni egallagan edi. Bunday holatda uni tarjima qilmay bo‘lmasdi. Gyoteni tarjima qilishga, to‘g‘ri, nazariy jihatdan tayyor emasdim, ammo ruhan, butun shuurim bilan tayyor ekanligimni anglab yetgach, bu ishga jur‘at etdim. Mana, oradan o‘ttiz yildan oshiqligini vaqt o‘tibdi hamki, o‘sha

paytdagi o‘zimdagи holatni aniq xotirlayman: nahotki shunday ajoyib asardan faqat birgina men lazzat olsam? Nahotki buni barcha o‘zbek o‘quvchilariga yetkazishning iloji bo‘lmasa? – degan savol meni qiynardi. Yo‘q, men buni tarjima qilishim kerak, toki barcha kitobsevar o‘zbeklar asardan bahramand bo‘lishsin, degan niyat bilan qo‘lga qalam olgandim. Xudoga shukurki, u alohida kitob holida o‘zbek kitobxonlari qo‘liga yetib bordi. Har-qalay, tarjimani kitobxonlar iliq qarshilashdi, nazarimda.

Hamma zamonlar Gyote asarlari, ayniqsa, «Verter» tarjimasiga kirishgan qalamkashlar, bu so‘z san’atkorining buyukligi, so‘zlarining sehri oldida ta’zim qilishgan. Gyote ijodining Rusiyada tarqalish tarixini tadqiq qilar-kan, V.M. Jirmunskiy «Gyote rus adabiyotida» monografiyasida «Verter»ning dastlabki, XVIII asrdagi tarjimonlari haqida o‘ta hayajonli ma’lumotlarni keltiradi. «Verter» tarjimasiga «Do‘stona adabiy jamiyat» deb nomlanuvchi to‘garak a’zolaridan Andrey Turgenev va Merzlyakovlar bir vaqtida kirishishadi va ish natijalari bilan bir-birlarini muntazam xabardor qilib turishadi. Qani endi bizda ham shunday ijodiy musobaqalar bo‘lib tursa! Andrey Turgenev 1799 yilning 26 noyabrida o‘z kundalik daftarida ijod jarayonidagi qalb tug‘yonlarini shunday ifodalaydi: «... tag‘in uning «Verter»ini qo‘lga oldim. Bu shunaqa tuyg‘uki, go‘yo yoqimsiz, bo‘m-bo‘sh,sovuq, yot bir yerda tarovatli bir olamga qadam qo‘ygandek bo‘lasan kishi. Tag‘in Gyote, Gyote, uning qarshisida tiz cho‘ksang arziydi! Qanchalar oziq olasan kishi... «Verter»ni tarjima qilishga kirishganidan va unda Gyoteni butun borlig‘i bilan topa olganimdan qalbim shunchalar yayrayaptiki!

Bu tuyg‘uni izohlab berolmayman, u menga qandaydir iliqlik, yupanch baxsh etadi...».

Yo tovba, deya hayratga tushaman: xuddi shunday tuyg‘ular menda ham hukmron bo‘lgan edida, axir! Bunday tuyg‘uni so‘z bilan ifoda etib bo‘lmaydi, uni fagat his etish kerak. Hatto Gyotening o‘zi ham keyinroq «Verter»ni o‘qib ko‘rib behad hayratga tushganini yozgan. U do‘sti Ekkermanga: «Verter shunday zotki, men uni baayni saqoquushdek yurak qonim bilan oziqlantirganman», degan. So‘zsiz, tarjimon ham uni «o‘z yurak qoni bilan oziqlantirishi», muallif o‘sha asarni yozish jarayonida qanday holatlarga tushgan bo‘lsa, zo‘rma-zo‘raki emas, tabiiy bir holda boshdan kechirishi kerak. O‘sha paytda bitgan kundalik daftaramni varaqlab, ayni shunday iztiroblar aks etgan yozuvlarni o‘qidim: «16.XI. 1969. Bu kitobning oxirgi varaqlari meni ham qahramonga qo‘sib o‘ldirib qo‘yadimi, deb qo‘rqaman. Uni oddiy kitobxon-dek o‘qib chiqish boshqa-yu, har bir so‘z, har bir jumla mazmunini his etib, tarjima qilish boshqa ekan!.. So‘nggi sahifalarni deyarli lug‘atdan ham foydalanmay tarjima qilyapman. Marjon-marjon ko‘z yoshlарim Verter va Lot-taning ko‘z yoshlарiga qo‘silib ketyapti. Hech bir kimsа buni – mening qalb tug‘yonlarimni his etolmaydi!.. Mabodo shu kitob bosilib chiqsa, buni bitirguncha tarjimon qancha yurak qo‘ri, behisob ko‘z yoshlарini sarflaganini biror o‘quvchi xayoliga keltirarmikan?.. Albatta, yo‘q...». Bu tabiiy hol. Negaki «Verter»ni loqayd, ehtirossiz, iztiroblarsiz o‘qib, ayniqsa tarjima qilib bo‘lmaydi. U biron-bir boshqa asarga o‘xshamaydi, o‘zi alohida bir dunyo.

Ayniqsa, qahramon hayotining so‘nggi daqiqalari, so‘nggi alam va iztiroblari ifoda etilgan satrlarni o‘girish azob edi! Tarjimon holatini tasavvur etish uchun tag‘in uning kundalik daftariga murojaat qilamiz: «18.XI.1969. Ulkan sevgiga hamisha o‘lim hamroh bo‘lib yurarmish... Bugun huzurli va ayni paytda mashaqqatli ishimni nihoya-siga yetkazdim. Oxirgi varaqni o‘girishda chinakam dod solib yig‘ladim, go‘yo eng yaqin kishim vafot etgandek. Bir satr yozaman-da, ortiq kuchim yetmay, yig‘lashga tushaman. Biroz o‘zimni tutib olgach, yana yoza boshlayman... Xullas cheksiz iztirobda tugatdim. Eh-he, kim ham his eta olardi mening holatimni! Bu ma’nosiz so‘zlarining hech narsani ifodalay olmasligi-ku turgan gap!...».

Sirasini aytganda, haqiqiy badiiy tarjima uning ilohiy huzur va azoblarini tom ma’noda boshdan kechirgandagi-na yaratiladi. Buni xuddi aktyorning rolga kirish holatiga qiyoslash mumkin. Gyotening o‘zi ham asarni yig‘lay-yig‘lay yozgan ekan. Kitob bosilib chiqqandan keyin ham uni qo‘lga olishga yuragi betlamagan. Oradan uzoq yillar o‘tgach, «shunday narsani yozib ham odamning tirik qol-ganiga aqling bovar qilmaydi» deb yozgan «She’riyat va haqiqat» kitobida.

Shubhasiz, «Verter»ni tarjima qilish nafaqat ruhiy, balki uslubiy va til xususiyatlari jihatdan ham oson ish emas. Gyote uslubi haqida so‘z yuritar ekanmiz, Tatyana Silman ta‘biri bilan aytganda ikki yo‘nalishni kuzatish mumkin: biri uning «Bo‘ron va hujum» davri asarlariga xos bo‘lgan yig‘loqilik, jo‘shqinlik, obrazlilik, ehtiroslar-ga boy mubolag‘ali tilda fikr ifodalash bo‘lsa, ikkinchisi, Gyotening keyingi yillar ijodiga xos bo‘lgan epik uslub

bo‘lib, fikrlar uzun-uzun, murakkab tarkibli qo‘shma gaplar orqali, bosiq, rasmiy ohangda beriladi. «Yosh Verterning iztiroblari» romanida har ikkala uslub o‘rin almashib turadi. Keyingisi aksariyat romanning birinchi kitobida, hali Lotta bilan tanishmagan paytdagi Verterning ichki mushohadalarini o‘z ichiga olgan xatlarida hamda asarning «O‘quvchiga noshirdan» qismida qahramonning so‘nggi azobli kechinmalari, o‘limi va uni dafn etish mafrosimi haqidagi falsafiy kechinmalari «prozaik uslubiy yo‘nalish» (T. Silman)da, ba’zan yarim sahifani egal-lagan murakkab tarkibli qo‘shma gaplar (period) orqali bayon etilgan. Bunda xilma-xil ergashgan va bog‘langan qo‘shma gaplarning aralashib kelishi, buning ustiga turlituman badiiy til vositalarining qalashib yotishi tarjimonni ba’zan boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yadi. Mana shundy tizma-tizma jumlalar tarjimasida uning sintaktik qurilishi bilan birga turli uslubiy maqsadlarda qo‘llanilgan undalma, o‘xhatish, sifatlash, izohlovchi, sifatdosh guruhlari va shu kabi vositalarga ham putur yetkazmasdan o‘zbek tilida qayta tiklash juda katta mehnat va ko‘p vaqt talab qiladi. Ayniqsa, turli til oilalariga mansub tillar (masalan, o‘zbek va olmon tillari)aro tarjimada sintaktik muammolarni hal etish xiyla murakkabdir. Tarjimashunoslar buni butun binoni buzib, yana qaytadan tiklashga qiyoslashadi.

Harqancha qiyin, mehnattalab bo‘lganida ham men «Verter» tarjimasi ustida ishlayotganimda bir daqiqa ham Gyotedek buyuk ijodkor, Verterdek nozikta’b, jo‘shqin qalbli obraz bilan muloqotda ekanligimni unutmasligim, har bitta gyoteona tasvirni, teran tasvir jilolarini iloji boricha fikr tarozusida obdon o‘lchab, o‘zbek tili qonuniyat-

lariga mos tarzda o‘girishim zarur edi va shunga erisha oldim, deb o‘ylayman.

Mening nazarimda, «Yosh Verterning iztiroblari» romanı nasrdagi nazmdir, lirkadir! Demak, uning tarjimonini ham, tarjima tanqidchisi ham ish jarayonida ana shu nuqtai nazardan kelib chiqishi lozim. Bu degani: unga boshqa nasriy asarlar kabi emas, balki go‘yo lirkik dostonni tahlil qilayotgandek munosabatda bo‘lish talab qilinadi. Chunki «Verter» kishida o‘ta nozik, o‘ta rubobiy histuyg‘ularni uyg‘otuvchi, go‘zal adabiy obidadir. Bunday asar tarjimasi ham maroqli, ham behad qiyin ish. Asarning lirkik uslubda bitilgan qismlari garchi tili g‘oyat obrazli, serjilo bo‘lsa-da, gap tuzilishi jihatdan tarjimonni qiy-namaydi. Yodimda bor: Verter qalbidagi ko‘tarinki his-hayajon, ehtiroslarni aks ettirgan sahifalarni, ayniqsa, ikkinchi kitobni xuddi o‘zim yozayotgandek yig‘lay-yig‘lay tarjima qilib ketavergandim. Bunda eng muhim narsa ona tilidan ham asl nusxadagi ehtirosli, obrazli so‘z va iborralarga mos keladigan vositalarni topa bilish, ularni o‘z o‘rnida ishlata bilishdir. Bugina emas, asar g‘oyasi, ichki mohiyati, qahramonlarning u yoki bu sharoitdagi, muhitdagi holati, kayfiyati, umuman, yozuvchi aytmoqchi, ta’kidlamoqchi bo‘lgan maqsad ham yodda turishi lozim, matnga harfxo‘rlarcha emas, balki ijodiy munosabat zarur. Agar tarjimon asar ichiga tamoman kirib keta olsa, miyasiga go‘zal ifodalar o‘z-o‘zidan quyilib kelaveradi va u ham kitob qahramoni singari goh ko‘tarinki his-tuyg‘ular, goh ko‘z yoshlari va iztiroblar olamiga singib ketadi. Ana shundagina ona tilining bor imkoniyatlari «mana men», deb yuzaga chiqishi mumkin.

Qahramon qalbida junbushga kelgan ko‘tarinki his-hayajonni yoki bo‘lmasa haddan ortiq qayg‘u-iztiroblarni aks ettirish uchun yozuvchi mubolag‘adan unumli foydalanadi. Masalan, Verterning alam-iztiroblarini ko‘rsatishda ko‘p o‘rinlarda «Tränen» – «ko‘z yoshlari» so‘zi, kayfiyatidagi ko‘tarinkilikni ko‘rsatishda esa «Freude» – «quvonch» so‘zi takror-takror ishlataligani. Biroq bu so‘zlar har gal «Tausende» – «minglab», «ein Strom» – «oqim» so‘zlar bilan birgalikda kelganki, bu aniqlovchilar tasvirga yig‘loqilik, obrazlilik ruhini singdiradi. Bu bilan yozuvchi qahramonning shunchaki yig‘lamasligini yoki shunchaki quvonmasligini, balki uning qayg‘usi ham, quvonchi ham cheksiz-chegarasiz ekanligini ta’kidlaydi-ki, asar tilidagi ana shu jihatlarni qahramon xarakter xususiyatlardan ke-lib chiqib tarjima qilish lozim bo‘ladi. «Tausende» so‘zi so‘zma-so‘z «minglab» degan ma’noni anglatadi. Lekin «ko‘z yoshlari» yoki «quvonch» tushunchasini sanab bo‘lmasligini hisobga olsak, uni bunday tarjima qilish o‘zbek tili qonuniyatlariga mos kelmaydi. Shuning uchun biz bu tushunchalarni quyidagicha o‘girdik:

«Ein Strom von Tränen» (so‘zma-so‘z – ko‘z yoshlari oqimi) – «Ko‘z yoshlari seli»;

«Tausende Tränen» (so‘zma-so‘z – minglab ko‘z yoshlari) – «behisob ko‘z yoshlari»;

«Mit tausend Freuden» (so‘zma-so‘z – minglab quvonch bilan) – «cheksiz quvonch bilan» va hokazo.

O‘ylaymizki, ushbu tarjimalarda asar va uning qahramoniga xos bo‘lgan sertimental ruh qayta tiklangan. Romanda bulardan tashqari ayni o‘scha «hujumkor daholar» davri uslubini ifodalovchi, Verterdag‘i xilma-xil holat va

kayfiyatlarni namoyon etuvchi so‘z birikmalariga har qadamda duch kelamizki, quyida shulardan ayrimlarining tarjimasini ko‘rib o‘tamiz:

Mein geprässtes Herz – ezilgan yuragim;

Finstere Zukunft – zulmatga eltuvchi istiqbol;

Weine troslos – o‘ksib-o‘ksib yig‘layman;

Köstlicher Balsam – beba ho darmon;

Man möchte Maikäfer werden – kapalak bo‘lib qolging keladi;

Jahreszeit der Jugend – fasllar kelinchagi va hokazo.

Keltirilgan so‘z birikmalarining deyarli barchasi tarjimada asl nusxaga aynan mos keladi. Masalan, «weine trostlos» (bezuteshno plakat) fe’lli birikmani oladigan bo‘lsak, undagi «trostlos» so‘zi rus tilida «bezuteshno» ma’nosini anglatadi va bu so‘z «Ruscha-o‘zbekcha lug‘at» (O‘zSE Bosh Redaksiyasi, T., 1983)da «hasrat chekib», «dard-alam bilan» deb o‘girilganki, bular ko‘proq kitobiy uslubni ifoda etadi. Bu variantlar «Verter» kontekstiga u qadar mos kelmagan bo‘lardi. Negaki Verter shunday yig‘laydiki, bu olamda uni yupatguvchi imkon yo‘q. Shu sababli, biz Verterdagи ana shu holatni ochib berishga ko‘maklashuvchi «o‘ksib-o‘ksib» birikmasini tanladikki, nazarimizda bu muallif maqsadiga ham mos keladi. Shuning uchun tarjimon hamisha ham lug‘atlarda berilgan so‘z ma’nolarigagina yopishib olmasdan, matnga ijodiy yondoshishi, tarjima qlinayotgan asar g‘oyasiga, qahramon ruhiyatiga to‘g‘ri keladigan so‘z va iboralarni o‘z ona tilidan topa bilishi zarur bo‘ladi.

Badiiy tarjima jarayonida tarjimon ba’zan shunday holatlarga ham duch keladiki, o‘girilayotgan matndagi

ayrim timsollar o‘zbek tili ichki qonuniyatlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. O‘shanda tarjimon o‘z tili imkoniyatlaridan kelib chiqib, asl nusxa mazmunini oolib bera oladigan so‘zlarni topishi kerak. Masalan, yuqorida keltilgan «kapalak bo‘lib qolging keladi» birikmasidagi «kapalak» so‘zi o‘rnida originalda «Maikäfer» – «may qo‘ng‘izi» so‘zi kelgan. Biz buni «kapalak» tushunchasi bilan berishga jur’at etdik, chunki «qo‘ng‘iz» tushunchasi, u «may qo‘ng‘izi»mi yoki boshqa qo‘ng‘izmi, qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, o‘zbek tilida kishi ongida ijobiy hislarni qo‘zg‘atmaydi, ayniqsa «jannatmisol go‘shtalar», «xushbo‘y islar dengizi» haqida gap ketayotgan bo‘lsa. Bunday lahzalarda har qanday o‘zbek ham «qo‘ng‘iz»ni emas, guldan-gulga ko‘chib, ajib manzara kashf etayotgan «kapalak»ni tasavvur etishi va bu paytda uning qalbida ko‘tarinki, quvonchli tuyg‘ular uyg‘onishi tabiiy. «Kapalak» so‘zida asl nusxadagi obrazli asos aks etmagan bo‘lsa-da, birinchidan, unda o‘zbek tilining ichki qonuniyati saqlangan, ikkinchidan, nemis tilidagi birikma ham, uning o‘zbekcha tarjimasi bo‘lgan «kapalak bo‘lib qolging keladi» ifodasi ham bitta maqsadga – qahramon ruhiy olamini, uning tanholikda tabiat go‘zalliklaridan lazzat olishini anglatishga xizmat qiladi.

Endi «Jahreszeit der Jugend» birikmasining tarjimasiga kelsak, aslida ushbu birikma so‘zma-so‘z «yoshlik fasli» ma’nosiga ega, ya’ni «bahor» tushunchasini anglataldi. Shundan kelib chiqib biz uni dastlab xuddi shunday tarzda – «bahor» deb o‘girgan edik. Biroq bu asliyatdagi obrazlilikni ifoda etmaydigan oddiy so‘zdir. Aslida yuqo-

ridagi so‘z birikmasini «fasllar kelinchagi» deb ag‘darsak, originaldagи ko‘tarinki ruhga mos kelgan bo‘lardi. Shuni hisobga olib, uni ushbu nashrda aynan shunday tuzatdik.

Bunday yuksak obrazlilik kasb etgan so‘zlardan tashqari, romanning lisoniy boyligini tashkil etuvchi ko‘plab frazeologik birikmalar ham uchraydi. Roman da olmon tilining boy lug‘at tarkibi, Gyote tilining zal vori hamda o‘ziga xosligi namoyish etilgan. Unda hech qanday lug‘atlardan topib bo‘lmaydigan nutq birlikla ri mavjud. Deyarli har bir jumlada frazeologizmlarni, turg‘un birikmalarni, obrazli so‘zlarni uchratish mamkin. Zero bu holat o‘sha davr tili uchun xarakterli bo‘lgan hodisadir.

Mazkur asarda yana ko‘plab eskirgan so‘zlar va birik malar, boshqa tillardan kirib kelgan so‘zlar, badiiy tasvir vositalari ham qo‘llanilganki, ular hozirgi olmon tilida ko‘pincha saqlanmagan. Masalan, Verter o‘z boshlig‘i – elchining shunday tasvirini beradi:

Das waren dem Gehirne spanische Dörfer und ich empfahl mich, um nicht über ein weiteres Dereisonnement noch mehr Galle zu schlucken (71).

Tarjimasi: Achigan kalla uchun bu gaplar xitoy devori edi; yana qandaydir ortiqcha safsata tufayli butunlay xunobim oshmasin deb, tezroq chiqib ketishga shoshildim (94).

Ushbu parcha mag‘zini anglab yetish va uni o‘z ona tilida qayta tiklash uchun tarjimon avvalo har bir so‘z va birikma ostida yashiringan mohiyatni, ularning asl nusxa dagi mazmunini tushunib yetishi hamda o‘z tili boyligidan o‘shalarga mos keladiganlarini tanlab olishi lozim. «Dem

Gehirne» so‘zi «dem Gehirne des Gesandten», ya’ni «el-chining miyasi» ma’nosini beradi. Buni biz umumiy kontekstdan, elchi bilan Verter o‘rtasidagi keng dunyoqarash, olamni teran anglash, insonning hayotiy muammolardagi faol ishtiroki haqidagi bahslardan tushunib olamiz. O‘sha so‘z bilan muallif elchining fahm-farosatdan mahrum zot ekanligini ta’kidlagan. Uning «achigan kalla» deb tarjima qilinishi elchi obrazining o‘zbek tilida ham o‘z qiyofasi-ga ega bo‘lishini ta’min etgan. «Kalla» so‘zi o‘zbek tilida odatda hayvonlarga nisbatan ishlatilib, agar u odamga nisbatani qo’llanilsa, qo‘pol, salbiy mazmun kasb etadi. Insonga xos tafakkurdan deyarli mahrum elchi haqida gap ketganda, «kalla» so‘zini ishlatish ayni muddadir. Farang tilidan kirib kelgan «Deraisonnement» so‘zi «bema’ni, ahmoqona safsata» ma’nosini beradi. Demak, uning «ortiqcha safsata» birikmasi bilan berilishi maq-sadga muvofiq bo‘lgan. Elchiga o‘xshagan befarosat, aqli to‘mtoq nuxxalar bilan bo‘lgan har qanday suhbat ham bema’ni, «ortiqcha safsata»ga aylanishi ochib berilgan. «Galle schlucken» turg‘un birikmasi esa «zardob yutmoq» ma’nosiga ega. Verter elchi bilan bahslashish asnosida undan birorta ma’noli fikr eshitmay, uning tor dunyoqarashidan fig‘oni falakka chiqib ketadi. Uning ana shu holatini ochib berish uchun o‘sha birikma «xunobi oshmoq» iborasi bilan tarjima qilingan. «Butunlay xunobim oshmasin deb» Verter elchi yonidan, umuman shu muhitdan tezroq ketishga harakat qiladi. Yuqoridagi parchada keltirilgan eskirgan frazeologik o‘xshatish «spanische Dörfer» (so‘zma-so‘z – ispan qishloqlari) «butunlay tushunarsiz narsa» ma’nosini anglatadi. Olmon tilida

«ispancha» so‘zi «begona, notanish» ma’nolariga ega. Shuning uchun o‘sha iborani so‘zma-so‘z tarjima qilish o‘zbek kitobxonini boshi berk ko‘chaga kiritib qo‘yish bilan barobardir. Butunlay notanish biror narsa haqida gap ketganda o‘zbeklar odatda «xitoy devori» iborasini ishlatishadi. Shuning uchun «ispan qishloqlari»ning «xitoy devori» bilan berilishi, birinchidan, asl nusxaga xos obrazlilikni, ikkinchidan, muallif maqsadini to‘g‘ri tiklashga yordam bergen. Bunda original mazmunini izoh yo‘li bilan berib ham bo‘lmaydi. Chunki «bu gaplarni u hech ham tushunmaydi» desak, obrazlilik yo‘qqa chiqadi. Qolaversa, frazeologik birikmalarni izoh yo‘li bilan berish usuliga agar tarjima qilinayotgan tilda asl nusxa mohiyatiga mos keluvchi ibora topilmagan paytdagina murojaat qilish mumkin.

«Yosh Verter ang iztiroblari» romanida tabiat tasviri keng o‘rin berilgan. Ayniqsa, Verter-ning tabiatdagi ichki qudrat, ya’ni yaratuvchilik va yemiruvchilik qudrati oldidagi beqiyos hayrati, inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi mushohadalari tasvirida buni yaqqol ko‘ramiz. Asar boshida Verter tabiatdagi ulug‘vorlikdan lazzat, ilhom oladi, undagi go‘zalliklar Verter kayfiyatini ko‘taradi, qalbiga zavq-shavq baxsh etadi. Biroq kitob so‘nggida, endi Lottadan ayrilganiga ko‘zi yetgach hech qayerdan o‘ziga qo‘nim topolmay qolgan, o‘ziga o‘limdan boshqa narsani ravo ko‘rmay qolgan paytlarida unga ildari ilhom, quvonch bag‘ishlagan tabiat manzaralari ham tussiz, ko‘rimsiz bir narsaga aylanib qolgandek tuyuladi.

Epik uslubiy tamoyil bilan bog‘liq mana shunday tasvirlar ko‘pincha uzun-uzun murakkab jumlalardan iborat

bo‘lib, ularda xilma-xil turdag'i ergashgan qo‘shma gaplar, ularning orasida tag‘in obrazli iboralar, son-sanoqsiz o‘xshatishlar va boshqa til hodisalari keladiki, bular tarjimonni mushkul ahvolga solib qo‘yadi. Salkam bir sahi-fani egallagan ana shunday jumlan'i biz Verterning 1771 yil 16 avgustdagi xatida uchratamiz. Unda yorug‘ olam, tabiatdagi ulkan kuch-qudrat, ular oldidagi qahramonning hayrati, falsafiy, ruhiy kechinmalari o‘z ifodasini topgan. Bu haqda ozgina bo‘lsa-da, tasavvur hosil bo‘lsin uchun o‘sha jumlalardan bittasini hech bo‘lmasa o‘zbek tilida keltiramiz: «Avvallari men cho‘qqiga chiqib, daryodan tortib, uzoq tepaliklargacha, butun gullayotgan vodiyni ku-zatardim va tevarak-atrofdagi hamma narsa o‘sayotganini hamda hayot qaynayotganini ko‘rardim, etagidan tortib cho‘qqisigacha baland, qalin daraxtlar bilan qoplangan tog‘larga, ajoyib o‘rmonlar soya tashlab turgan egri-bugri bo‘lib ketgan vodiylarga tikilardim, tinch daryo shivirlab turgan qamishlar oralab oqardi, kechki yengil shabada ko‘kda suzayotgan oppoq bulutlar suvda aks etardi; o‘rmonni jonlantiruvchi qushlarning g‘ala-g‘ovuriga quloq solardim, millionlab pashsha to‘dalari botib borayotgan quyoshning qizil shu’lasida g‘ujg‘on o‘ynashardi va oxirgi yorug‘ shu’la g‘uvillayotgan qo‘ng‘izni maysa orasidan tortib chiqarardi, atrofimdagi harakat va qiy-chuvlar mening nazarimni yerga tortardi, men turgan yalang‘och cho‘qqidan oziq oluvchi yo‘sini hamda yalang‘och qum tepalikda o‘sgan butoq – bularning hammasi menga tabiatning qaynoq, muqaddas ichki dunyosini ko‘z-ko‘z qilar-di; o‘shanda hamma narsa mening to‘lqinli qalbimdan joy olardi.» (76-bet).

Gyote-Verter o‘zini tabiat farzandi, do‘sti, oshig‘i deb ataydi. Bu shoirning Laypsixda o‘qib yurganida tanishgan san’atshunos va rassom ustozlari Adam Ezer, Vinkelman va boshqalar ta’sirida yuzaga kelgan tabiatga bo‘lgan be-qiyos muhabbat natijasidir. Shu sababli, Gyotening har bir asarida, jumladan, «Verter»da ham tabiat manzaralari ajib bir mehr bilan tasvir etiladi. «Faqat tabiatgina benihoya boy va faqat ugina buyuk san’atkor yarata oladi» deb yozadi Verter 1771 yil 20-maydagi xatida (20-bet). Bu o‘ta zukko va teran tafakkurli inson tomonidan aytilgan hikmatdir. 1771 yilning 21 iyunidagi maktubdan olingan quyidagi parchada Verterning Lotta bilan tanishgandan keyingi holati, qalbidagi mehr-muhabbat qaynab toshgan paytda poyonsiz olam go‘zalligidan nechog‘lik rohatlanshi, cheksizliklarga intilishi ifoda etilgan. Tasvir ehtirosli, jo‘shqin hislarni ifodalovchi so‘z va birikmalar, xitoblar, takrorlar, to‘liqsiz gaplar, undov, so‘roq belgilari, ko‘p nuqtalarga boydir: «... Huv ana kichkina o‘rmon!... Qani endi uning orasiga sho‘ng‘ib ketsang!... Ana u yerda esa tog‘ cho‘qqisi! Qani o‘sha cho‘qqidan turib poyonsiz o‘lkani tamoshlo qilsang!... O, koshkiydi ularning ichida yo‘qolib ketsang!... O, bu cheksizliklar ham huddi kela-jakdek yiroqdir!... Biz unga intilamiz! Oh! Yuragimizni eng buyuk; eng totli hislar lazzatiga qondirishga qanchalik tashnamiz-a!...» (41-bet).

Xullas, asar tili behad boy, go‘yo butun olmon tilidagi eng go‘zal, eng serma’no so‘zlar unda jamlangandek. Uni dur-u javohirlarga to‘la tubsiz dengizga qiyoslash mumkin. Ulardagi qat-qat fikr marjonlarini anglab yetish, teran idrok etish kishidan anchagina iqtidor talab etadi.

«Yosh Vertarning iztiroblari» romanı o‘zbek tilida bosilib chiqqandan keyin gazeta va jurnallar sahifalari-da katta-kichik bir qator taqrizlar bosilib chiqdi. Ularda o‘zbekcha «Verter» haqida ijobiy fikrlar bildirildi. Ular-dan eng yirigi «O‘zbek tili va adabiyoti» jurnalida (№3, 1985) e’lon qilingan M.Abdurahmonovning «Yosh Verterning iztiroblari» o‘zbek tilida» nomli maqolasidir. Bun-dan tashqari, Shavkat Karimovning 1983 yilda chiqqan «Dillardan dillarga» kitobida ham «Verter» romanı va uning tarjimasiga bir necha sahifa ajratilgan. Taqrizchilar o‘zbek badiiy tarjimachiligidagi ilk bor asliyatdan amal-ga oshirilgan tarjimanining muvaffaqiyatli yakun topganini alohida ta’kidlashgan.

O‘zbekcha «Verter» o‘z vaqtida nomzodlik disser-tatsiyasi uchun ham asos bo‘ldi. O‘.Sotimovning «Ol-mon adabiyotidan o‘zbek tiliga tarjima qilish tarixidan» mavzuidagi dissertatsiyasining bir bobи «Verter» tah-liliga bag‘ishlangan. Hamda shu asosda O‘zFA ilmiy to‘plamlarida maqolalar e’lon qilindi. Muallif tarjima-ning yutuqlari bilan bir qatorda ayrim juz’iy kamchili-klari ustida to‘xtalib o‘tadiki, bular tarjimaning qayta nashrida hisobga olindi. O‘.Sotimov «Verter» tarjimasi xususida shunday xulosaga keladi: «O‘zbek tilining rang-barang lisoniy-uslubiy qirralaridan unumli foydalanish tarjimonga Gyote sentimental romanining badiiy-esstetik qimmatini saqlash imkonini bergen» (Aftoreferat, T., 1978, 24-bet).

Biroq yutuqlar o‘zimizniki. Harqanday qiyin ishda bo‘lgani kabi ushbu tarjima ham kamchiliklardan xoli emas, ba’zan jiddiylari ham uchrar edi. Bu kamchiliklar,

asosan, atoqli otlar, jug‘rofiy nomlarning ruscha talaffuzda berilishida (Gans, Vilgelm, Valxeym va hokazo), ikkinchidan ayrim muhim sifatlashlar, o‘xshatishlar va boshqa ma’no nozikiiklarining o‘zbek tilida tiklanmay qolgani-da (ularning ayrimlari haqida yuqorida to‘xtalib o‘tdik), uchinchidan, murakkab tarkibli qo‘shma gaplarning ba’zilari talab darajasida o‘girilmaganida, to‘rtinchidan, ayrim istilohlarning o‘rischa shaklda berilishida (ministr, sekretar va hokazo) ko‘rinadi. Ta’kidlash lozimki, erishil-gan yutuqlar oldida bunday yo‘qotishlar unchalik katta emas. Deyarli bircha xatoliklarni matnni qayta nashrga tayyorlash paytida tuzatishga harakat qildik..

«Verter» romani o‘zbek tilida 1975 yilda chop etil-gan bo‘lsa, u davrda hali G‘arbiy Ovrupo tillaridan biror-ta asar to‘lig‘icha bevosita tarjima etilmagan, bu sohada o‘zbek tarjimachiligidagi tajriba to‘planmagan edi. Bir so‘z bilan aytganda, agar ushbu sohani ochilmagan qo‘riq deb hisoblasak, «Verter» tarjimasini shu qo‘riqqa tushgan bi-rinchi omoch deyish mumkin.

«Yosh Verterning iztirobqlari» romani yaratilgandan so‘ng oradan 200 yil o‘tib, o‘zbek tiliga bevosita asli-yatdan o‘girilishi, alohida kitob holida nashr etilishi, bunday sharaflı hamda mas’uliyatli ishning aynan men-ga nasib etishi – bu Xudoning menga ko‘rsatgan inoya-ti bo‘lsa kerak. Gyotedek daho qalamkashning butun mahorati yuz ochgan «Verter» romanini ona tilimga o‘girish baxti mening peshonamga yozilganidan, bunday nozik vazifaning uddasidan harqalay chiqa olganimdan beqiyos xursandman va baxtliman. «Verter» romani ya-

ratilgani hamda ilk bor chop etilganiga ham mana 240 yildan oshdi. U insonlar qalbi va ma'naviyatini abadiy boyitib, jahon adabiyoti durdonalaridan biri bo'lib qolaveradi.

Y . Egamova

Filologiya fanlari nomzodi.

Abadiy-badiiy nashr

Logann Wolfgang Gyote

**YOSH VERTERNING
IZTIROBLARI**

ROMAN

Muharrir	<i>Go'zal Matyoqubova</i>
Badiiy muharrir	<i>Oloviddin Sobir o'g'li</i>
Texnik muharrir	<i>Dilmurod Jalilov</i>
Sahifalovchi	<i>Bobur Tuxtarov</i>
Musahhih	<i>Rayxon Ibragimova</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.
2018-yil 15-martda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 ½, Times New Roman garniturasи.
Ofset bosma. 10,5 shartli bosma toboq. 9,65 nashr tobog'i.
Adadi 10000 nusxa. 6 raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida

Yoshlar nashriyot uyi. Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«ELIZABET PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Yalta ko'chasi, 17-uy.

ISBN 978-9943-5219-8-8

A standard one-dimensional barcode representing the ISBN number 978-9943-5219-8-8.

9 789943 521988